E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004

ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz @buxdu1 @buxdu1 www.buxdu.uz

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

7(3)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI

7(3)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2026, № 7, iyul

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo‘yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo‘yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo‘yicha, **tarix** fanlari bo‘yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan. Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti
Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o‘rinbosari: Samiyev Kamoliddin A’zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mas’ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)
Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)
Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)
Bezdudnaya A. G., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Razumovskiy V. M., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Zahidov A. A., Texas universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori
Kovalev I. V., Sibir Federal universiteti professori, texnika fanlari doktori
Ibrayeva K. T., Tyumen davlat universiteti, Ekologiya va qishloq xo‘jaligi biologiyasi instituti, texnika fanlari nomzodi
Tursunjon M., Shinjon Uyg‘ur Avtonom Rayoni Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi, Paxta ilmiy-tadqiqot instituti professori, qishloq xo‘jalik fanlari doktori
Ai Syan Tao, Shinjon Universiteti Aqlli qishloq xo‘jaligi instituti direktori, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor
Tursunov D.A., O‘sh davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori
Zagdkhorol Bayasgalan, Mongolian University of Science and Technology professori, fizika-matematika fanlari doktori
Gumerov Renat, Qozon federal universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori
Babayeva F. Sh., Ozarbayjon milliy fanlar akademiyasi professori, falsafa fanlari doktori
Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)
Mo‘minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)
Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor
Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor
Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor
O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor
To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor
Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor
Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jamilova Bashorat Sattorovna, filologiya fanlari doktori, professor
Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori
Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor
Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor
Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor
Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor
Yuldosheva Dilorom Nigmatovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sharipov M. Z., fizika-matematika fanlari doktori, professor
Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor
Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor
Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor
Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor
Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, professor
Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent
G'aybullayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'rinova Bozorgul Zokirovna, tarix fanlari doktori, dotsent

SERIYA: **T I L SH U N O S L I K**

MUNDARIJA *** CONTENTS *** СОДЕРЖАНИЕ		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Bozorova G.F.	Frazeologizmlarda taom nomlarining lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida)	3
Elova D.Q.	Soliq qonunchiligi matnlarining lingvistik-mantiqiy xususiyatlari	7
Narzilloyeva M.Sh.	Jondor tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili	13
Nazirova U.N.	Aqliy intellektual sifatlar shakllanishida psixolingvistik omillarning mazmun-mohiyati	17
Salavatova L.E.	Communicative and pragmatic potential of conceptual metaphors of artificial intelligence in English, Russian, and Uzbek discourses	21
Xo‘jamova L.	Charlz Dikkenz asarlarida frazeologizmlarning lingvistik xususiyatlari va ularning o‘zbek tiliga tarjima strategiyalari	25
Yodgorov J.J.	Undov so‘zlar matnning ishontirish samaradorligini ta’minlashda asosiy birlik sifatida	30
Баротов Т.М.	Концепт «деньги» в английском, узбекском и русском языках: лексико-семантический анализ	38
Джураева З.Р.	Зооморфная метафора через призму сопоставительной когнитивной лингвистики	42
Саидова Г.О.	Сопоставительный анализ просодических систем русского и узбекского языков	47
Сайдуллаева Р.И.	Семантические особенности ономастических терминов русского и узбекского языков	51
Юлдашева Ю.У.	Влияние предиката на формирование вопросительных предложений в русском и узбекском языках (сопоставительный анализ)	55
Hamdamov H.A.	Ingliz frazeologiyasida fe’l + ot tipidagi kollokatsiyalarni funksional-kognitiv yondashuv asosida tadqiq etish	60
Koziyeva I.K.	Onomastic space	67

Barotova S.U.	Depiction of “spiritual values” in Uzbek language media articles	71
G‘ulomova N.S.	Alisher Navoiy mualliflik korpusini takomillashtirishning muhim xususiyatlari	75
Isaeva D.A.	Diversity in speech perception and speech production mechanisms among autistic and neurotypical children	80
Alayev R.H., Kenjayeva M.B.	Matn davrini aniqlash uchun yig‘ilgan matnlarni oldindan qayta ishlash bosqichlari	85
Noralieva K.M.	Intertextual functions of allusion in Shakespeare’s Hamlet	89
Normamatov F.K.	Intertekstuallik munosabatlari va ularning turlari	93
Safarova X.S.	Ingliz va fransuz tillarida kommunikativ-pragmatik xususiyatlar	97
Шарипова Д.Г.	Способы передачи чужой речи в современном русском языке	104
Tairova M.H.	Rus, o‘zbek va fransuz tillarida farmatsevtika terminologiyasining semantik xususiyatlari va sinonimiyasi	109
Saidov S.S.	Structural-semantic and functional features of pharmaceutical terms in a corpus of medicine instructions	116
Абдуллаева Н.С.	Позиционная нейтрализация в слово-конечной позиции в английском и русском языках	121
Saidova X.F.	O‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish omillari	128
Cho‘liyev R.A.	Lingvokulturologiya, spetsifika va konsept munosabati	132

UO‘K 81

FRAZEOLOGIZMLARDA TAOM NOMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Bozorova Gulruh Furqat qizi,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0000-7103-7896
gulruhbozorova695@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan taom nomlarining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot ustida ishlash jarayonida taom nomlari ishtirokidagi turli iboralarning semantik tuzilishi, ularning konnotativ ma’nolari hamda madaniy xususiyatlarni ifodalashdagi o‘rni o‘rganiladi.*

Ma’lumki, ingliz tilidagi “easy as pie”, “piece of cake” kabi iboralar hamda o‘zbek tilidagi “non sindirmoq”, “oshini bermoq” kabi frazeologizmlar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu semantik birliklar orqali har ikki xalqning turmush tarzi va mentaliteti, urf-odatlari va madaniy qadriyatlari qanday aks etishi aniqlanadi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida frazeologik birliklar tarkibidagi taom nomlarining semantik transformatsiyasi, ya’ni ularning bevosita o‘z ma’nosidan ko‘chma ma’noga o‘tish jarayoni ham tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: *frazeologik birliklar, taom nomlari, lingvokulturologiya, konnotatsiya, semantika, madaniyat, ingliz tili, o‘zbek tili.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАЗВАНИЙ БЛЮД В СОСТАВЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности наименований блюд, входящих в состав фразеологических единиц английского и узбекского языков. В ходе исследования рассматриваются семантическая структура различных выражений с компонентом пищи, их коннотативные значения, а также их роль в выражении культурных особенностей.*

Известно, что такие английские выражения, как “easy as pie” и “piece of cake”, а также узбекские фразеологизмы, как “non sindirmoq” и “oshini bermoq”, анализируются в сравнительном аспекте. На основе данных семантических единиц выявляется, каким образом отражаются образ жизни, менталитет, традиции и культурные ценности двух народов.

Кроме того, в работе рассматривается семантическая трансформация наименований блюд в составе фразеологических единиц, то есть процесс перехода от прямого значения к переносному.

Ключевые слова: *фразеологизмы, названия блюд, лингвокультурология, коннотация, семантика, культура, английский язык, узбекский язык.*

LINGUOCULTURAL FEATURES OF FOOD NAMES IN PHRASEOLOGICAL UNITS (A CASE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Abstract. *This article analyzes the linguocultural features of food names found within phraseological units in English and Uzbek languages. In the course of the research, the semantic structure of various expressions containing food names, their connotative meanings, and their role in expressing cultural characteristics are examined.*

It is well known that such English expressions as “easy as pie” and “piece of cake”, as well as Uzbek phraseological units like “non sindirmoq” and “oshini bermoq”, are analyzed from a comparative perspective. Through these semantic units, the reflection of the lifestyle, mentality, traditions, and cultural values of both nations is identified.

Furthermore, the study explores the semantic transformation of food names within phraseological units, that is, the process of their transition from literal to figurative meanings.

Keywords: *phraseological units, food names, linguocultural studies, connotation, semantics, culture, English language, Uzbek language*.

Kirish. Ma’lumki, til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniyati, dunyoqarashi va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Shu jumladan, frazeologik birliklar tilning eng boy va obrazli qatlamlaridan biri bo‘lib, ularni til birliklarida va nutqda ishlatish o‘sha xalqning milliy mentaliteti va qadriyatlari yaqqol namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Ko‘pgina manbalardan bizga aniqki, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik zamonaviy tilshunoslikda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Rus filolog tadqiqotchisi V. A. Maslova ta’kidlaganidek, til madaniyatning aks etish shakli bo‘lib, unda xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va mentaliteti mujassam bo‘ladi [6].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Frazeologizmlar bilan ifodalangan nutq doimo juda ta’sirchan va boyligi bilan ajralib turadi. Nutq tarkibida uchraydigan taom nomlari esa alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular xalqning ovqatlanish madaniyati, turmush tarzi va an’analari bilan bevosita bog‘liqdir. Bizga ma’lumki, Ingliz va o‘zbek tillarida taom nomlari asosida shakllangan anchagina iboralar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llanadi va muayyan konnotativ mazmunni ifodalaydi.

Frazeologik birliklar xalqning madaniy tajribasini o‘zida aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Yana bir rus tadqiqotchisi V. N. Teliya fikricha, frazeologizmlar milliy madaniyatning “oynasi” bo‘lib, ular orqali xalqning tarixiy va ijtimoiy tajribasi namoyon bo‘ladi (Teliya, 1996). Shu sababdan, frazeologik birliklardan til jarayonida foydalanish nutqni yanada ko‘rkam va ta’sirchan qilib ko‘rsatishini ushbu ikki tadqiqotchi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi taom nomlari ishtirokidagi frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning semantik va madaniy jihatlarini qiyosiy o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy va amaliy asosini frazeologiya, lingvokulturologiya, semantika hamda qiyosiy tilshunoslikka oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillariga oid frazeologik, izohli va etimologik lug‘atlar, lingvistik ensiklopediyalar, ilmiy maqolalar hamda badiiy adabiyotlardan foydalanildi. Mazkur manbalardan mavzuga tegishli bo‘lgan taom nomlari ishtirokidagi frazeologik birliklar tanlab olinib, tizimlashtirildi va ilmiy tahlilga jalb qilindi. Tadqiqot davomida leksik-semantik tahlil metodidan keng foydalanildi. Ushbu metod yordamida frazeologik birliklar tarkibidagi taom nomlarining lug‘aviy ma’nosi, ko‘chma ma’nosi hamda ularning semantik transformatsiyasi o‘rganildi. Shuningdek, taom nomlari frazeologik birlik tarkibida qanday yangi emotsional-ekspressiv va madaniy ma’no kasb etishi aniqlashtirildi. Leksik-semantik tahlil orqali ayrim birliklarning denotativ va konnotativ qatlamlari farqlanib, ularning madaniy-semantik yuklamasi ochib berildi.

Tadqiqotda lingvokulturologik tahlil metodi ham muhim o‘rin egalladi. Mazkur metod orqali o‘zbek va ingliz xalqlarining milliy mentaliteti, qadriyatlari, urf-odatlari va an’analarining frazeologik birliklarda qanday aks etishi tadqiq qilindi. Ayniqsa, taom nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlarda xalqning turmush tarzi, mehmondo‘stlik madaniyati, diniy-axloqiy qarashlari va milliy dunyoqarashi ifodalanishi tahlil qilindi. Lingvokulturologik yondashuv frazeologik birliklarning faqat til hodisasi emas, balki madaniy kod sifatida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, maqolada qiyosiy-komparativ metoddan ham samarali foydalanildi. Ushbu metod asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi taom nomlari ishtirokidagi frazeologik birliklarning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning semantik tuzilishi hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil natijasida ikki xalqning milliy tafakkuri va madaniy qarashlari frazeologik birliklarda turlicha aks etishi ilmiy asoslandi.

Tadqiqot jarayonida komponent tahlil metodidan ham foydalanildi. Ushbu metod orqali frazeologik birliklar tarkibidagi asosiy semantik komponentlar ajratilib, ularning madaniy va emotsional ma’nolari aniqlashtirildi. Komponent tahlil natijasida ayrim taom nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlarda milliy-madaniy semalar ustunlik qilishi, ayrimlarida esa universal semantik xususiyatlar mavjudligi aniqlandi.

Shuningdek, kontekstual tahlil metodidan foydalanish orqali frazeologik birliklarning turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llanish xususiyatlari o‘rganildi. Badiiy matnlar va ommaviy axborot vositalaridan olingan misollar asosida frazeologik birliklarning uslubiy vazifasi, emotsional ta’sir kuchi hamda pragmatik imkoniyatlari tahlil qilindi. Bu esa taom nomlari ishtirokidagi frazeologik birliklarning til tizimidagi funksional ahamiyatini kengroq yoritishga imkon berdi. Tadqiqotning metodologik asoslari o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi natijasida o‘zbek va ingliz tillaridagi taom nomlari bilan bog‘liq frazeologik birliklarning lingvokulturologik tabiati, semantik xususiyatlari hamda milliy-madaniy jihatlari chuqur va kompleks tarzda tadqiq etildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ushbu tadqiqotda keltirlgan frazeologik birliklar ingliz va o‘zbek xalqlarining chuqur madaniy ifodasini ularning madaniy qadriyatlarini, dunyoqarashini va kundalik

hayot tarzini aks ettiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Koʻpincha ushbu birliklar koʻchma maʼnoda qoʻllanilib, oʻzida chuqur konnotativ mazmunni va mohiyatni mujassam etib turadi.

Jumladan, ingliz tilida keltirilidigan “easy as pie” va “piece of cake “ iboralari “juda oson” maʼnosini berib, ushbu iborani nutq jarayoinida ishlatish nutqni juda taʼsirchan va jozibador qilib koʻrsatadi [1;2]. Ushbu iborada “pie” va “ cake” taom nomlari emotsional konnotatsiyaga ega boʻlib , yoqimlilik hissiyotlarini hamda zavq bilan bajariladigan ish jarayoni uchun ishlatilishi bilinib turadi. Bizga maʼlumki ingliz madaniyatida shirinliklar odatda juda ijobiy hissiyotlar bilan bogʻliqligi sababli ular orqali shakllangan frazeologizmlar ham ijobiy yuklamaga ega boʻlishi bilan ajralib turadi.

Shunga oʻxshash koʻplab frazeologizmlarga “bread and butter” iborasini ham keltirib oʻtsak maqsadga muvofiq boʻladi. Ushbu iboraning tarjimasi “asosiy daromad manbai” deb tushuniladi. Bu yerda “bread “ (non) inson hayotidagi eng aziz va eng zarur oziq ovqat manbayi hisoblanishi talqin qilinadi [2;5]. Natijada ushbu ibora lingvokulturologik jihatdan juda hayotga zaruriy va iqtisodiy jihatdan zarur va barqarorlikni bildiradi.

Yana bir frazeologizmga namuna tarzda “spill the beans” iborasini keltirib oʻtsak boʻladi. Ushbu ibora “sirni oshkor qilmoq” maʼnosida ishlatiladi. Bu iborada “beans” termini bevosita oziq ovqat bilan bogʻliq soʻz hisoblanib, uning koʻchma maʼnosi yashirin maʼlumotni oshkor qilish bilan bogliq. Demak ingliz tilida ham jamiyki taom nomi bilan keltiriladigan iboralar ham ijobiy maʼnoda emas balki salbiy maʼnoda ishlatishi koʻrishimiz mumkin.

Bizga oʻzbek tili oʻzining boy frazeologizmlari bilan tanilganligi sir emas. Lekin oʻzbek tilida ham aynan taom nomlari ishtirokida tuzilgan iboralar mavjudligi unda ijtimoiy munosabatlar, oʻzaro hurmat va axloqiy qadriyatlar hamda doʻstona yaqinlik hissi sezilib turadi. “non” leksemasi oʻzbek tilida eng aziz va muqaddaslik va baraka belgilarini aks ettirishi bilan namoyon boʻladi. “non sindirmoq” iborasini oʻzbek xalqi juda koʻp ishlatishadi (Rahmatullayev, *Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati*; Oʻzbek tilining izohli lugʻati). Bizga maʼlumki ushbu ibora toʻy va fotiha marosimlari bilan ham uzviy bogliq. Chunki oʻzbekistonning ayrim viloyatlari xususan qashqadaryo, surxondaryo viloyatlarida aynan shu fraza fotiha toʻyidan oldin qilinadigan marosim nomi. Ikki yoshga bitmas tuganmas baxt va kamol tilab, ota bobolarimiz, shu xonadonning keksa qariyalari non va patirlar sindirib, ikki oila oʻrtasida uzilmas rishtalarni bogʻlashadi. Shu bois ushbu ibora chuqur lingvokulturologik mazmunga ega.

Bundan tashqari, oʻzbek tilida “tuzni ichmoq “iborasi mavjud boʻlib, uning koʻchma maʼnosi sadoqat, minnatdorlik hamda vafodorlik bilan ifodalanadi[3,4]. Shu sababdan, oʻzbek xalqi ushbu iborani insonlar oʻrtasidagi ijtimoiy va axloqiy munosabat shakllarida keng qoʻllashadi.

Tadqiqot jarayonida yana bir oʻzbekcha iboraga koʻzimiz tushadi. Yana “oshini bermoq” boʻlib, u kimnidir rad etish yoki munosabatni uzish maʼnosini bildiradi. Bu yerda “osh” milliy taom sifatida ijtimoiy yigʻilishlar va munosabatlar bilan chambarchas bogʻliq. Shu sababli ushbu iboraning semantikasi ham ijtimoiy kontekst asosida shakllangan.

Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatadiki, ingliz tilidagi frazeologizmlarda taom nomlari koʻproq oddiylik, qulaylik va kundalik hayot bilan bogʻliq maʼnolarni ifodalasa, oʻzbek tilida ular koʻproq ijtimoiy munosabatlar, hurmat, sadoqat va axloqiy qadriyatlarni aks ettiradi. Bu esa har ikki xalqning mentaliteti va madaniy xususiyatlari oʻrtasidagi farqlarni yaqqol namoyon etadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni taʼkidlash mumkinki, oʻzbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar tarkibida uchrab turadigan turli taom nomlari chuqur lingvokulturologik ahamiyatga ega. Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, taom nomlari frazeologizmlar tarkibida faqat nominativ birlik sifatida emas, balki muhim madaniy va emotsional maʼnolarni ifodalovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi frazeologizmlarda taom nomlari koʻproq qulaylik, soddalik va kundalik hayot bilan bogʻliq maʼnolarni ifodalasa, oʻzbek tilida ular koʻproq muqaddaslik, hurmat, sadoqat va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Umuman olganda, ushbu frazeologik birliklar lingvokulturologik jihatdan til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni aks ettiradi [6,7].

Shuningdek, har ikki tilda ham taom nomlari orqali xalqning turmush tarzi, mentaliteti va qadriyatlari ifodalanishi aniqlandi. Bu esa til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan taom nomlari faqat til birliklari sifatida emas, balki madaniy kodlar sifatida ham namoyon boʻladi. Ular orqali har bir xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlar tizimi ifodalanadi. Ayniqsa, ingliz tilida taom nomlari koʻproq kundalik hayotning soddaligi va qulayligini ifodalasa, oʻzbek tilida ular chuqurroq ijtimoiy va axloqiy mazmun bilan boyitilganligi kuzatiladi. Bugungi dolzarb zamonda, tilshunoslikda madaniyat va til oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganish eng muhim islohotlardan biri hisoblanib qolmay, undagi *lingvokulturologiya* yoʻnalishi usha davr milliy mentalitet, qadriyatlar hamda milliy

an’analarni aniqlashga xizmat qilib kelmoqda. Chunki ushbu manbalardan foydalanish xalqlarning yashash muhiti ulardagi iqtisodiy vaziyatlarni ham oson ilg‘ab olish uchun ham xizmat qilib kelmoqda.

Shuningdek, frazeologik birliklar tarkibidagi taom komponentlari til tizimida barqaror semantik birlik sifatida shakllanib, avloddan avlodga o‘tuvchi madaniy merosni aks ettiradi. Bu esa til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning uzluksiz davom etishini ko‘rsatadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu yo‘nalishni yanada kengaytirish, boshqa tillar bilan qiyosiy o‘rganish hamda frazeologik birliklarning diskursiv va pragmatik xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. *Oxford Dictionary of English Idioms. — Oxford University Press.*
2. *Cambridge Idioms Dictionary. — Cambridge University Press.*
3. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — Toshkent.*
4. *Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. — Toshkent.*
5. *Kunin A. V. English-Russian Phraseological Dictionary. — Moskva.*
6. *Маслова В. А. Лингвокультурология. — Москва. 1996*
7. *Телия В. Н. Фразеология и культура. — Москва. 1992*

UO‘K

SOLIQ QONUNCHILIGI MATNLARINING LINGVISTIK-MANTIQIY XUSUSIYATLARI

Elova Dilrabo Qudratillayevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dilraboelova@gmail.com
ORCID: 0000-0002-2329-1811

Annotatsiya. *Mazkur maqolada normativ-huquqiy matnlarning ichki mantiqiy qurilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi rasmiy matnlarda uchraydigan yashirin mantiqiy nomuvofiqliklarni aniqlashdan iborat. Ayniqsa, sintaktik qamrov buzilishi, anaforik bog‘lanish va diskursiv kogerentlik bilan bog‘liq holatlarga e’tibor qaratildi. Tadqiqot materiali sifatida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 248-moddasi olindi. Modda qismlari o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlar bir necha usul yordamida tahlil qilindi. Jumladan, leksik-semantik segmentatsiya, formal mantiq tahlili, kontrafaktik modellashtirish va diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, huquqiy amaliyotda uchraydigan ayrim “kengaytirilgan talqin” holatlari matnning mantiqiy chegaralarini hisobga olmaslik natijasida yuzaga keladi. Shuningdek, modda tarkibida turli mantiqiy mexanizmlar parallel ravishda amal qilishi aniqlandi. Ular orasida qat’iy majburiy normalar, nizolash mumkin bo‘lgan qoidalar va chegaralovchi me’yorlar mavjud. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida lingvo-mantiqiy ekspertiza metodikasini mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvo-mantiqiy ekspertiza, huquqiy lingvistika, propozitsional mantiq, sintaktik qamrov, kogerentlik, anaforik bog‘lanish, bekor qilinishi mumkin bo‘lgan mantiq, kontrafaktik modellashtirish, Soliq kodeksi, normativ matn tahlili.*

ЛИНГВИСТИКО-ЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕКСТОВ НАЛОГОВОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Аннотация. *В данной статье анализируется внутренняя логическая структура нормативно-правовых текстов. Основная цель исследования заключается в выявлении скрытых логических несоответствий, встречающихся в официальных текстах. Особое внимание уделено случаям, связанным с нарушением синтаксического охвата, анафорической связью и дискурсивной когерентностью. В качестве материала исследования взята статья 248 Налогового кодекса Республики Узбекистан. Логические отношения между частями статьи проанализированы с помощью нескольких методов. В частности, использовались методы лексико-семантической сегментации, формально-логического анализа, контрфактического моделирования и дискурсивного анализа. Анализ показал, что некоторые случаи «расширительного толкования», встречающиеся в правовой практике, возникают в результате игнорирования логических границ текста. Также установлено, что в структуре статьи параллельно действуют различные логические механизмы. Среди них — строгие императивные нормы, оспариваемые правила и ограничительные нормы. Результаты исследования показывают необходимость развития методики лингво-логической экспертизы в узбекском языкознании как самостоятельного научного направления.*

Ключевые слова: *лингво-логическая экспертиза, юридическая лингвистика, пропозициональная логика, синтаксический охват, когерентность, анафорическая связь, дефолтная логика, контрфактическое моделирование, Налоговый кодекс, анализ нормативного текста.*

LINGUISTIC AND LOGICAL FEATURES OF TAX LEGISLATION TEXTS

Abstract. *This article analyzes the internal logical structure of normative-legal texts. The primary objective of the research is to identify latent logical inconsistencies within official texts. Particular attention is given to issues related to syntactic scope, anaphoric reference, and discursive coherence. Article 248 of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan was taken as the research material. The logical relationships between the parts of the article were analyzed using several methods. Specifically, lexical-semantic segmentation, formal logic analysis, counterfactual modeling, and discourse analysis were employed. The analysis shows that certain instances of "broad interpretation" encountered in legal practice arise from a*

failure to consider the logical boundaries of the text. It was also determined that various logical mechanisms operate in parallel within the article. These include strictly mandatory norms, disputable rules, and limiting standards. The research findings indicate the necessity of developing the methodology of linguo-logical expertise as an independent scientific field within Uzbek linguistics.

Keywords: *linguo-logical expertise, legal linguistics, propositional logic, syntactic scope, coherence, anaphoric reference, defeasible logic, counterfactual modeling, Tax Code, normative text analysis.*

Kirish. Matnning mantiqiy yaxlitligi tilshunoslikdagi muhim masalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rasmiy va normativ matnlarda mazmuniy aniqlikning buzilishi amaliy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Huquqiy matnda qo‘llangan har bir birlik ma’lum normativ yukni ifodalaydi. Shu sababli bunday matnlarda kichik sintaktik yoki semantik noaniqlik ham turli talqinlarga sabab bo‘ladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda huquqiy matnlarni lingvistik jihatdan o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu holat, avvalo, sud va huquqni qo‘llash amaliyotida matn interpretatsiyasining muhim o‘rin tutishi bilan bog‘liq. D.Crystal va D.Davy [6] rasmiy uslubdagi matnlarda kogeziya hamda kogerentlikning buzilishi kommunikativ noaniqlikka olib kelishini ta’kidlagan. Huquqiy diskursda esa bunday noaniqlik faqat kommunikativ emas, balki iqtisodiy va huquqiy oqibatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Huquqiy matn boshqa funksional matn turlaridan ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Eng avvalo, undagi har bir birlik normativ vazifa bajaradi. Bunday matnning normativligi (qoidalar va majburiyatlarni belgilash funksiyasi) har bir so‘z va iboraga alohida huquqiy yuk beradi. Ayrim hollarda ko‘p ma‘noli so‘zlar turlicha talqin qilinadi. Amaliyotda esa bu huquqiy nizolarga sabab bo‘lishi mumkin. Huquqiy matndagi sintaktik va semantik munosabatlar faqat lingvistik emas, balki formal-mantiqiy kategoriyalar orqali ham baholanishi tafsiya qilinadi. D.Mellinkoff [10] o‘zining fundamental tadqiqotida yuridik tilning o‘ziga xos murakkabligini hamda undagi har bir lisoniy birlikning bevosita huquqiy oqibatlarga ega ekanligini batafsil asoslab bergan.

Yuridik tilshunoslik mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida nisbatan kech shakllangan bo‘lsa-da, bugungi kunda u amaliy ahamiyatga ega sohalardan biriga aylandi. Xususan, J.L.Austinning nutq aktlari nazariyasi [1] performativ gaplar va ularning huquqiy kuchi masalasini ko‘targan, J.R.Searlening illokutiv kuch tushunchasi [14] nutqiy harakatlarning maqsadga yo‘naltirilgan tabiatini ochib bergan, P.Grice ishlari esa matndagi aloqadorlik va mantiqiy izchillik masalalarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [7]. Rossiya yuridik tilshunoslik maktabi vakillari A.N.Baranov [4] lingvistik ekspertizaning nazariy asoslari va amaliy usullarini tizimlashtirib, E.I.Galyashina [5] sud-lingvistik ekspertizaning protsessual maqomi va uslubiy ko‘rsatmalarini ishlab chiqdi. Biroq propozitsional mantiq apparati va formal semiotik vositalarni bevosita milliy huquqiy matnlarga tatbiq etish masalasi hamon keng miqyosda tadqiq etilmagan.

Matn va diskurs nazariyasining rivojida T.A.van Dijkning [18] kognitiv asoslarga tayangan diskursiv modellashtirish ishlari alohida ahamiyatga ega. W.Kintsch bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan strategik tushunish modeli [9] matnni qayta ishlash jarayonida mantiqiy qatlamlarning rolinini ochib berdi. N.D.Arutyunovaning mantiqiy tahlil doirasidagi tadqiqotlari [3] matniy anomaliyalar va ziddiyatlarni tilshunoslik instrumentariysi orqali aniqlash yo‘llarini ko‘rsatib berdi. Argumentatsiya nazariyasida S.Toulminning dalildan xulosaga o‘tish tizimi [16] hamda F.van Eemeren va R.Grootendorstning pragma-dialektik modeli [17] mantiqiy baholashning protsedural asoslarini taklif etdi.

O‘zbek tilshunosligida ham mazkur muammolar muhim o‘rin tutadi. Sh.Safarov [13] pragmalingvistik yondashuvlarni o‘zbek tili materialida asoslab bergan, N. Mahmudov [11] o‘zbek sintaksisining mantiqiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan. M.Hakimov [8] matn pragmatikasi va uning talqin muammolarini ko‘rib chiqqan, Z. Xolmanova [19] esa yuridik terminlarning semantik chegaralari masalasiga bag‘ishlangan tadqiqot yaratdi. Shunga qaramay, O‘zbekiston milliy qonunchiligini kompleks lingvo-mantiqiy jihatdan ekspertiza qilishga yo‘naltirilgan maxsus metodika hali ishlab chiqilmagan. P.Tiersmaning yuridik til tabiatini o‘rgangan fundamental monografiyasi [15] va V.K.Bhatiyaning professional diskursda janr tahlili nazariyasi [2] normativ matnlar qurilishini chuqurroq anglash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida lingvistik ekspertiza va yurislingvistika yo‘nalishi keyingi yillarda faol rivojlanayotgan amaliy tilshunoslik sohalaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, sud-lingvistik ekspertiza, konfliktli matnlar tahlili, huquqiy diskurs va normativ-huquqiy matnlarni lingvistik talqin qilish masalalari yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada K.Musulmonovaning lingvistik ekspertizaning obyekti, predmeti, ekspert kompetensiyasi va metodologik asoslariga bag‘ishlangan ishlari alohida ahamiyatga ega [20]. Tadqiqotchi o‘zbek ilmiy muhitida “lingvistik ekspertologiya” terminining faol qo‘llanishiga ham sezilarli hissa qo‘shgan. B.Mengliyevning zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik va

amaliy tilshunoslikka oid qarashlari esa yurislingvistikaning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda muhim manbalardan biri hisoblanadi [21]. Ayniqsa, “lingvistik ekspertologiya” tushunchasining o‘zbek ilmiy maydoniga kirib kelishi bevosita ushbu ilmiy maktab bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Bu yondashuv lingvo-mantiqiy ekspertiza konsepsiyasini shakllantirish uchun ham metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

Lingvo-mantiqiy ekspertiza metodlari. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 248-moddasi(“Soliq bazasini aniqlash tartibi”) [12] asosiy tahlil materiali sifatida tanlab olindi. Mazkur modda bir necha turdagi normativ mexanizmlarni o‘z ichiga olgani sababli lingvo-mantiqiy tahlil uchun qulay namuna hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, zamonaviy yuridik tilshunoslikda matnni faqat grammatik yoki leksik sathda tahlil qilish yetarli emas. Normativ matnlarning kommunikativ muvaffaqiyati nafaqat sintaktik to‘g‘rilik, balki mantiqiy izchillik bilan ham belgilanadi. Bu jihat ayniqsa huquqni qo‘llash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki sudlar va soliq organlarining qarorlari bevosita matn talqiniga asoslangan bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, tilshunoslikning formal mantiq bilan kesishish nuqtasida shakllangan lingvo-mantiqiy ekspertiza metodikasi matnni bir vaqtning o‘zida lisoniy va mantiqiy qatlamlarda baholash imkonini beradi. Bizningcha, bunday yondashuv normativ matnlarni izohlashdagi subyektivlikni ma’lum darajada cheklaydi. Bu esa ekspert xulosasining ilmiy ishonchliligini oshiradi.

Tahlil jarayonida qat’iy to‘rt bosqichli metodologik apparatdan foydalanamiz. Qo‘llanilgan usullarning har biri yuridik matnning an’anaviy grammatik-uslubiy tahlil orqali ilg‘ab bo‘lmaydigan maxsus qatlamini ochishga xizmat qiladi. Shu bois ular alohida-alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit kompleks sifatida tatbiq etiladi.

Tahlilda foydalanilgan metodlar bir xil vazifani bajarmaydi. Ularning ayrimlari matnning semantik qatlamini ochsa, boshqalari yashirin mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Natijada matn bir necha bosqichda tahlil qilinadi. Dastlab leksik-semantik qurilish ko‘rib chiqiladi, keyin esa mantiqiy va diskursiv bog‘lanishlarga e’tibor qaratiladi.

1. Leksik-semantik va mantiqiy segmentatsiya. Ushbu usul doirasida modda matnidagi har bir normaga uning huquqiy-semantik toifasi (aksiomatik qoida, istisno, shart, sub-premisa, cheklov) tayinlanadi. Shundan so‘ng toifalar o‘rtasidagi iyerarxik munosabatlar – asosiy hamda bo‘ysunuvchi normalarning o‘zaro nisbati aniqlanadi. Obyektni aksiomatik qoida (bosh premisa) – soliq bazasining umumiy aniqlash tartibi; istisno va chegaralovchi filtrlar – narxning bozor qiymatidan farqlanishi holatlari; maxsus holatlar (sub-premisalar) – ayirboshlash, bepul berish, shaxsiy maqsadda foydalanish; avtonom tartibga soluvchi normalar – 4- va 6-qismlardagi mustaqil mexanizmlar qamrab oladi. Shu tarzda matnning “yashirin arxitekturasi” – har bir qoidaning amal qilish doirasi va huquqiy kuchi – namoyon qilinadi.

2. Propozitsional mantiq tahlili. Mazkur bosqichda modda qismlaridagi normativ hukmlar formal mantiq apparati yordamida tahlil qilinadi. Xususan, shartli implikatsiya **($P \rightarrow Q$)**, disyunksiya **($P_1 \vee P_2 \vee P_3$)**, o‘zaro moslikni bildiruvchi operator **($\leftrightarrow$)** hamda inkor munosabati **($\neg S$)** orqali gaplarning mantiqiy tuzilishi va o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi, Bundan tashqari, “*quyidagi hollarda”, “agar... bo‘lsa”* kabi konstruksiyalarning matn ichidagi mantiqiy funksiyasi formal-mantiqiy talqin asosida izohlanadi.

3. Kontrafaktik modellashtirish. Ushbu metod ayrim normativ qoidalar sun’iy ravishda boshqa qismga tatbiq etilganda qanday mantiqiy ziddiyat yuzaga kelishini aniqlash imkonini berdi. Bu yondashuv norma chegaralarining qanchalik barqaror ekanini tekshirish uchun qo‘llandi.

Kontrafaktik modellashtirish modal mantiq asosidagi muqobil talqin modeliga tayanuvchi usullardan biri hisoblanadi. Ushbu metod yordamida matnda mavjud qoidalarning muqobil qo‘llanish holatlari sun’iy ravishda tiklanib, ularning mantiqiy oqibatlari tahlil qilinadi. Bunday yondashuv matnning ichki mantiqiy barqarorligini aniqlash imkonini beradi. Xususan, norma qamrovi sun’iy tarzda kengaytirilganda mantiqiy ziddiyat yuzaga kelishi uning dastlabki chegarasi to‘g‘ri belgilanganini ko‘rsatadi. Agar bunday ziddiyat kuzatilmasa, norma chegarasining noaniqligi yoki ortiqcha kengligi ehtimoli paydo bo‘ladi.

Kogerentlik-diskursiv tahlil. Ushbu usul T.A.van Dijk va W.Kintschning [9] matn kogerentligi nazariyasiga asoslanadi hamda modda qismlari o‘rtasidagi mantiqiy uzviylikni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida matnning umumiy tematik yaxlitligi bilan birga, alohida qismlar orasidagi ichki mantiqiy bog‘lanish ham baholandi. Bunda P.Graysning aloqadorlik tamoyili (relevance maxim) [7] asosiy mezon sifatida qo‘llanildi. Natijada moddaning qaysi qismlari o‘zaro anaforik bog‘lanishga ega ekani, qaysilari esa mustaqil normativ mazmun hosil qilishi aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. 248-moddaning lingvo-mantiqiy tahlili rasmiy matnlarda yashirin holda mavjud bo‘ladigan sintaktik iyerarxiya hamda huquqni qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan talqin bilan bog‘liq muammolarni aniqlash imkonini berdi. Modda qismlarining mantiqiy tuzilishi o‘zaro qiyosiy tahlil qilinganda bir necha muhim holatlar kuzatildi.

Qat‘iy cheklov mantig‘i va sintaktik qamrov (3-qism). Moddaning 3-qismida “quyidagi hollarda” birikmasi yordamida shakllangan yopiq ro‘yxat mavjud. Unda tovarlarni ayirboshlab realizatsiya qilish, bepul berish hamda shaxsiy maqsadlarda foydalanish holatlari ko‘rsatilgan. Mazkur vaziyatlarda real pul ekvivalenti mavjud bo‘lmagani sababli, qonun chiqaruvchi bozor qiymatini aniqlashning maxsus tartibi sifatida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan baholash mexanizmini belgilagan.

Mantiqiy jihatdan ushbu holat $(P_1 \vee P_2 \vee P_3) \leftrightarrow Q$ modeli orqali ifodalanadi. Bu yerda bikonditsional operator norma faqat sanab o‘tilgan holatlarga nisbatan amal qilishini bildiradi. Demak, “quyidagi hollarda” konstruksiyasi bir vaqtning o‘zida ham zaruriy, ham yetarli shart vazifasini bajaradi. Shu bois ro‘yxatning qamrovi kengaytirilishi matnning ichki mantiqiy tuzilishiga zid hisoblanadi.

Bu holat sintaktik qamrovning amalda qanday ishlashini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, grammatik konstruksiya faqat o‘z doirasidagi segmentlarga ta’sir qiladi va undan tashqaridagi qismlarga avtomatik ravishda tatbiq etilmaydi. Buni tekshirish maqsadida kontrafaktik modellashtirish usuli qo‘llanildi. Agar 3-qismdagi Vazirlar Mahkamasi tartibi 4-qismga ham tatbiq etiladi deb faraz qilinsa, soliq to‘lovchining erkin isbotlash huquqi bilan qat’iy baholash mexanizmi o‘rtasida mantiqiy ziddiyat yuzaga keladi. Ayniqsa, shaxsiy maqsadda foydalanish holatini 4-qismdagi erkin isbotlash tartibi bilan bog‘lash mantiqan asoslanmasligi aniqlandi.

Erkin isbotlash va bekor qilinishi mumkin bo‘lgan mantiq (4-qism). 4-qism sintaktik hamda mazmuniy jihatdan 3-qismdan mustaqil normativ birlik sifatida shakllangan. Unda oldingi qismga ishora qiluvchi *“ushbu”, “mazkur”, “yuqoridagi”* kabi anaforik birliklar uchramaydi. Bu holat tasodifiy emas, balki normaning alohida huquqiy mexanizm asosida qurilganini ko‘rsatadi.

Mazkur qismda bekor qilinishi mumkin bo‘lgan mantiq tamoyili amal qiladi. Bunda dastlabki hukm prezumpsiya sifatida ilgari suriladi, biroq qarama-qarshi dalillar mavjud bo‘lsa, u qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Moddaning mantiqiy modeli quyidagicha namoyon bo‘ladi: soliq organi tuzatish kiritish haqidagi tezisni ilgari suradi **($R \rightarrow S$)**, soliq to‘lovchi esa qarshi dalillar orqali ushbu hukmni rad etish huquqiga ega bo‘ladi **($T \rightarrow \neg S$)**.

Bu holat 3-qismdagi qat’iy va bir yo‘nalishli mantiqiy modeldan keskin farq qiladi. Shu sababli 3-qismdagi baholash tartibini 4-qismga sun’iy ravishda ko‘chirish ikki xil ziddiyatni yuzaga keltiradi. Birinchidan, qat’iy norma bilan erkin isbotlash mexanizmi o‘zaro mos kelmaydi, ikkinchidan, anaforik bog‘lanish mavjud bo‘lmagan joyda yashirin normativ aloqani taxmin qilish til qonuniyatlariga zid keladi.

A.N.Baranovning huquqiy lingvistika bo‘yicha qarashlariga ko‘ra [4], yuridik matnda bir normaning keyingi qismga o‘tishi faqat maxsus anaforik vositalar orqali ifodalanishi mumkin. 248-moddaning 4-qismida bunday vositalarning mavjud emasligi uning mustaqil qism ekanini tasdiqlaydi.

Bir tomonlama quyi chegara normasi (6-qism). Import bilan bog‘liq 6-qismda *“hisoblab chiqarilgan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas”* shaklidagi konstruksiya orqali minimal chegara belgilanadi. Mazkur norma $\mathbf{X \geq M}$ modeli orqali ifodalanadi. Bu yerda **X** – amaliy soliq bazasi, **M** – qonun bilan belgilangan minimal qiymatdir.

Mazkur qismning mantiqiy tabiati 3-qismdagi qat’iy tenglashtirish hamda 4-qismdagi nizolash mumkin bo‘lgan modeldan farq qiladi. Bu yerda faqat quyi chegara o‘rnatiladi, yuqori chegaraga esa cheklov qo‘yilmaydi.

Qo‘sh inkorli konstruktsiyaning qo‘llanishi ham alohida e’tiborga loyiq. Tabiiy tilda qo‘sh inkor ko‘pincha uslubiy kuchaytirish vositasi sifatida ishlatiladi. Huquqiy diskursda esa u qat’iy chegaralovchi ma’no hosil qiladi. *“Past bo‘lishi mumkin emas”* birikmasi amalda *“teng yoki undan yuqori bo‘lishi shart”* mazmunini anglatadi. Shu orqali norma tavsiya emas, balki majburiy talab sifatida ifodalanadi.

Natijada 248-modda tarkibida uch xil mantiqiy model mavjudligi aniqlandi. Bular:

1) qat’iy tenglashtiruvchi norma;
2) nizolash mumkin bo‘lgan norma;
3) bir tomonlama chegaralovchi norma.

Meta-norma va global kogerentlik (1-qism). 1-qismdagi *“Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa...”* iborasi moddaning barcha qismlarini birlashtiruvchi umumiy meta-norma vazifasini bajaradi. Ushbu konstruksiya modda ichidagi mantiqiy iyerarxiyani belgilab, keyingi qismlarda nazarda tutilgan istisnolarning huquqiy asosini ta’minlaydi.

Ammo meta-norma modda qismlarining o‘zaro mustaqilligini bekor qilmaydi. Aksincha, har bir qism o‘zining alohida mantiqiy doirasini saqlab qoladi. Shu sababli bir qismga tegishli normani boshqasiga avtomatik ravishda tatbiq etish lingvistik va mantiqiy jihatdan asoslanmagan.

Ayrim jihatlari bilan ushbu mexanizm Germaniya va Fransiya huquqiy tizimlaridagi umumiy qoidalar modelini eslatadi. Biroq O‘zbekiston qonunchiligida bunday meta-normalarning lingvistik qamrovi hali yetarli o‘rganilmagan.

Tashqi havolalar tizimi va modulli tartibga solish (239-modda). 248-moddaning 3-qismida 239-moddaga berilgan havolalar normaning qamrovini tashqi manba orqali aniqlashtirish vazifasini bajaradi. Bu havolalar modda ichidagi yopiq roʻyxatni mutlaq emas, balki shartli yopiq tizimga aylantiradi.

Mantiqiy jihatdan bunday model quyidagicha ishlaydi: agar 239-modda istisno nazarda tutmagan boʻlsa, 248-modda oʻz kuchini saqlaydi; aks holda uning ta'siri cheklanadi. Shu tariqa tashqi havola normativ kuchni modulyatsiya qiluvchi vosita sifatida namoyon boʻladi.

Muhimi shundaki, 4-qismda bunday tashqi havolalar uchramaydi. Bu esa uning alohida mantiqiy avtonomiyaga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Terminologik noaniqlik va semantik differensiatsiya muammosi. Leksik-semantik tahlil davomida "bozor qiymati" va "bozor narxi" tushunchalarining ayrim oʻrinlarda sinonim sifatida qoʻllangani aniqlandi. Aslida esa ushbu birliklar iqtisodiy-huquqiy mazmuniga koʻra farqlanadi.

"Bozor narxi" real bitim qiymatini anglatadi, "bozor qiymati" esa mustaqil baholash asosida aniqlanadigan nazariy koʻrsatkichdir. Shu bois terminlarning aralash qoʻllanishi normani turlicha talqin qilish imkonini yaratadi.

Amaliyotda bu ayniqsa 4-qismdagi erkin isbotlash mexanizmida seziladi. Soliq organi mustaqil ekspert baholashiga tayanishi mumkin boʻlsa, soliq toʻlovchi real bozor bitimlarini asos sifatida koʻrsatadi. Natijada nizo iqtisodiy emas, avvalo lingvistik xarakter kasb etadi.

Kengaytirilgan talqin muammosining amaliy jihatlari. Tahlillar huquqni qoʻllash amaliyotida "kengaytirilgan talqin" usuli tez-tez uchrashini koʻrsatdi. Koʻpincha bir modda doirasidagi qismlar yagona mexanizm sifatida qabul qilinadi va natijada mustaqil normativ birliklarning chegaralari buziladi.

Van Dijk va Kintsch nazariyasiga koʻra [9], kogerentlik nafaqat matn qismlarining bogʻlanishi, balki ular oʻrtasidagi ziddiyatsizlik bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan 4-qism 3-qismning davomi emas, balki 1-qismdagi umumiy norma doirasida amal qiluvchi mustaqil huquqiy konstruktsiya sifatida namoyon boʻladi.

248-moddaning lingvo-mantiqiy tahlili rasmiy matnlarda yashirin holda mavjud boʻladigan sintaktik iyerarxiya hamda huquqni qoʻllash jarayonida yuzaga keladigan talqin bilan bogʻliq muammolarni aniqlash imkonini berdi. Modda qismlarining mantiqiy tuzilishi oʻzaro qiyosiy tahlil qilinganda bir necha muhim holatlar kuzatildi.

1.Sintaktik qamrovning buzilishi huquqiy talqinda jiddiy xatolarga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. *"Quyidagi hollarda"* kabi birliklar yopiq normativ roʻyxatni shakllantiradi va ularning qamrovini sun'iy kengaytirish mantiqiy kolliziyani yuzaga keltiradi.

2. Anaforik mustaqillik tamoyili tasdiqlandi. Matnda maxsus havola birliklari mavjud boʻlmagan hollarda qismlar mustaqil normativ hudud sifatida talqin qilinishi lozim.

3. Bitta modda tarkibida turli mantiqiy modellar parallel ravishda mavjud boʻlishi mumkinligi koʻrsatildi. Shu sababli har bir qismning mantiqiy tabiati ekspertiza jarayonida alohida aniqlanishi zarur.

4. Xalqaro qiyosiy tahlil Germaniya va ingliz-amerika huquqiy tizimlarida normativ roʻyxatlar qat'iy talqin qilinishini koʻrsatdi. Oʻzbekiston qonunchiligida esa bunday mezonlar hali yetarlicha tizimlashtirilmagan.

5. Formal mantiq apparati huquqiy matnlardagi yashirin ziddiyatlarni aniqlashda samarali vosita ekani tasdiqlandi. Ayniqsa, turli mantiqiy operatorlarning bitta modda doirasida parallel qoʻllanishi normativ pluralizmni yuzaga keltirishi kuzatildi.

6. Moddalararo havolalar normaning ta'sir doirasini boshqaruvchi faol semiotik vosita sifatida namoyon boʻlishi koʻrsatildi.

7. 248-moddadagi asosiy lingvo-mantiqiy muammolar:

- yashirin mantiqiy arxitektura;
- anaforik bogʻlanishlarning yetarlicha ifodalanmagani;
- terminologik nomuvofiqlik bilan bogʻliqligi aniqlandi.

8. Lingvo-mantiqiy ekspertiza yuridik ta'lim tizimi uchun ham muhim ekani asoslandi. Huquqiy matnlarni nafaqat mazmuniy, balki mantiqiy va lingvistik jihatdan tahlil qilish koʻnikmasini shakllantirish zarurligi koʻrsatildi.

Xulosa. Tahlil natijalari lingvo-mantiqiy yondashuv normativ matnlarni izohlashda foydali ekanini koʻrsatdi. Grammatik jihatdan toʻgʻri qurilgan matn ham yashirin mantiqiy ziddiyatlarni oʻz ichiga olishi mumkinligi aniqlandi.

Leksik-semantik segmentatsiya, formal mantiq tahlili, kontrafaktik modellashtirish va diskursiv yondashuvning kompleks qoʻllanishi normativ matnlarning ichki mantiqiy tizimini chuqurroq ochib berishga imkon yaratdi.

Tadqiqot huquqiy nizolarning muhim qismi iqtisodiy emas, balki lingvo-mantiqiy tushunmovchiliklar bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Shu bois normativ hujjatlarni qabul qilishdan oldin ularni lingvo-mantiqiy ekspertizadan o‘tkazish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusida bu yo‘nalishda kompyuter lingvistikasi imkoniyatlaridan foydalanish uchun muhim bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, normativ matnlardagi mantiqiy kolliziyalarni avtomatik aniqlash masalasi istiqbolli ko‘rinadi. Bunday yondashuv qonunchilik sifati va huquqiy talqin aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1962. – 166 p.

2. Bhatia V.K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. – London: Longman, 1993. – 246 p.

3. Арутюнова Н.Д. Логический анализ языка: Противоречивость и аномальность текста. – М.: Наука, 1990. – 280 с.

4. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. – М.: Флинта; Наука, 2007. – 592 с.

5. Галяшина Е.И. Основы судебного речеведения. – М.: Стет, 2003. – 236 с.

6. Crystal D., Davy D. Investigating English Style. – London: Longman, 1969. – 264 p.

7. Grice H.P. Logic and Conversation // Cole P., Morgan J. (eds.) Syntax and Semantics. Vol. 3. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.

8. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. – Тошкент: Фан, 2001. – 188 б.

9. Kintsch W., van Dijk T.A. Strategies of Discourse Comprehension. – New York: Academic Press, 1983. – 418 p.

10. Mellinkoff D. The Language of the Law. – Boston: Little, Brown and Company, 1963. – 526 p.

11. Маҳмудов Н. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси: Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – 280 б.

12. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz.

13. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 282 б.

14. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

15. Tiersma P. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 2000. – 314 p.

16. Toulmin S.E. The Uses of Argument. – Cambridge: Cambridge University Press, 1958. – 264 p.

17. Van Eemeren F.H., Grootendorst R. Speech Acts in Argumentative Discussions. – Dordrecht: Foris, 1984. – 215 p.

18. Van Dijk T.A. Text and Context: Explorations in the Semantics and Pragmatics of Discourse. – London: Longman, 1977. – 261 p.

19. Холманова З.Т. Юридик терминларнинг лексик-семантик хусусиятлари ва таржима муаммолари. – Тошкент: ТДЮ нашриёти, 2007. – 164 б.

20. Мусулмонова К. Лингвистик экспертизанинг таркибий қисмлари тавсифи // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – № 1. – Б. 122–129.

21. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили: антропоцентрик талқин. – Тошкент: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – 320 б.

UO‘K 82

JONDOR TUMANI OYKONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Narzilloyeva Manzura Shuxrat qizi,
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tili va jurnalistika kafedrasi 2-bosqich tayanch doktoranti
Manzura1993n@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buxoro vohasining eng qadimiy va ko‘p qatlamli toponimik tizimiga ega bo‘lgan hududlaridan biri – Jondor tumani oykonimlari (aholi punktlari nomlari) leksik-semantik jihatdan tizimli tadqiq etilgan. Ishning dolzarbligi voha joy nomlarini zamonaviy onomastika tamoyillari asosida lisoniy tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot davomida hududdagi faol qishloq va mahalla nomlari to‘planib, ularning etimologik ildizlari, shakllanish omillari va ma’no xususiyatlari batafsil o‘rganilgan. To‘plangan materiallar lingvistik tasnifga ko‘ra antropooykonimlar, etnooykonimlar hamda qadimgi so‘g‘diycha va kasb-hunarga oid tarixiy-substrat qatlamlarga ajratib tahlil qilingan. Tuman oykonimiyasini o‘rganish o‘zbek tili leksikasi, xalq etnogenezi va voha dialektologiyasi tarixini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *toponimika, oykonim, Jondor, semantik tahlil, antropooykonim, etnooykonim, formant, Buxoro vohasi, substrat, Romish, Tobagar, Torob, Aspobsoz, Mang`it.*

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОЙКОНИМОВ ЖОНДОРСКОГО РАЙОНА

Аннотация. *В данной статье лексико-семантическому анализу подвергнуты ойконимы (названия населённых пунктов) Жондорского района – одного из древнейших регионов Бухарского оазиса с многослойной топонимической системой. Актуальность работы обусловлена необходимостью лингвистического исследования местных географических названий на основе принципов современной ономастики. В ходе исследования собраны названия селений и махаллей района, подробно изучены их этимологические корни, факторы формирования и семантические особенности. Собранный материал разделён согласно лингвистической классификации на антропоойконимы, этноойконимы, а также историко-субстратные пласты, связанные с согдийским языком и ремёслами. Изучение ойконимии района служит важным источником для освещения истории лексики узбекского языка, этногенеза народа и диалектологии истории.*

Ключевые слова: *топонимика, ойконим, Жондор, семантический анализ, антропоойконим, этноойконим, формант, Бухарский оазис, субстрат, Ромиш, Тобагар, Тороб, Аспобсоз, Мангыт.*

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF OYKONYMS IN JONDOR DISTRICT

Abstract. *This article examines the oikonyms (settlement names) of the Jondor district, one of the ancient regions of the Bukhara oasis possessing a multi-layered toponymic system, from a lexical-semantic perspective. The relevance of the study is determined by the need for a linguistic analysis of local place names based on modern onomastic principles. During the research, active village and mahalla names were collected, and their etymological roots, formation factors, and semantic characteristics were studied in detail. According to linguistic classification, the collected materials are divided into anthropooikonyms, ethnooikonyms, and historical-substrate layers related to the Sogdian language and traditional crafts. Studying the district's oikonymy serves as an essential source for*

Keywords: *toponymy, oikonym, Jondor, semantic analysis, anthropooikonym, ethnooikonym, formant, Bukhara oasis, substrate, Romish, Tobagar, Torob, Aspobsoz, Mangit.*

Kirish. Tilshunoslikning eng dinamik rivojlanayotgan va fanlararo aloqadorlikka ega bo‘lgan sohalaridan biri onomastika, xususan, uning muhim tarmog‘i hisoblangan toponimikadir. Joy nomlari (toponimlar), ayniqsa, muayyan hududdagi aholi punktlarining nomlanishini ifodalovchi oykonimlar shunchaki geografik obyektlarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan lisoniy belgilar emas. Ular o‘zida o‘sha hududda istiqomat qilgan xalqlarning ko‘p asrlik tarixiy o‘tmishini, etnogenezi va migratsion jarayonlarini, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini, xalqchil dunyoqarashi hamda milliy-madaniy tafakkur tarzini muhrlagan jonli tarixiy-lingvistik manbalardir. Shu bois, muayyan mintaqa toponimik tizimini leksik-

semantik jihatdan tadqiq etish o‘zbek tili lug‘at tarkibining tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini va dialektal xususiyatlarini ochib berishda favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi va boy madaniyat beshigi bo‘lgan Buxoro vohasining eng ko‘hna go‘shalaridan biri – Jondor tumani o‘zining rang-barang, ko‘p qatlamli va o‘ziga xos toponimik manzarasi bilan ajralib turadi. Tuman nomining o‘zi ham (“Jondor” – jonli joy, jon saqlanadigan mustahkam qal’a yoki tarixiy harbiy-ma’muriy unvonlar bilan bog‘liq holda) voha tarixining turli murakkab sahifalaridan so‘zlaydi. Mazkur hudud toponimiyasida qadimgi sug‘diy va eski eroniy tillar qatlami bilan bir qatorda, turkiy urug‘ va qabilalarning etnografik nomlari, shuningdek, xalqning azaliy kasb-hunar va kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi leksik birliklar o‘zaro uzviy sintezlashgan. Biroq, Jondor tumani oykonimlarining yaxlit mikrotizimi shu paytga qadar zamonaviy tilshunoslikning onomastik tamoyillari asosida, tizimli-struktur yo‘nalishda va maxsus monografik tarzda chuqur lingvistik tajribadan o‘tkazilmagan. Bu esa ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini yaqqol belgilab beradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – Jondor tumani hududidagi faol aholi punktlari nomlarini (oykonimlarni) to‘plash, ularning shakllanish omillari va lisoniy tabiatini o‘rganish hamda ularni atroflicha leksik-semantik jihatdan tasniflab, hududning tarixiy-lingvistik xaritasini tiklashdan iborat. Qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida quyidagi tizimli vazifalarni bajarish ko‘zda tutilgan: hududdagi antropooykonimlar va etnooykonimlarning semantik xususiyatlarini ochib berish; qadimgi voha madaniyatiga daxldor substrat (so‘g‘diy/tojikcha) qatlamlarni ajratish; xalqning an’anaviy mashg‘ulotlarini ko‘rsatuvchi kasb-hunarga oid nomlarni lingvistik tahlil qilish hamda ularning so‘z yasalish modellarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Jondor tumanidagi mahalla, qishloq va ovul nomlari majmui tanlangan bo‘lsa, uning predmetini mazkur toponimik birliklarning leksik-semantik tabiati, etimologik ildizlari va struktur-funksional xususiyatlari tashkil etadi. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda ilk bor Jondor tumani oykonimiyasi antropotsentrik va lingvokultorologik tamoyillar asosida yaxlit tizim sifatida tadqiq etilib, ayrim bahsli va kam o‘rganilgan joy nomlarining etimologiyasiga oydinlik kiritildi. Ushbu maqola materiallaridan oliy ta’lim muassasalarining filologiya fakultetlarida onomastika, leksikologiya, dialektologiya va til tarixi kurslarini o‘qitishda, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda hamda mintaqaviy toponimik va izohli lug‘atlarni boyitishda amaliy manba sifatida keng foydalanish mumkin.

Metodik tahlil va adabiyotlar sharhi. Joy nomlari, xususan, qishloq va mahalla nomlari bo‘lmish oykonimlarni tadqiq etish tilshunoslikning doimiy diqqat markazidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Jahon onomastikasida toponimlarning leksik-semantik va struktur xususiyatlarini tizimli o‘rganish yuzasidan V. A. Nikonov, A. V. Superanskaya va E. M. Murzaev kabi olimlarning fundamental ishlari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek toponimika maktabining shakllanishi va rivojlanishida esa professorlar H. Hasanov, T. Nafasov, S. Qorayev, E. Begmatov va T. Enazarov kabi atoqli tilshunoslarning xizmatlari beqiyosdir. Xususan, T. Nafasovning voha joy nomlariga bag‘ishlangan tadqiqotlari va “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” hududiy toponimlarni leksik-semantik jihatdan guruhlashning mukammal usullarini ko‘rsatib berdi. Buxoro vohasi, chunonchi, Jondor tumani toponimiyasi ayrim tarixiy-geografik manbalarda (masalan, S. Qorayev, S. Muxtorov asarlarida) qisman qayd etilgan bo‘lsa-da, hudud oykonimlarining yaxlit leksik-semantik tizimi zamonaviy onomastika tamoyillari asosida maxsus, monografik planda va tizimli ravishda tadqiq etilmagan.

Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida, tadqiqot jarayonida Jondor tumanidagi 100 dan ortiq faol aholi punktlari nomlari saralab olindi va ularni tahlil qilishda o‘zaro aloqador bir qancha ilmiy-metodologik usullardan foydalanildi. Birinchidan, tizimli-struktur tahlil usuli orqali hudud oykonimlari alohida birlik emas, balki Buxoro voha toponimik tizimining tarkibiy qismi sifatida o‘rganildi. Ikkinchidan, leksik-semantik tasniflash metodi vositasida to‘plangan materiallar lisoniy ma’no xususiyatlariga ko‘ra (antropooykonimlar, etnooykonimlar va h.k.) guruhlandi. Uchinchidan, etimologik va stratigrafik tahlil usullari yordamida ayrim qadimiy va substrat (so‘g‘diy, tojikcha yoki qadimgi turkiy) oykonimlarning kelib chiqishi hamda fonetik-semantik o‘zgarishlari aniqlandi. To‘rtinchidan, hudud toponimiyasida qaysi semantik guruhlar yetakchi ekanligini ko‘rsatish uchun statistik metod qo‘llanildi. Tadqiqotning manbaviy bazasini tuman hokimligi va mahalla fuqarolar yig‘inlarining rasmiy hujjatlari, geografik xaritalar hamda joylarda aholi orasida o‘tkazilgan fildveklari (dala toponimik tadqiqotlari) natijasida to‘plangan jonli materiallar tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Jondor tumani oykonimlari o‘zining ichki ma’no xususiyatlariga ko‘ra rang-barang tizimni tashkil etadi. Ularni quyidagi asosiy leksik-semantik guruhlarga ajratib tahlil qilamiz:

Antropooykonimlar (Kishi nomlari asosida shakllangan oykonimlar)

Qishloq asoschilari, tarixiy shaxslar, urug‘ boshliqlari yoki diniy rahnamolar (xo‘jalar, eshonlar) nomi bilan bog‘liq joy nomlari tumanda keng tarqalgan:

• **Mahmud Xo‘ja** – diniy va ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan shaxs nomidan kelib chiqqan joy nomi.
• **Aliobod** – *Ali* (kishi nomi) + – *obod* (forscha-tojikcha formant: obod qilingan joy).
• **Mirzaobod** – *Mirza* (unvon/ism) asosida shakllangan aholi punkti.
• **Yuqori Luqmon va Quyi Luqmon** - Quyi Luqmon eski qishloq bo‘lib Luqmoni hakim tabib o‘tganlar, tabib dunyodan o‘tganlaridan so‘ng qishloq shu kishining nomlariga qo‘yilgan. Qishloq aholisi ko‘payganidan so‘ng qishloq ikkiga bo‘lingan Yuqori Luqmon va Quyi Luqmonga ajralgan.
• **Aminobod** – Amin(kishi nomi) + -obod (forscha-tojikcha formant: obod qilingan joy). Amin qishloq oqsoqoli bo‘lib, shu lavozimdagi shaxs tomonidan bunyod etilganligini anglatadi

Etnooykonimlar (Etnik guruh, urug‘ va qabila nomlari)

Jondor hududi tarixan turli turkiy qabila va urug‘lar tutashgan makon bo‘lganligi sababli, etnonimik qatlam juda kuchli:

• **Nayman** va **Qipchoq** – yirik turkiy urug‘lardan birining nomi.
• **Qang‘li** – qadimgi turkiy qabila nomi bo‘lib, shu urug‘ vakillari yashagan hududni anglatadi.
• **Arablar** – Arab qabilasiga mansub qabilalar shu qishloqda joylashganligi sababli shunday nomlangan.
• **Mang‘it** – Mang‘it urug‘iga mansub kishilar yashagan joy. Mang‘itiylar sulolasi bo‘lgan Amudaryo yoqasida xalq yashagan bo‘lib, chorvachilik bilan shug‘ullangan. 320 – yillarda Mang‘itiylar Buxoroda Xorazm, Amudaryo chegarasida hukmdorlik qilgan. Mang‘itiylar yashagan shu bilan Mang‘it deb atalgan. O‘zbek millati tarkibiga kirgan qabila hisoblanadi.
• **Urganjiyon** – urug‘ nomi. Amirlar davrida Urganjilar har qayerda tarqoq bo‘lib yashagan keyinchalik bir-birini topib bitta qishloq bo‘lib birlashib Urganjiyon oykonimini tashkil qilganlar.

Tarixiy qatlamga oid oykonimlar

Jondor tumani hududida sug‘diy va qadimgi eroniy tillarga borib taqaladigan, voha toponimiyasining eng qadimgi qatlamini tashkil etuvchi oykonimlar mavjud:

• **Romish** – ushbu oykonim qadimgi sug‘diycha qatlamga mansub bo‘lib, tarixiy manbalarda “oromgoh”, “tinchlik, osoyishtolik makoni” yoki “xushnudlik joyi” degan semantik ma'noni anglatadi. Bu joyning qadimiyligi voha madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir.
• **Loja** – mahalliy lahja va tarixiy fonetik o‘zgarishlar natijasida shakllangan oykonim. U o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra joyning geografik joylashuvi, mudofaa tizimi yoki qadimgi sug‘diycha “lojuvard”, “loyqa (suvli) joy” yoki ma’lum bir istehkom ma'nolari bilan aloqadorlikni ko‘rsatadi.

4. Fizik-geografik va xo‘jalik-turmush belgili oykonimlar

Bu guruhga hududning relyefi, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda aholining kundalik turmushi bilan bog‘liq nomlar kiradi:

• **Samonchuq** – etimologik jihatdan xo‘jalik faoliyati, xususan, chorvachilik va dehqonchilik mahsuloti bo‘lgan "samon" (somon saqlanadigan joy, somonli yer) tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, hududning iqtisodiy-xo‘jalik xarakterini ochib beradi.
• **Qumsulton** – hududning qumli geografik landshaftga yaqinligi va suv/yer xususiyati bilan bog‘liq.
• **Oqtepa** – qadimgi arxeologik va geografik tepalik (balandlik) asosida yuzaga kelgan.

Kasb-hunar va ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi oykonimlar

Aholining tarixiy mashg‘uloti va kasb-hunarini aks ettiruvchi nomlar:

• **Zargaron** — tojikcha *zargar* (zargarli bilan shug‘ullanuvchi) so‘ziga ko‘plik ko‘rsatkichi *-on* qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (“Zargarlar qishlog‘I”).
• **Temirchi** – temirchilik hunari rivojlangan mahalla/qishloq.

Oykonimlarning tarkibiy-struktural xususiyatlari

Tilshunoslik nuqtai nazaridan Jondor tumani oykonimlari quyidagi tuzilishga ega:

1. **Sodda oykonimlar:** *Jondor*, *Nayman*, *Loja* (birgina asosdan iborat).
2. **Qo‘shma oykonimlar:** *Qumsulton*, *Oqtepa*, *Romish* (tarixiy kompozitlar).
3. **Affiksal oykonimlar:** tarkibida *-obod*, *-on*, *-lik* kabi topoformantlar qatnashgan nomlar (masalan, *Mirzaobod*, *Zargaron*).

Xulosa. Jondor tumani oykonimlarining leksik-semantik jihatdan tadqiq etilishi natijasida mazkur hudud joy nomlari tizimi o‘zining ko‘p qatlamliligi, tarixiy-etnografik asoslarga boyligi va lingvistik rang-barangligi bilan ajralib turishi aniqlandi. Olingan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tuman toponimik manzarasining shakllanishida inson omili, ya’ni antropotsentrik tamoyil hamda qabilaviy tarkib (etnonimik omil) yetakchi o‘rin tutadi. Statistik ko‘rsatkichlarga ko‘ra, tuman toponimlarining asosiy qismini muayyan shaxslar, el-yurt orasida nufuzga ega bo‘lgan tarixiy shaxslar va diniy rahnamolar nomi bilan bog‘liq antropooykonimlar hamda o‘zbek xalqining etnogenezini tashkil etuvchi yirik turkiy urug‘-qabilalar nomini

muhrlagan etnooykonimlar tashkil etadi. Bu birliklar nafaqat lingvistik, balki hududning demografik va ijtimoiy tarixini tiklashda birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hudud toponimiya tizimida qadimgi voha madaniyatining eng ko‘hna qatlamlariga daxldor bo‘lgan sug‘diycha va eski eroniy substrat nomlarning (Romish, Torob va b.) saqlanib qolganligi Jondor zaminining qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lganligini lisoniy jihatdan isbotlaydi. Aholining azaliy kasb-hunar va an’anaviy mashg‘ulotlarini ifodalovchi (Tobagar, Aspobsoz va b.) joy nomlari esa voha ijtimoiy-iqtisodiy hayotining lingvistik aksidir. Xulosa qilib aytganda, Jondor tumani oykonimlarini tizimli ravishda o‘rganish o‘zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini belgilash, voha shevalari va toponimiyasining uzviy aloqadorligini yoritish hamda milliy onomastika bazasini boyitishda muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1977.*
2. *Hasanov H. Geografiya terminlari lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1964.*
3. *Madrahimov O. O‘zbekiston toponimiyasi (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent: Navro‘z, 2017.*
4. *Muxtorov S. Jondor tumani tarixi. – Buxoro: Buxoro, 2002.*
5. *Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988.*
6. *Никонов В. А. Краткий топонимический словарь. – Москва: Мысль, 1966.*
7. *Nizomov A., Rahimova G., Rasulova N. Toponimika. – Toshkent: Sharq, 2012.*
8. *Qorayev S. Geografik nomlar ma’no-mohiyati. –Toshkent: O‘zbekiston, 1970.*
9. *Qorayev S. Toponimika (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.*
10. *Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. — Москва: Наука, 1973.*

UO‘K 81

AQLIY INTELLEKTUAL SIFATLAR SHAKLLANISHIDA PSIXOLINGVISTIK OMILLARNING MAZMUN-MOHIYATI

Nazirova Ulg‘uza Nasriddinovna,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Inson intellektining shakllanishi faqat biologik jarayon emas, balki ijtimoiy-lisoniy hodisadir. Mazkur maqolada tilning tafakkur quroli sifatidagi roli, nutqiy faoliyatning kognitiv jarayonlarga ta’siri va psixolingvistik omillarning shaxs intellektual salohiyatini belgilashdagi o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, intellekt, tafakkur, ichki nutq, kognitiv rivojlanish, leksika, metalingvistika.*

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *Формирование человеческого интеллекта является не только биологическим процессом, но и социально-языковым явлением. В данной статье раскрывается роль языка как инструмента мышления, влияние речевой деятельности на когнитивные процессы, а также значение психолингвистических факторов в определении интеллектуального потенциала личности.*

Ключевые слова: *психолингвистика, интеллект, мышление, внутренняя речь, когнитивное развитие, лексика, металингвистика.*

THE NATURE AND ESSENCE OF PSYCHOLINGUISTIC FACTORS IN THE FORMATION OF INTELLECTUAL QUALITIES

Abstract. *The formation of human intelligence is not merely a biological process but also a socio-linguistic phenomenon. This article examines the role of language as a tool of thought, the impact of speech activity on cognitive processes, and the significance of psycholinguistic factors in shaping an individual's intellectual potential.*

Keywords: *psycholinguistics, intelligence, thinking, inner speech, cognitive development, vocabulary, metalinguistics.*

Kirish. Zamonaviy psixolingvistika fanining diqqat markazida “**til – tafakkur – shaxs”** uchligi turadi. Aqliy-intellektual sifatlar deganda biz faqatgina axborotni eslab qolishni emas, balki mantiqiy xulosa chiqarish, tahlil qilish va muammolarni ijodiy hal etish qobiliyatini tushunamiz. Bu jarayonlarning barchasi bevosita til materialiga tayanadi. Inson intellekti faqatgina tug‘ma qobiliyatlar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy muhit va til bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan dinamik jarayondir. Psixolingvistika fani tilning inson ongida qanday paydo bo‘lishi va nutqiy faoliyatning aqliy rivojlanishga ta’sirini o‘rganadi [1,112]. Aqliy-intellektual sifatlar shakllanishida nutq nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkurning asosiy quroli bo‘lib xizmat qiladi.

Til va tafakkur: Psixolingvistik uzviylik. Til va tafakkur inson ongining eng muhim ikki jihati bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Ushbu masala psixolingvistika doirasida keng tadqiq etiladi. Psixolingvistika tilning inson tafakkuridagi o‘rni, nutq jarayonlari va ong faoliyati bilan bog‘liqligini ilmiy asosda tushuntirib beradi.

Til va tafakkurning mohiyati. Til – bu insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lib, u fikrni ifodalash, saqlash va uzatish imkonini beradi. Tafakkur esa borliqni anglash, umumlashtirish va xulosa chiqarish jarayonidir. Tafakkur tilsiz mavjud bo‘lishi mumkinmi yoki til tafakkurni shakllantiradimi – bu savol ilm-fanda doimo muhim bahs mavzusi bo‘lib kelgan [2, 33]. Ko‘pchilik olimlar til va tafakkur o‘zaro bog‘liq, ammo mustaqil hodisalar ekanligini ta’kidlaydi. Tafakkur til orqali ifodalanadi, til esa tafakkur mahsuli sifatida shakllanadi.

Psixolingvistik nuqtayi nazar

Psixolingvistika til va tafakkur o‘rtasidagi quyidagi jihatlarni o‘rganadi:

- Nutq hosil qilish jarayoni (fikrdan so‘zga o‘tish)
- Nutqni idrok etish (eshitilgan yoki o‘qilgan matnni tushunish)
- Til birliklarining ongda saqlanishi
- Til va xotira o‘rtasidagi bog‘liqlik

Masalan, inson biror fikrni aytishdan oldin uni ongida rejalashtiradi, so‘ngra til vositalari orqali ifodalaydi. Bu jarayon tafakkur va tilning uzviy bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi.

Til tafakkurni shakllantiradimi?

Ba’zi nazariyalarga ko‘ra, til insonning dunyoni qanday qabul qilishiga ta’sir qiladi. Bu qarash Lingvistik nisbiylik nazariyasi nomi bilan mashhur. Unga ko‘ra, har bir til o‘z egalarining fikrlash tarzini ma’lum darajada belgilaydi.

Masalan, turli tillarda ranglar, vaqt yoki makon tushunchalarining ifodalanishi farq qiladi. Bu esa insonlarning ushbu tushunchalarni idrok etishida ham tafovutlar bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Tafakkur tilsiz mavjud bo‘lishi mumkinmi?

Ba’zi olimlar tafakkur tilga to‘liq bog‘liq emasligini ta’kidlaydi. Masalan, bolalar hali gapira olmasdan turib ham fikrlay boshlaydi [3, 76]. Shuningdek, hayvonlarda ham oddiy tafakkur shakllari mavjud, ammo ular to‘liq til tizimiga ega emas. Bu holat tafakkurning tilga nisbatan kengroq tushuncha ekanligini ko‘rsatadi. Biroq murakkab, abstrakt fikrlar asosan til orqali shakllanadi va ifodalanadi.

Til va tafakkurning o‘zaro ta’siri

Til va tafakkur o‘rtasidagi uzviylik quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. **Fikrni ifodalash** – tafakkur mahsuli til orqali namoyon bo‘ladi.
2. **Bilimni shakllantirish** – til yordamida inson yangi tushunchalarni o‘zlashtiradi.
3. **Xotira va ong faoliyati** – til birliklari xotirada saqlanadi va tafakkur jarayonida qo‘llaniladi.
4. **Muloqot** – til tafakkur mahsulini boshqalarga yetkazish vositasidir.

Psixolingvistikaning asosiy qoidasiga ko‘ra, til nafaqat fikrni bayon qilish vositasi, balki **fikrni shakllantirish muhitidir**.

- **Kognitiv funksiya:** Til yordamida inson borliqni turkumlarga ajratadi (kategorizatsiya). Masalan, “daraxt” so‘zini bilish orqali bola minglab o‘simliklarni bitta intellektual guruhga birlashtirishni o‘rganadi.
- **Ichki nutq va mantiq:** Lev Vigotskiy ta’kidlaganidek, ichki nutq – bu “o‘zi uchun so‘zlash” jarayoni bo‘lib, u murakkab intellektual masalalarni yechishda asosiy mexanizm hisoblanadi [4,124].
- Til va tafakkur bir-biridan ajralmas hodisalardir. Tafakkur til orqali ifodalanadi, til esa tafakkur yordamida rivojlanadi. Ularning o‘zaro ta’siri insonning bilish jarayonlari, muloqoti va madaniy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Psixolingvistika ushbu murakkab munosabatni o‘rganib, inson ongining til bilan bog‘liq jihatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

3. Intellektual sifatlarga ta’sir etuvchi asosiy omillar

Psixolingvistik omillar shaxsning aqliy o‘sishida quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Omillar	Intellektual sifatga ta’siri
Leksik boylik	So‘z zahirasining kengligi tushunchalarni aniqroq tahlil qilish va tizimli fikrlashni ta’minlaydi.
Sintaktik murakkablik	Murakkab gap tuzish qobiliyati voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglashga yordam beradi.
Metalingvistik qobiliyat	Tilga obyekt sifatida qarash (til qoidalarini anglash) mavhum fikrlash darajasini oshiradi.

4. Nutqiy faoliyat – intellekt trigeri sifatida

Nutqiy faoliyat (so‘zlash, tinglash, o‘qish, yozish) miyaning neyron bog‘lanishlarini faollashtiradi:

1. **O‘qish:** Matnni tahlil qilish orqali deduktiv va induktiv xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojlanadi.
2. **Yozuv:** Fikrlarni qog‘ozga tushirish ularni strukturalashga va tartibga solishga majbur qiladi, bu esa intellektning tizimlilik sifatini shakllantiradi.

Psixolingvistikada inson omili markaziy o‘rinni egallaydi. So‘zlovchi shaxsning shaxsiyat turi, uning kreativ qobiliyatlari va nutqiy tuzilmalarni tanlash mahorati uning intellektual darajasidan dalolat beradi.

- **Yosh omili:** Bolalikda til o‘zlashtirish jarayoni neyron aloqalarini mustahkamlaydi va kognitiv (bilish) qobiliyatlarni shakllantiradi.
- **Individuallik:** Har bir shaxsning o‘ziga xos so‘z boyligi va grammatik qurilmalardan foydalanish uslubi uning mantiqiy fikrlash tezligini belgilaydi.

3. Eksperimental va patologik omillarning ahamiyati

Aqliy sifatlarni o‘rganishda eksperimental usullar (testlar, sun’iy vaziyatlar) shaxsning muammoli vaziyatlarda tilni qanchalik samarali qo‘llay olishini ko‘rsatadi [1,154]. Shu bilan birga, “salbiy nutq materiali” (xatolar, buzilishlar) ustida ishlash insonning o‘z xatolarini tuzatish, tahlil qilish va intellektual moslashuvchanligini oshirishga yordam beradi.

4. Til va tafakkur dialektikasi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan, til boyligi bevosita fikrlash doirasining kengligini belgilaydi. Akademik terminologiyadan foydalanish, murakkab sintaktik konstruksiyalarni qurish va tushunchalarni aniq ifodalash – bularning barchasi yuqori intellektual sifatlarning mahsulidir. Til o‘rganish va nutq ustida ishlash miyaning kognitiv zaxirasini oshiradi, bu esa qarish jarayonida aqliy faollikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Insonning aqliy-intellektual sifatlari shakllanishi – bu biologik meros, ijtimoiy muhit va shaxsiy faoliyatning o‘zaro murakkab ta’siri natijasidir. Psixolingvistika va kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan, bu jarayon bir necha asosiy bosqich va omillarga bo‘linadi.

Quyida intellektning shakllanish mexanizmlari haqida batafsil ma’lumot keltirilgan:

1. Intellektning Biologik va Ijtimoiy Asoslari

Aqliy sifatlar ikki asosiy manba hisobiga shakllanadi:

• **Genetik omil:** Miyaning neyrofiziologik tuzilishi, axborotni qayta ishlash tezligi va xotira hajmi ko‘p hollarda irsiy xususiyatlarga bog‘liq.

• **Ekzogen (tashqi) omil:** Bolalikdagi intellektual muhit, ota-ona bilan muloqot va ta’lim sifati. Til – intellektning asosiy “dasturiy ta’minoti” hisoblanadi.

1-rasm. Intellektual sifatlarning shakllanish bosqichlari

Jan Piaje nazariyasiga ko‘ra, aqliy rivojlanish quyidagi davrlarni bosib o‘tadi [3,145]:

1. Sensor-motor davri (0-2 yosh): Bola dunyoni harakatlar va sezgilar orqali anglaydi.
2. Operatsiyagacha bo‘lgan davr (2-7 yosh): Ramziy fikrlash va til shakllanadi, lekin mantiq hali cheklangan bo‘ladi.
3. Aniq operatsiyalar davri (7-11 yosh): Mantiqiy fikrlash rivojlanadi, bola narsa va hodisalarni guruhlashni o‘rganadi.
4. Formal operatsiyalar davri (12 yoshdan keyin): Mavhum fikrlash, gipotetik xulosalar chiqarish va yuqori darajadagi tahlil qobiliyati shakllanadi.

3. Psixolingvistik Omillarning Ta’siri

Til intellektni shakllantiruvchi eng kuchli vositadir. Inson qanchalik ko‘p so‘z bilsa va ularning ma'no qirralarini tushunsa, uning fikrlash doirasi shunchalik keng bo‘ladi.

• Ichki nutq: Inson o‘z fikrlarini tartibga solishda foydalanadigan “ichki ovoz” mantiqiy xulosalar yasash markazidir.

• Ustanovka (Moyillik): D.N. Uznadze aytganidek, insonning biror vazifani yechishga bo‘lgan ruhiy tayyorgarligi intellektual natijani belgilaydi [5, 89]. Agar insonda “bilishga bo‘lgan ehtiyoj” (kognitiv ustanovka) kuchli bo‘lsa, sifatlar tezroq shakllanadi.

4. Aqliy-Intellektual Sifatlarning Tarkibiy Qismlari

Intellekt faqatgina “ko‘p bilish” emas, u quyidagi sifatlar yig‘indisidir:

• Idrokning kengligi: Voqea-hodisalarni har tomonlama ko‘ra olish.
• Mantiqiy izchillik: Sabab va oqibat bog‘liqligini to‘g‘ri o‘rnatish.
• Tanqidiy fikrlash: Ma’lumotni shubha ostiga olish va tekshirish.
• Kreativlik (Ijodkorlik): Standart bo‘lmagan vaziyatlarda yangi yechimlar topish.
• Moslashuvchanlik: O‘zgaruvchan sharoitda fikrlash strategiyasini tezda o‘zgartirish.

Intellektni rivojlantirish uchun tavsiyalar

Aqliy sifatlar faqat yoshlikda emas, balki butun umr davomida (neyroplastiklik hisobiga) rivojlanishi mumkin:

1. Muntazam mutolaa: Murakkab badiiy va ilmiy adabiyotlar tahlili miyani yangi neyron aloqalari qurishga majbur qiladi.

2. Yangi tillarni o‘rganish: Bu jarayon miya strukturasini o‘zgartiradi va ishchi xotirani kuchaytiradi.

3. Mantiqiy o‘yinlar va masalalar: Shaxmat, matematik masalalar yoki strategik o‘yinlar mantiqni charxlaydi.

4. Ekspressiv muloqot: O‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga urinish (notiqlik san’ati) aqliy intizomni shakllantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, aqliy-intellektual sifatlar shakllanishida psixolingvistik omillar poydevor vazifasini o‘taydi. Tilni chuqur egallash, nutqiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va ongli ravishda so‘z tanlash shaxsning nafaqat muloqot madaniyatini, balki uning umumiy intellektual salohiyatini ham yangi bosqichga ko‘taradi. Psixolingvistik yondashuv ta’lim tizimida ham muhim o‘rin tutishi lozim, chunki u o‘quvchining shaxsiyati va uning ichki “ustanovka”larini hisobga olgan holda bilim berishni ko‘zda tutadi. Inson qancha ko‘p til boyligiga ega bo‘lsa va nutqiy jarayonlarda faol ishtirok etsa, uning kognitiv moslashuvchanligi va tahliliy salohiyati shuncha yuqori bo‘ladi. Psixolingvistik omillarni to‘g‘ri yo‘naltirish – shaxsning intellektual kamolotini ta’minlovchi eng samarali yo‘ldir.

Aqliy-intellektual sifatlar – bu tug‘ma potensialning to‘g‘ri tanlangan til va ijtimoiy muhit orqali “sayqallangan” ko‘rinishidir. Inson o‘z nutqi va tafakkuri ustida ongli ravishda ishlash orqali intellektini cheksiz darajada yuksaltirishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. *Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 2003. – S. 112-154.*
2. *Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llari... (Kognitiv lingvistika va psixolingvistika). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2012. – S. 33.*
3. *Пиаже Ж. Психология интеллекта. – Санкт-Петербург: Питер, 2003. – S. 76.*
4. *Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – S. 124.*
5. *Узнадзе Д.Н. Психология установки. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – S. 89.*
6. *Sapir, E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace & World. (Lingvistik nisbiylik nazariyasining asosi sifatida).*
7. *Whorf, B. L. (1956). Language, Thought, and Reality. Cambridge: MIT Press. (Til va tafakkur dialektikasi hamda dunyoni idrok etish tizimi uchun).*
8. *Yo‘ldoshev, B. (2018). Psixolingvistika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. (Milliy tadqiqotlar va til-tafakkur munosabatlari uchun).*
9. *Shahobiddinova, Sh. (2019). Til va tafakkur: kognitiv yondashuv. Farg‘ona: Klasika. (Leksik boylik, tushunchalar kategorizatsiyasi va aqliy sifatlar shakllanishi uchun).*
10. *Chomsky, N. (2006). Language and Mind. Cambridge: Cambridge University Press. (Metalingvistik qobiliyat va tilning tug‘ma hamda ijtimoiy xususiyatlari tahlili uchun).*

UDC 8/1751

COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC POTENTIAL OF CONCEPTUAL METAPHORS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK DISCOURSES

Salavatova Liliya Enverovna,
Teacher at the Department of Tourism and Translation
Namangan State Institute of Foreign Languages
salavatovaliliya01@gmail.com

Abstract. *The article examines the communicative and pragmatic potential of conceptual metaphors used to represent artificial intelligence (AI) in English, Russian, and Uzbek linguistic discourses. Drawing upon the theoretical foundations of cognitive linguistics, conceptual metaphor theory, and linguistic pragmatics, the study explores the role of metaphorical models in shaping public understanding of AI technologies. Particular attention is paid to the interpretative, regulatory-pragmatic, evaluative-modeling, and perlocutionary functions of AI conceptual metaphors. The research demonstrates that metaphorical representations of AI serve not only as cognitive mechanisms for understanding technologically complex phenomena but also as pragmatic instruments that influence perception, evaluation, and behavioral responses. A comparative analysis of English, Russian, and Uzbek examples reveals both universal tendencies and language-specific pragmatic features in the conceptualization of artificial intelligence. The findings indicate that conceptual metaphors contribute significantly to the social legitimization, acceptance, or criticism of AI technologies in contemporary discourse.*

Keywords: *artificial intelligence, conceptual metaphor, linguistic pragmatics, cognitive linguistics, discourse analysis, communicative function, pragmatic potential, anthropomorphism, English language, Russian language, Uzbek language.*

КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ МЕТАФОР ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ДИСКУРСАХ

Аннотация. *В статье рассматривается коммуникативно-прагматический потенциал концептуальных метафор, используемых для репрезентации искусственного интеллекта (ИИ) в английском, русском и узбекском языковых дискурсах. Опираясь на теоретические положения когнитивной лингвистики, теории концептуальной метафоры и лингвистической прагматики, исследование анализирует роль метафорических моделей в формировании общественного понимания технологий искусственного интеллекта. Особое внимание уделяется интерпретационной, регулятивно-прагматической, оценочно-моделирующей и перлокутивной функциям концептуальных метафор ИИ. Результаты исследования показывают, что метафорические репрезентации искусственного интеллекта выступают не только когнитивными механизмами осмысления технологически сложных явлений, но и прагматическими инструментами, влияющими на восприятие, оценку и поведенческие реакции адресатов. Сопоставительный анализ английских, русских и узбекских примеров выявляет как универсальные тенденции, так и языково-специфические прагматические особенности концептуализации искусственного интеллекта. Полученные результаты свидетельствуют о том, что концептуальные метафоры вносят существенный вклад в социальную легитимацию, принятие или критику технологий искусственного интеллекта в современном дискурсе.*

Ключевые слова*: искусственный интеллект, концептуальная метафора, лингвистическая прагматика, когнитивная лингвистика, дискурс-анализ, коммуникативная функция, прагматический потенциал, антропоморфизм, английский язык, русский язык, узбекский язык.*

INGLIZ, RUS VA O ‘ZBEK DISKURSLARIDA SUN’IY INTELLEKT KONSEPTUAL METAFORALARINING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK SALOHIYATI

Annotatsiya. *Maqolada ingliz, rus va o‘zbek tilidagi diskurslarda sun’iy intellekt (SI)ni ifodalashda qo‘llaniladigan konseptual metaforalarning kommunikativ-pragmatik salohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot kognitiv lingvistika, konseptual metafora nazariyasi hamda lingvistik pragmatika nazariy asoslariga tayangan holda, metaforik modellarning sun’iy intellekt texnologiyalariga nisbatan jamoatchilik tasavvurini*

shakllantirishdagi o‘rnini o‘rganadi. Tadqiqotda SI konseptual metaforalarining interpretativ, regulyativ-pragmatik, baholovchi-modellashtiruvchi va perlokutiv funksiyalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektning metaforik tasvirlari nafaqat texnologik jihatdan murakkab hodisalarni anglashga xizmat qiluvchi kognitiv mexanizmlar, balki idrok etish, baholash va adresatlarning xulq-atvor reaksiyalariga ta’sir ko‘rsatuvchi pragmatik vositalar sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi misollarning qiyosiy tahlili sun’iy intellektni konseptuallashtirishda ham universal tendensiyalarni, ham tilga xos pragmatik xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari konseptual metaforalar zamonaviy diskursda sun’iy intellekt texnologiyalarining ijtimoiy legitimatsiyasi, qabul qilinishi yoki tanqid qilinishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellect, konseptual metafora, lingvistik pragmatika, kognitiv lingvistika, diskurs tahlili, kommunikativ funksiya, pragmatik salohiyat, antropomorfizm, ingliz tili, rus tili, o‘zbek tili.*

Introduction. The rapid development of artificial intelligence technologies has transformed not only scientific and technological practices but also the linguistic means through which these technologies are conceptualized and communicated. Since artificial intelligence represents a highly abstract, technologically sophisticated, and cognitively opaque phenomenon, its representation in public discourse largely depends on metaphorical models that make it understandable to non-specialists.

Literature review. In contemporary linguistic pragmatics, language is viewed as a means of purposeful communication aimed at constructing interpretations, evaluations, and behavioral models rather than merely transmitting information [1; 2]. Within this framework, conceptual metaphors function as powerful cognitive and pragmatic instruments that enable individuals to comprehend complex phenomena through familiar experiential domains [3; 4]. Consequently, conceptual metaphors of artificial intelligence should be regarded not as secondary stylistic devices but as mechanisms that structure public understanding of emerging technologies.

The purpose of this study is to investigate the communicative and pragmatic potential of conceptual metaphors of artificial intelligence and to identify their principal functions in English, Russian, and Uzbek discourses.

The theoretical foundation of this study combines insights from cognitive linguistics, conceptual metaphor theory, speech act theory, and discourse analysis.

According to Lakoff and Johnson, conceptual metaphors are fundamental cognitive mechanisms through which abstract concepts are understood in terms of more concrete domains of experience [3]. Metaphor is therefore not merely a linguistic ornament but an essential component of human thought.

Kövecses further emphasizes that metaphorical conceptualization reflects cultural and cognitive patterns that vary across linguistic communities [4]. Consequently, the study of conceptual metaphors provides valuable insights into both universal and culture-specific mechanisms of meaning construction.

From a pragmatic perspective, language is analyzed in terms of its communicative goals and its influence on recipients [1; 2]. Speech act theory highlights the ability of linguistic expressions to produce perlocutionary effects, influencing beliefs, emotions, and behavior [7]. In this regard, conceptual metaphors may function as powerful tools of persuasion and social influence.

Critical discourse analysis views metaphor as a means of constructing social realities and ideological frameworks [6]. Accordingly, AI metaphors not only describe technological phenomena but also shape attitudes toward them.

Research methodology. The communicative and pragmatic potential of conceptual metaphors of artificial intelligence derives from the nature of AI itself. Artificial intelligence is an abstract, intangible, and technologically complex system that does not belong to ordinary human experience [8]. Therefore, its representation inevitably relies on conceptual transfer from familiar source domains.

Conceptual metaphors of AI perform several important functions: reducing the abstractness of technological knowledge; increasing cognitive accessibility; creating stable interpretative frameworks; shaping evaluative attitudes; regulating patterns of human–technology interaction; influencing cognitive and behavioral responses.

Because AI remains inaccessible to direct observation and difficult for non-specialists to understand, metaphor serves as a mechanism of pragmatic simplification. Through metaphorical transfer, complex technological processes become comprehensible within familiar cognitive structures. One of the most widespread metaphorical models is artificial intelligence is a helper.

Examples include:

English: AI acts as a personal assistant that understands your needs.

Russian: ИИ помогает человеку принимать решения.

Uzbek: Sun'iy intellekt insonlarga yordam beradi.

These examples activate a pragmatic scenario of usefulness, support, and cooperation. However, the pragmatic focus differs across languages.

In English discourse, emphasis is placed on personalization and quasi-autonomous understanding, encouraging trust in AI systems.

In Russian discourse, AI is primarily presented as a rational assistant whose value lies in functional efficiency.

In Uzbek discourse, the metaphor emphasizes service, collective benefit, and social usefulness, reflecting culturally specific values associated with cooperation and communal welfare.

Conceptual metaphors of AI inherently contain evaluative components that influence public attitudes toward technology.

Positive metaphorical models include: AI is a creative partner; AI is an intelligent assistant; AI expands human capabilities.

Analysis of the results. These metaphors promote acceptance, trust, and active engagement with technology. Negative metaphorical models include: AI threatens human jobs; AI takes control; Artificial intelligence may replace humans.

Such representations activate pragmatic scenarios of threat, uncertainty, and loss of control. They increase emotional tension and encourage critical evaluation of technological developments.

Importantly, evaluative meanings are often implicit. The metaphorical framework itself guides interpretation without requiring explicit evaluative language.

Conceptual metaphors provide recipients with ready-made interpretative frameworks that facilitate understanding of technologically complex phenomena.

Models such as *AI as a helper*, *AI as a tool*, and *AI as a partner* simplify cognitive processing and support orientation within complex informational environments.

Metaphors regulate expectations concerning human–technology interaction.

The metaphor *AI as a tool* implies controlled and limited use, whereas *AI as an advisor* or *AI as a partner* presupposes interaction, cooperation, and shared decision-making. Thus, metaphor not only describes AI but also establishes norms governing its use.

Conceptual metaphors shape attitudes toward AI by constructing positive or negative interpretative models. Positive metaphors facilitate technological legitimization and social acceptance, whereas negative metaphors emphasize risk and uncertainty.

Conceptual metaphors influence recipients' cognitive and behavioral responses. They may encourage trust, technological adoption, and engagement with digital services. Conversely, they may generate caution, skepticism, and resistance.

Discussion. As a result, metaphor functions as an indirect mechanism of behavioral influence.

The communicative and pragmatic potential of conceptual metaphors is realized through recurring micro-discursive scenarios [8].

A micro-discursive scenario may be defined as a stable combination of: a metaphorical model; a communicative objective; an expected pragmatic effect.

For example, the metaphor *AI as a helper* activates a scenario aimed at fostering trust and encouraging technological acceptance. Conversely, the metaphor *AI as a threat* activates a scenario designed to provoke caution and critical reflection.

Such scenarios demonstrate that conceptual metaphors function not only at the cognitive level but also as instruments of social and communicative regulation [9].

The study demonstrates that conceptual metaphors of artificial intelligence possess substantial communicative and pragmatic potential. They serve as cognitive tools that facilitate understanding of technologically complex phenomena while simultaneously functioning as pragmatic mechanisms that shape interpretation, evaluation, and behavior [10].

Conclusion. The comparative analysis of English, Russian, and Uzbek discourses reveals both universal and culture-specific features in AI conceptualization. Despite linguistic differences, metaphorical representations consistently contribute to the social construction of artificial intelligence, influencing public attitudes toward technological innovation [11].

Therefore, conceptual metaphors should be regarded as essential mechanisms of AI representation and as powerful instruments of communicative influence in contemporary digital societies.

REFERENCES:

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. 2nd ed. Edited by J. O. Urmson and Marina Sbisà. Oxford: Oxford University Press, 1975.

2. Leech G. N. (2016). Principles of Pragmatics. London and New York: Routledge.

3. Lakoff G., & Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 2003.

4. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. Oxford: Oxford University Press, 2020.

5. Lakoff G. (2008). Women Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. Chicago: University of Chicago Press. ISBN: 978-0226471013.

6. Charteris-Black, J. Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. London: Palgrave Macmillan, 2004.

7. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.

8. Podoprigora, A. V. Artificial Intelligence as a Discourse of Self-Knowledge and Self-Organization of Digital Society // Socium i Vlast'. 2019. No. 1(75). Pp. 7–20.

9. Анваров А. А., Досбаева Н. Т., & Солиев Б. Д. (2015). Staff development aspects of Namangan engineering pedagogical institute. Молодой ученый, (12), 705-707.

10. Досбаева Н. Т. (2010). Воссоздание художественного стиля при непосредственном переводе. // Вестник Челябинского государственного университета, (21), 19-22.

11. Turgunpolatovna D. N. (2020). The linguocultural analysis of literary translation from Uzbek into English. // Journal of critical reviews, 7(3), 262-265.

UO‘K 81

CHARLZ DIKKENZ ASARLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA STRATEGIYALARI

Xo‘jamova Lola,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Lingvistika (ingliz tili)1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent Usmanova R.M.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Charlz Dikkenz asarlarida frazeologizmlarning lingvistik xususiyatlari va ularning o‘zbek tiliga tarjima strategiyalari haqida yozilgan bo‘lib, unda Charlz Dikkenz hikoyalaridagi so‘z va iboralarning o‘ziga xosligi va o‘zbek tiliga tarjima qilinganda qanday o‘zgarishi haqida so‘z boradi. Tadqiqot uning “Oliver Tvist” va “Devid Kopperfild” kabi mashhur kitoblaridan 135 ta iborani ko‘rib chiqdi. Mutaxassislar bu iboralar nimani anglatishini, qanday birlashtirilganligini va qanday ishlatilishini tushunish uchun maxsus usullardan foydalanganlar. Ular ushbu iboralarni yaxshi tarjima qilish uchun bir xil ma'noni saqlab qolish, vaziyat haqida o‘ylash va madaniyatni tushunish juda muhimligini aniqladilar. Tadqiqot tarjimonlarga Dikkenzning o‘ziga xos so‘zlari va iboralarini o‘zbek tiliga qanday qilib mantiqiy va alohida ma’nosini saqlab qolishni bilishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, tarjima strategiyasi, lingvistik tahlil, korpus lingvistikasi, idiomalar, badiiy matn.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЧАРЛЬЗА ДИККЕНСА И СТРАТЕГИИ ИХ ПЕРЕВОДА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК
(на основе современного численного анализа)

Аннотация. *В данной статье рассматриваются лингвистические особенности фразеологии в произведениях Чарльза Диккенса и стратегии их перевода на узбекский язык. Обсуждается уникальность слов и фраз в рассказах Диккенса и то, как они изменяются при переводе на узбекский язык. Исследование проанализировало 135 фраз из его известных книг, таких как «Оливер Твист» и «Дэвид Копперфилд». Эксперты использовали специальные методы для понимания значения этих фраз, их сочетаний и способов использования. Они обнаружили, что сохранение того же значения, учет ситуации и понимание культуры очень важны для качественного перевода этих фраз. Данное исследование поможет переводчикам понять, как логично и выразительно переводить уникальные слова и фразы Диккенса на узбекский язык.*

Ключевые слова: *фразеология, перевод, лингвистический анализ, идиомы, художественный текст.*

LINGUISTIC FEATURES OF PHRASEOLOGISMS IN THE WORKS OF CHARLES DICKENS AND THEIR TRANSLATION STRATEGIES INTO THE UZBEKISTAN LANGUAGE
(based on modern numerical analysis)

Abstract. *This article discusses the linguistic features of phraseology in the works of Charles Dickens and their translation strategies into Uzbek. It discusses the uniqueness of words and phrases in Charles Dickens' stories and how they change when translated into Uzbek. The study examined 135 phrases from his famous books, such as “Oliver Twist” and “David Copperfield”. The experts used special methods to understand what these phrases mean, how they are combined, and how they are used. They found that maintaining the same meaning, thinking about the situation, and understanding the culture are very important for translating these phrases well. The study will help translators know how to translate Dickens's unique words and phrases into Uzbek in a logical and distinctive way.*

Key words: *phraseology, translation strategies, linguistic analysis, idioms, corpus linguistics.*

Kirish. Badiiy matn tilining ifodaviy imkoniyatlari, avvalo, unda ishlatilgan frazeologik birliklar orqali ko‘rinadi. Tilning ushbu qatlami semantik zichligi, obrazlilik darajasi va pragmatik ta’sir kuchi bilan ajralib turadi. Shu nuqtayi nazardan, Charlz Dikkenz ijodi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi, chunki uning asarlarida frazeologizmlar nafaqat didaktik vosita, balki mazmunni shakllantiruvchi asosiy qism sifatida faol qo‘llaniladi. Adabiy matnlarni raqamli tahlil etish imkoniyatlarining kengayishi frazeologik birliklarni tizimli o‘rganishga yangi yondashuvlarni taqdim etmoqda. Elektron korpuslar asosida olib borilgan dastlabki kuzatishlar Oliver Twist va David Copperfield romanlarida frazeologizmlar yuqori chastotada ishlatilishini ko‘rsatadi. Xususan, o‘rganilgan matn segmentlarida har 1000 so‘zga o‘rtacha 6-8 ta frazeologik birlik

to‘g‘ri kelishi aniqlangan bo‘lib, bu natija badiiy nutqning obrazlilik darajasi bilan bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, aniqlangan birliklarning qariyb 55-60 foizi idiomatik xarakterga ega bo‘lib, ularning aksariyati kontekstga bog‘liq holda turli semantik tus oladi. Frazeologizmlarning lingvistik mohiyatini chuqurroq tushunish ularning tuzilish, ma'no va vazifaviy jihatlarini majmuaviy yondashuv asosida o‘rganishni talab etadi. Dikkenz asarlarida bu birliklar ko‘pincha roldagi shaxs nutqini yakka qilish, ijtimoiy muhitni qayta tiklash hamda yozuvchi mavqeini bilvosita ifodalash vazifasini bajo keltiradi. Statistika kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, iboralarining qariyb 40 foizi suhbat nutqida ishlatilib, qahramonlarning ijtimoiy mavqeyi va ruhiy holatini aniqlashda asosiy belgilar vazifasini o‘taydi. Ushbu birliklarni o‘zbekchaga o‘girish masalasi esa alohida qiyinchilikni tashkil etadi. Til sistemalarining tafovutlanishi, madaniy ma’nolarining mos kelmasligi hamda iboraviy qiymatlarning ko‘p qatlamliligi tarjimada turli yo‘llarni ishlatish zaruriyatini paydo qiladi. Amaliy kuzatishlar yuzasidan ma’lum bo‘lishicha, frazeologizmlarning taxminan 40 foizi bevosita teng ma’noli orqali, 30 foizi o‘xshash usullar vositasida, qolgan qismi esa ta’riflovchi yoki o‘zgartiruvchi usullar orqali ifodalanadi. Bu vaziyat tarjima jarayonining nafaqat lingvistik, balki idrokiy va madaniy omillarga ham bog‘liqligini isbotlaydi. Shu sabab ushbu tahlilning asosiy maqsadi Charlz Dikkenz asarlarida foydalanilgan frazeologizmlarning til xususiyatlarini belgilash, ularning vazifaviy yukini statistik ko‘rsatkichlar asosida o‘rganish hamda o‘zbek tiliga tarjima etishda qo‘llanilgan usullarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Frazeologiya va uning tarjimasi masalalari jahon tilshunosligida keng qamrovli o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, frazeologik birliklarning semantik va struktur xususiyatlarini tizimli tadqiq etishda rus tilshunos olimi A.V.Kuninning ishlari muhim nazariy asos yaratadi. U frazeologizmlarni barqarorlik, qayta ishlab bo‘lmaslik va ko‘chma ma’nolilik kabi belgilar asosida tasniflaydi [1: 72]. Ushbu yondashuv badiiy matnlarda uchraydigan idiomatik birliklarni aniqlash va ularni kategoriyalarga ajratishda metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

G‘arb tarjimashunosligida frazeologizmlarni o‘rganish masalasi, ayniqsa, tarjima strategiyalari nuqtayi nazaridan rivojlangan. M.Baker frazeologik birliklarni tarjima qilishda ekvivalentlik muammosiga alohida e’tibor qaratib, idiomalarni tarjima qilishda to‘rt asosiy strategiyani ajratib ko‘rsatadi: to‘liq ekvivalent, qisman mos keluvchi birlik, tavsifiy tarjima va tushirib qoldirish [2: 45]. Ushbu tasnif Charlz Dikkenz asarlaridagi frazeologizmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonini tahlil qilishda samarali nazariy model sifatida qo‘llanildi. Shuningdek, Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasi tarjima jarayonida ma’no va ta’sirni saqlash muhimligini asoslaydi [3: 14]. Bu yondashuv ayniqsa badiiy matnlarda, jumladan Oliver Twist va David Copperfield romanlaridagi frazeologik birliklarni tarjima qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunda shakldan ko‘ra mazmun ustuvorlik kasb etadi. So‘nggi yillarda korpus lingvistikasi va raqamli texnologiyalar asosida olib borilgan tadqiqotlar frazeologik birliklarni empirik asosda o‘rganish imkonini kengaytirdi. Sinclair va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan korpus yondashuvi matnda til birliklarining qo‘llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur metod yordamida Dikkenz matnlarida frazeologizmlarning takrorlanish darajasi va ularning funksional yuklamasi aniqlanib, statistik tahlil asosida umumlashtirildi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuv asosida shakllantirildi. Unda bir nechta ilmiy usullar uyg‘unlashtirildi:

Korpus tahlili usuli – badiiy matnlardan frazeologik birliklarni avtomatlashtirilgan tarzda ajratib olish va ularning chastotasini aniqlash uchun qo‘llanildi. Natijada 130 dan ortiq birliklar aniqlanib, ularning qo‘llanish zichligi hisoblab chiqildi. *Semantik-stilistik tahlil* – frazeologizmlarning kontekstual ma’nosi va ularning badiiy funksiyasini ochib berishga xizmat qildi. *Qiyosiy tarjima tahlili* – original matn va o‘zbek tilidagi tarjimalarni solishtirish orqali tarjima strategiyalari aniqlashtirildi. *Statistik metod* – olingan natijalarni miqdoriy jihatdan asoslash, foiz ko‘rsatkichlarini aniqlash va umumiy tendensiyalarni belgilash imkonini berdi. Mazkur metodlar integratsiyasi natijasida frazeologik birliklarning lingvistik tabiati hamda ularning tarjima jarayonidagi transformatsiyalari tizimli ravishda ochib berildi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida Charlz Dikkenz asarlaridan tanlab olingan matnlar korpus asosida tahlil qilinib, jami 135 ta frazeologik birlik aniqlangan. Ushbu birliklar struktur, semantik va funksional mezonlar asosida guruhlarga ajratildi. Olingan natijalar frazeologizmlarning badiiy matn tarkibidagi ulushi va ularning kommunikativ yuklamasi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Frazeologik birliklarning struktur tasnifi quyidagi nisbatlarni namoyon etdi:

- idiomatik birliklar – 57% (77 ta);
- frazeologik birikmalar – 28% (38 ta);
- qisman erkin birliklar – 15% (20 ta);

Mazkur ko‘rsatkichlar idiomatik qatlamning ustunligini tasdiqlaydi, bu esa Charlz Dikkenz uslubida ko‘chma ma’noli ifodalarning yetakchi o‘rin egallashini anglatadi. Idiomatik birliklarning yuqori ulushi matnning emotsional-ekspressiv fonini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Funksional taqsimot. Frazeologizmlarning funksional yuklamasi statistik jihatdan quyidagicha taqsimlandi:

– obrazlilikni kuchaytirish – 44%;
– personaj nutqini individuallashtirish – 36%;
– ijtimoiy-madaniy muhitni ifodalash – 20%.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar asosan badiiy tasvir vositasi sifatida faol ishlatiladi, biroq ular kommunikativ va pragmatik vazifalarni ham birdek bajaradi. Ayniqsa dialogik nutqda ularning ulushi yuqori bo‘lib, umumiy birliklarning qariyb 40% aynan personaj nutqida qo‘llangan. Bu holat frazeologizmlarning individual nutq modelini shakllantirishdagi rolini tasdiqlaydi [7].

Tarjima strategiyalari bo‘yicha natijalar. Original matn va o‘zbek tilidagi tarjimalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi strategiyalar aniqlashtirildi:

– ekvivalent tarjima – 41%;
– analog tarjima – 34%;
– tavsifiy tarjima – 19%;
– transformatsion usullar – 6%.

Ekvivalent tarjimaning nisbatan yuqori ulushi ikki til o‘rtasida ma’lum darajada frazeologik moslik mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, analog va tavsifiy tarjimalarning umumiy ulushi 50% dan ortiq bo‘lib, bu holat madaniy va semantik tafovutlar sababli bevosita mos keluvchi birliklar har doim ham topilmasligini tasdiqlaydi. Tahlil davomida frazeologizmlarning taxminan 62% holatda kontekstual moslashtirish orqali tarjima qilingani aniqlandi. Bu jarayonda tarjimonlar ko‘pincha birlikning ichki obrazini emas, balki uning umumiy ma’nosini saqlashga intilgan. Natijada ayrim hollarda stilistik rang pasaygan bo‘lsa-da, kommunikativ maqsad saqlab qolingan[8: 159].

Korpus asosida olib borilgan tahlil frazeologik birliklarni aniqlash jarayonini sezilarli darajada optimallashtirdi. Avtomatlashtirilgan qidiruv natijasida birliklarni aniqlash aniqligi 85–90% darajasida bo‘lgani kuzatildi. Bu esa raqamli texnologiyalarning lingvistik tadqiqotlarda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatadi [6: 85]. Olingan statistik va tahliliy ma’lumotlar Charlz Dikkenz asarlarida frazeologizmlar nafaqat ko‘p uchrashini, balki ular matnning semantik va stilistik tuzilishini belgilovchi asosiy komponentlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Tarjima jarayonida esa ularning aksariyati to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki moslashtirilgan shaklda qayta yaratiladi, bu esa tarjimaning ijodiy jarayon ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Charlz Dikkenz asarlari asosida korpus tahlili quyidagicha:

1-jadval. Frazeologizmlarning struktur tasnifi

№	Frazeologizm turi	Soni (ta)	Ulushi (%)
1	Idiomatik birliklar	77	57%
2	Frazeologik birikmalar	38	28%
3	Qisman erkin birliklar	20	15%
	Jami	**135**	**100%**

2-jadval. Frazeologizmlarning funksional taqsimoti

№	Funksional vazifa	Soni (ta)	Ulushi (%)
1	Obrazlilikni kuchaytirish	59	44%
2	Personaj nutqini individuallashtirish	49	36%
3	Ijtimoiy-madaniy muhitni ifodalash	27	20%
	Jami	**135**	**100%**

3-jadval. Tarjima strategiyalari bo‘yicha taqsimot

№	Tarjima strategiyasi	Soni (ta)	Ulushi (%)
1	Ekvivalent tarjima	55	41%
2	Analog tarjima	46	34%
3	Tavsifiy tarjima	26	19%
4	Transformatsion usullar	8	6%
	Jami	**135**	**100%**

4-jadval. Qo‘llanish chastotasi (korpus tahlili asosida)

Ko‘rsatkich	Qiymat
Umumiy matn hajmi	~20 000 so‘z
Aniqlangan frazeologizmlar soni	135 ta

1000 so‘zga to‘g‘ri keladigan birliklar	6.7 ta
Dialoglarda uchrash darajasi	40%
Muallif nutqida uchrash darajasi	60%

Mazkur jadvallardan ko‘rinib turibdiki, ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlarning asosiy qismini idiomalar tashkil etadi (57%), bu esa badiiy ifodaning yuqori darajada obrazli ekanini, funksional jihatdan ular ko‘proq estetik va stilistik vazifani, tarjima jarayonida ekvivalentlik yetarli darajada mavjud bo‘lsa-da, analog va tavsifiy yondashuvlar ustunlik qiladi va har 1000 so‘zga o‘rtacha 6–7 ta frazeologizm to‘g‘ri kelishi Dikkenz uslubining frazeologik boyligini tasdiqlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar Charlz Dikkenz asarlarida frazeologik birliklar tasodifiy yoki faqat bezak vazifasini bajaruvchi element emasligini, balki matnning semantik va stilistik tuzilmasini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri ekanini ko‘rsatadi. Statistik ko‘rsatkichlarda idiomatik birliklarning ustunligi (57%) muallif nutqida ko‘chma ma’nolilikning yetakchi rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Bu holat Kunin tomonidan ilgari surilgan frazeologizmlarning barqarorlik va ko‘chma ma’nolilik xususiyatlari haqidagi nazariy qarashlar bilan mos keladi [1: 79]. Tahlil jarayonida aniqlangan funksional taqsimot frazeologizmlarning bir vaqtning o‘zida bir nechta kommunikativ vazifani bajarishini ko‘rsatadi. Obrazlilikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi birliklarning yuqori ulushi (44%) Dikkenz uslubining emotsional-ekspressiv xarakterga ega ekanini anglatadi.

Shu bilan birga, personaj nutqini individuallashtirishga xizmat qiluvchi birliklarning salmoqli qismi (36%) frazeologizmlarning pragmatik funksiyasini ochib beradi. Bu natijalar Moon tomonidan frazeologizmlarning nutqiy kontekstda funksional moslashuvi haqidagi fikrlarini tasdiqlaydi [7: 96]. Tarjima strategiyalari bo‘yicha olingan natijalar alohida e’tiborga loyiq. Ekvivalent tarjimaning 41% ni tashkil etishi ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida muayyan darajada frazeologik moslik mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq analog va tavsifiy tarjimalarning umumiy ulushi 50% dan oshgani tarjima jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keluvchi birliklar yetishmasligini ko‘rsatadi. Bu holat Baker tomonidan ta’kidlangan tarjima jarayonida idiomalarni moslashtirish zarurati bilan izohlanadi [2: 106]. Kuzatishlar shuni ham ko‘rsatadiki, frazeologizmlarning 60% dan ortig‘i kontekstual moslashtirish orqali tarjima qilingan. Bu esa Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik tamoyilining amaliy tasdig‘i sifatida qaraladi [3: 207]. Tarjimonlar ko‘pincha shakliy moslikni emas, balki ma’no va kommunikativ ta’sirni saqlashga ustuvorlik bergan. Natijada ayrim hollarda obrazning to‘liq saqlanmasligi kuzatilgan bo‘lsa-da, matnning umumiy semantik yaxlitligi buzilmagan.

Raqamli tahlil natijalari ham muhim ilmiy xulosalarni beradi. Korpus asosida aniqlangan chastota ko‘rsatkichlari frazeologizmlarning badiiy matndagi zichligini aniq ifodalash imkonini yaratdi. Har 1000 so‘zga o‘rtacha 6–7 ta frazeologik birlik to‘g‘ri kelishi Dikkenz uslubining frazeologik jihatdan boy ekanini ko‘rsatadi. Sinclair tomonidan ishlab chiqilgan korpus yondashuvi aynan shunday empirik natijalarga erishish imkonini berishini ta’kidlaydi [6: 108]. Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Frazeologizmlarning semantik chegaralarini aniqlash har doim ham aniq mezonlarga tayanmaydi, bu esa statistik natijalarda nisbiy tafovutlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tarjima variantlarining baholanishi ma’lum darajada subyektivlikni o‘z ichiga oladi [9: 61].

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari Charlz Dikkenz asarlarida frazeologik birliklar badiiy matnning semantik, stilistik va pragmatik tuzilmasini belgilovchi asosiy komponentlardan biri ekanini tasdiqlaydi. Korpus tahlili asosida aniqlangan 135 ta frazeologik birlikning struktur va funksional taqsimoti ularning matnda yuqori chastotada qo‘llanishini ko‘rsatdi. Xususan, idiomatik birliklarning ustunligi (57%) muallif nutqida ko‘chma ma’nolilik va obrazlilikning yetakchi o‘rin egallashini anglatadi. Bu natija frazeologizmlarning barqaror semantik tizim sifatidagi mohiyatini ochib beruvchi nazariy qarashlar bilan uyg‘unlashadi. Tahlil jarayonida aniqlangan funksional ko‘rsatkichlar frazeologizmlarning ko‘p qatlamli vazifalarni bajarishini ko‘rsatdi.

Ularning 44% obrazlilikni kuchaytirish, 36% personaj nutqini individuallashtirish, 20% ijtimoiy-madaniy muhitni ifodalashga xizmat qilishi badiiy matnda ushbu birliklarning faqat estetik emas, balki kommunikativ ahamiyatga ham ega ekanini isbotlaydi. Shu jihatdan, frazeologizmlar muallif uslubining ajralmas elementi sifatida namoyon bo‘ladi.Tarjima jarayoniga oid natijalar esa frazeologik birliklarni o‘zbek tiliga o‘girish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon ekanini ko‘rsatdi. Statistik tahlilga ko‘ra, 41% birliklar ekvivalent, 34% analog, 19% tavsifiy, 6% transformatsion usullar orqali tarjima qilingan. Analog va tavsifiy tarjimalarning yuqori ulushi (53%) ikki til o‘rtasida to‘liq frazeologik moslik har doim ham mavjud emasligini tasdiqlaydi. Bu holat tarjima strategiyalarini tanlashda moslashuvchan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Frazeologizmlarning 60% dan ortig‘i kontekstual moslashtirish orqali tarjima qilingani tarjima jarayonida semantik va pragmatik muvofiqlik ustuvor ekanini anglatadi.

Ushbu natija dinamik ekvivalentlik tamoyilining amaliy tasdig‘i sifatida baholanishi mumkin. Shakliy muvofiqlikdan ko‘ra ma’no va ta’sirni saqlashga intilish badiiy tarjimaning asosiy prinsiplaridan biri ekanligi yana bir bor o‘z isbotini topdi. Raqamli tahlil vositalarining qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining aniqligini oshirdi. Korpus asosida aniqlangan har 1000 so‘zga 6–7 ta frazeologizm ko‘rsatkichi Dikkenz matnlarining frazeologik zichligini aniq ifodalash imkonini berdi. Bu yondashuv lingvistik tadqiqotlarda empirik dalillarning ahamiyatini kuchaytiradi.

Olingan natijalarga binoan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Frazeologizmlarni tarjima etishda kontekstual yondashuvni asosiy qilib qo‘llash lozim, chunki statistik jihatdan ko‘pgina iboralar aynan shu usul orqali to‘g‘ri ifodalanadi. O‘zbek tilida frazeologik teng qiymatlilar (ekvivalentlar) to‘plamini yaratishni o‘rinli deb hisoblaymiz, bu tarjimonlar uchun amaliy vosita bo‘lib xizmat qiladi [10: 8].

Korpus lingvistikasi tamoyillari asosida frazeologik izohli lug‘atlar tuzish ilmiy tekshirishlar aniqligini oshiradi va haqiqiy foydalanish tezligini namoyish etadi [5: 379]. Sun’iy aql va avtomatik tarjima mexanizmlarini frazeologik tahlilga moslash zaruriyati kelajakda tarjima sifatini yaxshilashga yordam beradi, chunki mavjud dasturlar idiomatik birliklarni to‘liq anglashda hali ham cheklovlarga ega.

Badiiy tarjima tajribasida uslubiy tusni saqlab qolishga alohida ahamiyat berish talab etiladi, chunki frazeologizmlar faqatgina ma’no emas, balki muallifning uslubiy ohangini ham ifodalaydi [4: 66]. Umuman olganda, tadqiqot xulosalari frazeologizmlarni o‘rganish va tarjima qilish mavzusi ko‘p tomonlama ilmiy muammo ekanligini ko‘rsatib turibdi. Ularni chuqur sintez qilish tilshunoslik, tarjimashunoslik va raqamli lingvistika tutashgan joyda yangi ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga asos yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – 1-е изд. – М.: Высшая школа, 1986. – 336 с.

2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 1992. – 304 p.

3. Nida E.A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E. J. Brill, 1969. – 220 p.

4. Dickens Ch. Oliver Twist; or, The Parish Boy’s Progress: in 3 vols. – London: Richard Bentley, 1838. Vol. III: – 315 p.

5. Dickens Ch. The Personal History of David Copperfield. – London: Bradbury & Evans, 1850. – 624 p.

6. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 170 p.

7. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 338 p.

8. Newmark P.A Textbook of Translation. – London. New York: Prentice Hall International, 1988. – 292 p.

10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B.14.

UO‘K 81

UNDOV SO‘ZLAR MATNNING ISHONTIRISH SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA ASOSIY BIRLIK SIFATIDA

Yodgorov Jaloliddin Jamolidinovich,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
yodgorov202@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada badiiy matnlarda undov so‘zlarning his-tuyg‘u ifodalashdagi o‘rni, ularning semantik, pragmatik hamda uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Undov so‘zlarning matn ichidagi joylashuvi, intonatsiyasi va kontekst bilan bog‘liq holda turli ma’no qirralarini yuzaga chiqarishi asosiy tadqiq obyekti sifatida o‘rganiladi. Shuningdek, undov so‘zlarning ko‘p ma’nolilik xususiyati, ularning boshqa leksik birliklar bilan birikib hissiy-ekspressiv ta’sirni kuchaytirishi misollar asosida yoritiladi. Yana undov so‘zlarning qahramon ruhiyatini ochib berishdagi roli, ularning nutq jarayonida individual, ijtimoiy hamda madaniy omillar bilan bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Xususan, undov so‘zlarning jins, yosh va ijtimoiy toifaga xos xususiyatlarni ifodalashi, gender lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shu bilan birga, undov so‘zlarning fonetik va stilistik jihatlari, ularning badiiy matndagi emotsional-ekspressiv yuklamani oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *undov so‘zlar, his-tuyg‘u ifodasi, badiiy matn, emotsional-ekspressivlik, semantik xususiyatlar, pragmatik tahlil, kontekst, intonatsiya, polisemantiklik, dialogik nutq, qahramon nutqi, ruhiy kechinmalar, lingvistik birlik, gender lingvistika, jins xususiyatlari, ijtimoiy toifa, nutq madaniyati, stilistik vositalar.*

МЕЖДОМЕТИЯ КАК ФУНДАМЕНТАЛЬНАЯ ЕДИНИЦА, ОБЕСПЕЧИВАЮЩАЯ УБЕДИТЕЛЬНУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТЕКСТА

Аннотация. *В статье анализируется роль междометий в выражении эмоций в художественных текстах, а также их семантические, прагматические и стилистические особенности. В качестве основного объекта исследования рассматривается расположение междометий в тексте, интонация и контекст, которые раскрывают различные аспекты значения. Также на примерах рассматривается многозначность междометий, их способность усиливать эмоционально-экспрессивный эффект в сочетании с другими лексическими единицами. Также показана роль междометий в раскрытии душевного состояния героя, их связь с индивидуальными, социальными и культурными факторами в процессе речи. В частности, анализируются гендерные, возрастные и социальные особенности междометий с точки зрения гендерной лингвистики. При этом раскрываются фонетические и стилистические аспекты междометий, их значение в усилении эмоционально-экспрессивной нагрузки в художественном тексте.*

Ключевые слова: *восклицательные слова, выражение эмоций, художественный текст, эмоционально-экспрессивность, семантические особенности, прагматический анализ, контекст, интонация, многозначность, диалогическая речь, речь героя, душевные переживания, языковое единство, гендерная лингвистика, гендерные особенности, социальная категория, культура речи, стилистические средства.*

EXCLAMATION WORDS AS A FUNDAMENTAL UNIT THAT ENSURES THE CONVINCING EFFECTIVENESS OF THE TEXT

Abstract. *The article analyzes the role of interjections in the expression of emotions in literary texts, as well as their semantic, pragmatic and stylistic features. The main object of the study is the arrangement of interjections in the text, intonation and context, which reveal various aspects of meaning. The ambiguity of interjections and their ability to enhance the emotional and expressive effect in combination with other lexical units are also considered using examples. The role of interjections in revealing the mental state of the hero, their connection with individual, social and cultural factors in the speech process is also shown. In particular, the gender, age, and social features of interjections are analyzed from the point of view of gender linguistics. At the same time, the phonetic and stylistic aspects of interjections are revealed, as well as their importance in enhancing the emotional and expressive load in a literary text.*

Keywords: *exclamation words, expression of emotions, artistic text, emotional expressivity, semantic features, pragmatic analysis, context, intonation, ambiguity, dialogic speech, hero's speech, emotional experiences, linguistic unity, gender linguistics, gender characteristics, social category, culture of speech, stylistic means.*

Kirish. Ma'lumki, til va uning mohiyati haqida fanda ham, tegishli lug'atlarda ham behisob ta'rif-u tavsiflar mavjud. Tilning eng muhim jihatlarini umumlashtiruvchi ma'lumot sifatida uning kishilar o'rtasida aloqa va o'zaro fikr almashishning muhim vositasi ekanligi, borliqdagi narsa, hodisalarga va ularni ongda aks ettirishga xizmat qiluvchi vosita ekanligi hamda muayyan jamiyat doirasida hammaga ma'lum va maqbul bo'lgan tovush belgilari majmuyi ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, til millatlarning dunyoga qarash tarzini belgilovchi, umumlashtiruvchi murakkab hodisa bo'lib, tilshunoslik bilan birga, mantiq, falsafa, psixologiya kabi bir qator fanlarning o'rganish obyekti ham sanaladi. Tabiiy til dunyoni idrok etish va tushunchalarni shakllantirishning muayyan usulini yaratadi hamda muntazam takomillashtirib boradi. Tilning paydo bo'lishi haqidagi ilmiy qarashlarning zamirida uning soddadan murakkabga tomon shakllanib, takomillashib borishi bayon qilinadi.

Darhaqiqat, tilshunoslik bilan bog'liq tadqiqotlarning ko'plab obyektlari orasida undov so'zlar nisbatan ko'proq munozaralarga sabab bo'ladi. Bu, albatta, mazkur birlikning mohiyatan murakkab hodisa ekanligi hamda ko'p o'rganilmaganligi bilan izohlanadi. Aniqki, undov so'zlar tilshunosligimizda turli tadqiqot sohalarining obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Ta'rif va talqinlarda ham muntazamlik, yakdillik yetishmaydi. Bu holat faqat o'zbek tilshunosligida emas, balki rivojlangan boshqa tilshunosliklarda ham kuzatiladi. Xususan, o'tgan asrning o'rtalarida A.Germanovich o'zining monografik tadqiqotida undov so'zlarni nutqning barcha qismlari orasida tutadigan alohida o'rnini ko'rsatib, ushbu toifaga nisbatan eng ko'p tortishuvlar va kelishmovchiliklar mavjudligini aytib o'tadi [1;543].

Olim ushbu tadqiqotida undov so'zlarning tildagi alohida o'rni va vazifasini ko'rsatib, ushbu birliklarga nisbatan nazariy munosabatlarni yagona tizimga keltirish kerakligini ta'kidlaydi [2;543]. Shuningdek, u mazkur birliklar haqidagi o'zidan oldingi aytilgan lingvistik qarashlarni tasniflab, farqning mazmunda emas, uslubda ekanligini dalillab beradi [3;288]. I.Sharonov o'z tadqiqotida undov so'zlarning lingvistik xususiyati to'g'risidagi olimlaring fikri shu darajada keskinlashib va bir-biriga zidlashib ketganligini aytib o'tadi. Bunday qarash vakillari: N.Grex, D.Ovsyaniko-Kulikovskiy, A.Peshkovskiy, J.Shmidt, A.Rudnev, A.Bobrovnikovlar fikrlarida qat'iy bo'lib, ular hatto undov so'zlarni tilshunoslikning o'rganish birliklari qatoridan chiqarib tashlashni ilgari surishadi.

Ular undov so'zlarni hislar bilan bog'liq, tushunchalarga aloqador va fiziologik ta'sirlar natijasida vujudga keladi, degan fikrda bo'ldilar. Shuning uchun undov so'zlarni boshqa fanlarning o'rganish markazi bo'lishi kerakligini targ'ib qilishdi [4;261]. Zero, I.Lomonosov birinchilardan bo'lib undov so'zlarni til birligi bo'la olishini aytgan va bu g'oyani keyinchalik V.Rassadin, V.Vinogradov, N.Germanovich, A.Meshchaninov, L.Karpov, N.Nedelyayev kabi olimlar qo'llab-quvvatladilar. Bu olimlar undov so'zlarning badiiy matnda nutqiy birliklar tashkillanishida faol qatnashishi, shuningdek, ular badiiy matnning butun matniy tuzilishi(syujet qurilishi, asar personajlarining xarakter xususiyatlarinin aynan ko'rsatish, asar tilining o'ziga xosligi kabilar)da asosiy vazifa o'tashini o'z tadqiqotlarida ta'kidladilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XVII asrga kelib rus olimi M.Lomonosov o'z asarlarida mazkur birlikning ilmiy tavsifini bayon qiladi. U undov so'zlarga qisqa qilib "ruh harakatlarining qisqacha ifodasi" tarzida ta'rif berib [5;143], qaysidir ma'noda o'ziga xos bu leksik birlik haqidagi nazariy qarashlar tadrijini boshlab berdi. Keyinchalik undov so'zlarning lingvistik sathda nazariy asoslarini V.fon Gumboldt, V.Vinogradov, O.Esperson, B.Ilish, Y.Kubryakova, M.Terentev, G.Paul, G.Suit va boshqa olimlar; nomlash nazariyasi M.Nikitin, A.Ufimseva, A.Xudyakovlar tomonidan; lingvistik-pragmatik qirralari A.Gurochkina, A.Kibrik, M.Nikitin, X.Xolek, A.Xudyakov, U.Cheyf kabi tilshunoslar tomonidan; kognitiv tilshunoslik jihatlari N.Boldirev, V.Demyankov, L.Luzina, M.Nikitin, Y.Pankrans, Y.Raxilina, I.Svitser, I.Sternin, Ch.Fillmor, J.Fokane, A.Xudyakovlar tomonidan, shuningdek, neyrolingvistik yondashuvlar P.Anoxin, V.Vundt, L.Vigotskiy, K.Izard, A.Leontev, Y.Reykovskiy, V.Shaxovskiy, L.Vernigor, M.Labashuk, A.Luriya kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi [6;426].

O'zbek tilshunosligida ham undov so'zlar masalasi dastlab grammatik nuqtayi nazardan o'rganilgan bo'lib, ularning morfologik va sintaktik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, S.Usmonov undov so'zlarning leksik ma'nosi matndan tashqarida sustlashishini, ularning haqiqiy semantik yuklamasi nutqiy vaziyatda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, undov so'zlar kontekstga bog'liq holda o'zining emotsional-pragmatik mazmunini ochadi, bu esa ularni boshqa leksik birliklardan farqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda undov so'zlarning nasriy matndagi funksional-uslubiy xususiyatlarini aniqlash uchun kompleks yondashuvga asoslangan metodologiya qo'llanildi. Tadqiqotning

nazariy asosini antropotsentrik tilshunoslik, lingvopragmatika hamda emotsional-ekspressiv birliklar nazariyasi tashkil etadi. Izlanish metodologiyasi quyidagi asosiy yo‘nalishlarga tayanadi: birinchidan, **tasniflash (klassifikatsiya) metodi** asosida undov so‘zlar olti bosqichli tizimga ajratilib o‘rganiladi. Bu tasnif undov so‘zlarning semantik (emotsional ma’no), polisemiya (ko‘p ma’nolilik), ijtimoiy (jins, yosh, toifa), tarixiylik va yangilanish, pragmatik munosabat hamda fonetik-grammatik xususiyatlarini qamrab oladi. Ushbu yondashuv undov so‘zlarning ko‘p qirrali tabiatini tizimli ravishda ochib berishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, **kontekstual tahlil metodi** yordamida undov so‘zlarning badiiy matndagi aniq nutqiy vaziyatda qanday ma’no kasb etishi o‘rganiladi. Bunda undov so‘zlarning matndagi joylashuvi (boshlanish, o‘rta yoki yakuniy pozitsiya), voqelikning kutilmaganlik darajasi va personaj ruhiy holati bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Uchinchidan, **lingvopragmatik tahlil** orqali undov so‘zlarning so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatni ifodalashdagi roli yoritiladi. Bu metod yordamida undov so‘zlarning ijobiy, salbiy yoki neytral munosabat bildirishdagi funksiyasi hamda ularning kommunikativ ta’sir kuchi aniqlanadi. To‘rtinchidan, **stilistik tahlil metodi** asosida undov so‘zlarning badiiy-estetik vazifasi o‘rganiladi, ya’ni yozuvchining personaj nutqini individuallashtirish, milliy ruhni ifodalash va obraz ishonarliligini oshirishdagi til vositalaridan foydalanish mahorati tahlil qilinadi. Beshinchidan, **qiyosiy-tahliliy metod** orqali turli yozuvchilar asarlarida qo‘llangan undov so‘zlar o‘zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Bu usul undov so‘zlarning individual-uslubiy va umumtil xususiyatlarini ajratishga imkon beradi. Mazkur metodologiya undov so‘zlarning nafaqat semantik, balki pragmatik, stilistik va ijtimoiy qirralarini kompleks tarzda yoritishga xizmat qiladi hamda ularning badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini chuqur ochib berishga imkon yaratadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimizning ushbu qismida undov so‘zlarni nasriy asarlardagi ishlatilish xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha olti bosqichli tasnifga tayangan holda tahlil etish rejalashtirildi. **Birinchidan,** undov so‘zlarni nasriy matnda qanday ma’no anglatishi ko‘ra tahlil qilish: *zavqlanish, quvonch, xursandchilik, achinish, shafqat, xayrixohlik, mamnuniyat, huzur, ajablanish, hayratlanish, taajjub, koyish, qoyil qolish, shodlanish, minnatdorlik, tashakkur, qo‘rqish, cho‘chish, afsuslanish, norozilik, e’tiroz, jirkanish, nafratlanish, g‘azab, o‘kinch, alam, pushaymon, g‘am, qayg‘u, musibat, kulfat, dard, zarda, hazar, nolish, zorlanish, shikoyat, hasrat, dahshat, vahima, tanbeh* kabi. **Ikkinchidan,** undov so‘zlarni qo‘llashda ko‘p kuzatiladigan ko‘p ma’nolilik xususiyat ko‘ra tahlil etish: *e, hay-hay, voy, oh, a, voh, o, dod* kabi. **Uchinchidan,** undov so‘zlar badiiy matnda ijtimoiy toifa, jins va yoshga ishora etishiga ko‘ra: *voy, hoh, hey, yo rabbiy, astag‘firullo, barakalla, tashakkur, o‘v, balli, obbo* kabi. **To‘rtinchidan,** undov so‘zlarning tarixiylik va tilda yangi paydo bo‘lish yoki ma’lum guruh vakiliga xos xususiyatiga ko‘ra: *bo, be, hayhot, voajabo, e voh, astag‘firullo, alhamdulilloh, vo darig‘o, ibi, bravo, malades, o-key, nu-nu* kabi. **Beshinchidan,** matnda boshqa leksik birliklari bilan mantiqan bog‘lanib salbiy, ijobiy yoki oraliq munosabat ma’nolarini anglatishiga ko‘ra: *balli, ho‘, voy, hoy, hov, barakalla, ofarin, tashakkur, tasanno; dod, he, e, tuf, tfu, fu, be, bo, xex* kabi. **Oltinchidan,** undov so‘zlarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ko‘ra: *hoy | hey; oho | ohho; e | e-e; eh | eh-he-e-e; yo Olloh | yo tavba, voy | voy-voy(-voy); ohi, dodi* kabi.

His-tuyg‘u ifodalovchi undov so‘z so‘zlovchining tashqi olamga, suhbatdoshiga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini, ta’sirlanish, zavqlanish, xayrixohligi natijasida yuzaga keluvchi ruhiy kechinmalarni ifodalaydi [7;45]. Undov so‘zlarga bildirilgan ta’riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, badiiy matndagi qahramon nutqida his-tuyg‘ularning ifodalanishi hamma vaqt olimlarning e’tiborini tortib kelgan [8;208]. Chunki badiiy matnda qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari muallif tomonidan turli tasviriy vositalar yordamida ifodalanadi. Shuning uchun ham badiiy matnda ichki kechinmalarning tasviriga e’tibor qaratiladi. V.Shaxovskiy badiiy matnda ruhiyat aks etishini chuqur o‘rgangan olimlar sirasiga kiradi. Shuning uchun ham u badiiy asar tadqiqini hissiyotlar tadqiqi sifatida talqin qiladi [9;15]. Bunda undov so‘zning turli lisoniy qirralari ko‘rinib turadi va ularning ma’no nozikliklari sermahsulki, ularning ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz.

Undov so‘zning matndagi joylashuvi ham undov so‘zni ma’no qirralarini ko‘rsatishda asosiy omil hisoblanadi. Masalan, dahshat, vahima va qo‘rqish ma’nolarini ifodalaganda: *Kampir tong qorong‘usida xamir qilgani turib ho‘kizdan xabar oldi.* ***O!..*** *Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan...* (A.Qahhor, “O‘g‘ri”); *Qutidor qizining peshonasini ushladi: –* ***Ey-ha,*** *Kumush, hali issig‘ing bor, – dedi.* (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”); *Sarviniso bilan chirigan behilarni topib olib ichini yalar edik, juda shirin bo‘lardi...* ***Voy o‘lay,*** *Sarvinisoyam ketib qoldi-ku...” deb birdaniga yana yig‘lab yuborgan edi.* (Isajon Sulton, “Ozod”).

Qo‘llangan *o, ey-ha, voy o‘lay* undov so‘zlari asosan so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, voqelikni baholashda yozuvchi tomonidan badiiy matnga olib kirilgan. Bu undov so‘zlar nutqning boshlanish qismlarida qo‘llanadi, chunki undov so‘zning paydo bo‘lishida asosiy omil voqelikdagi kutilmaganlik, tasodif yoki qaltis vaziyat hisoblanadi. Bunday hollarda undov so‘zni nutqning o‘rta yoki yakuniy qismlarida qo‘llab bo‘lmaydi va bu amaliyotda kuzatilgan hol emas. *O* undov so‘zi qo‘llangan misoldagi vaziyatga

qaralsa, yoshi katta ayol personaj tasvirlanyapti. *Iye, ey Xudo, voy, voy o‘lay* kabi kutilmagan va qaltis vaziyatning ifodalovchi undov so‘z mavjudki, ulardan birini ushbu undov so‘z o‘rnida ishlatish mumkin. Lekin yozuvchi o‘z personaji nutqini shu birlik bilan ishonarli bo‘lishini mutlaq ta’minlagan.

Ikkinchi misoldagi *Ey-ha* undov so‘zi asosan biror narsani birdan esga tushishi natijasida paydo bo‘luvchi undov so‘z hisoblanadi. Lekin bu o‘rinda yozuvchi personajning biror narsani eslashini emas, balki kutilmagan voqelikki duch kelgan holatini ko‘rsatish uchun ishlatgan. Undov so‘z personaj ongidan o‘tayotgan bunday bo‘lmas kerak edi, nahot hali ham ahvoling yomon, sen o‘zingni ehtiyot qilishing zarur kabi ma’nolar biriktirgan bo‘lib, o‘quvchi tasavvurida personajda mavjud rahmdillik, mehr, shafqat kabi xislatlarni aynan paydo bo‘lishiga yordam bergan. Uchinchi misoldagi *voy o‘lay* undov so‘zi asosan *voy* tarzida qo‘llanadi va vaziyatning tasodifiyligini aynan ko‘rsatish uchun foydalaniladi. Bu o‘rinda qo‘llangan *voy* undov so‘zi *o‘lay* leksik birligi bilan birikib, personajning vaziyatga bo‘lgan munosabatini o‘ta darajada kutilmaganligini yoki birdan esga tushish holatini ko‘rsatgan. *Voy o‘lay* tarzidagi birikmali undov so‘z *voy sho‘rim, voy tavba, voy xudo* kabi birikmali undov so‘zlarga ma’nodosh hisoblanadi. Bu kabi undov so‘zlarda o‘zbek millatining aynan o‘zligi va nutq odobi kabi xususiyatlar ko‘rinib turadi.

Zavqlanish, quvonch va xursandchilikni ifodalagan undov so‘zning ohangi odatda taajjubni ko‘rsatuvchi undov so‘zga qaraganda u darajada baland bo‘lmaydi. Bu fikrimiz shartli bo‘lib, ba’zan ijodkor personajlar ruhiyatini yuqori bosqichda va kutilmagan holatlarni aynan tasvirlashda bu undov so‘zni ham baland ohangda berishga harakat qiladi. Bu yozuvchi maqsadi va matnning asosiy talabi hisoblanadi: *Mirzo Ulug‘bek boshini ohista tebratib, dardli jilmayib qo‘ydi. –* ***Tashakkur,*** *Ali...* (O.Yoqubov, “Ulug‘bek xazinasi”); *–* ***Ofarin, ofarin!*** *– deya, boshini sarak-sarak qildi Mamat bobo.* (T.Murod, “Yulduzlar mangu yonadi”); *–* ***Malades,*** *Shayh! Orangutan bo‘p ket-e!* (O‘.Hoshimov, “Dunyoning ishlari”).

Qo‘llangan *tashakkur, ofarin va malades* undov so‘zlari asosan dialogik replikalarda ishlatilib, bu undov so‘zning yakka o‘zi ham asar personajining his-tuyg‘ulari natijasida uning ongida paydo bo‘lgan boshqa axborotlarini ham o‘zida jamlagan. Masalan, *tashakkur* undov so‘zi voqelikka ijobiy baho berishning yuqori ko‘rinishlarida ishlatiladi va ijodkor bu undov so‘zni qo‘llashda personajning ijobiy xislatlarini ko‘rsatishni maqsad qiladi.

Ofarin undov so‘zini yozuvchi matnda yanada tantanavor, yanada balandroq yoki hissiy to‘yingan qilib ko‘rsatish uchun uni takror tarzda qo‘llagan. Bu takror asarning personaji Mamat boboning *ofarin* undov so‘zdan keyin aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini o‘zining ohangi bilan qamrab olgan: ajoyib ish qilding, hech kim qilolmagan ishni bajarding, sendan bu kabi yutuqni kutmagan edim kabi.

Taajjub, ajablanish yoki hayrat ma’nolarini ifodalagan *bo, be, o, iye, iya, iyi, xo* kabi undov so‘zning o‘ziga xos ma’no qirralari va verballashish xususiyati mavjud bo‘lib, ular ham ba’zi jihatlari bilan ijodkorning matn yaratishdagi qiyinchiliklarini yengillashtiradi. Bu undov so‘zda ham boshqa ko‘plab undov so‘z qatori personajning undov so‘zdan keyin keltirgan nutqi yoki yozuvchi tomonidan aytilgan qo‘shimcha izohlar ularning ma’nolarini u yoki bu tomonga siljishiga sabab bo‘ladi: *– “Qora ko‘zlari, kamon qoshlari...” –* ***A-a-a,*** *– dedi Hasanali va qaytadan qulog‘ini tirqishg‘a olib bordi.* (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”); *–* ***E,*** *qandaqa xotin bu, birovning uyiga bostirib kiradi!..* (A.Qahhor, “Muhabbat”); *–* ***Voy o‘lmasam,*** *– dedi xotini tamoman uyqusi qochib. – Nega menga xabar qilmadingiz? – Borardim. Axir, ota o‘rnida ota edilar.* (Said Ahmad, “Qorako‘z majnun”).

A undov so‘ziga grammatik shakldosh bo‘lgan *A* so‘roq yuklamasida ham aynan modallik ma’nosi anglashilib turadi. *A* undov so‘zida esa bu xususiyat bir necha barobar yuqori bo‘lib, ba’zan badiiy matnda so‘roq va taajjub ma’nolari bir-biriga singib yaxlitlanib ketadi. Misoldagi undov so‘zning *A-a-a* tarzida berilishi personaj taajjubining o‘ta yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, bu vaziyatda personajning o‘ziga-o‘zi berayotgan savollar ma’nosi ham shakllantirilgan: *nahotki shunday bo‘lsa, nahot men bexabar bo‘lsam, shunchalik bo‘lishi mumkinmi* kabi. Yozuvchi bu o‘rinda undov so‘zdan keyin nutq birligi kiritmayapti, vaziyatga personajning kuchli bahosini uning keyingi harakati bilan, ya’ni qulog‘ini tirqishga yaqin olib borganligi bilan o‘z izohi bilan ko‘rsatib o‘tyapti.

E undov so‘zi matndan tashqarida asosan e’tiroz, norizolik, qoniqmaslik kabi ma’nolarda ishlatiladi va uning ma’no qirralari bir muncha ko‘p bo‘lib, matndagi mantiqqa monand o‘z ma’nosini moslashtiradi. Badiiy adabiyotda ham bu undov so‘z yuqoridagi ma’nolarida ishlatiladi va dialogli nutqiy ko‘rinishlarda qo‘llanadigan lisoniy birlik hisoblanadi. Misoldagi vaziyatda *e* undov so‘zi personajning kuchli ajablanishini ko‘rsatgan va undov so‘zdan keyin keltirilgan nutqiy birlik undov so‘zning hissiy to‘yinganlik darajasini oshirgan. Undov so‘zdan keyin qo‘llangan *qanaqa ayol bu* shaklidagi nutq aktidagi inversiya (*bu ayol qanaqa shaklida* emas) undov so‘zning hissiy ta’sir darajasini oshirgan. Shuningdek, yuqoridagi *A* undov so‘zi qo‘llangan misoldagidek yozuvchi qo‘shimcha tarzda o‘z izohini matnga kiritmagan, bu vazifani undov so‘zdan keyingi qo‘llangan nutqiy birikmaga yuklagan. Bu o‘rinda ushbu undov so‘z o‘rnida *iye, iya, obbo, tfu, voy* kabi ma’nodosh undov so‘z bilan almashtirilsa ham matn badiiyligiga ziyon yetmaydi.

Keyingi misoldagi *voy* undov so‘zi ham nutqiy aktlarda faol qo‘llanuvchi lisoniy birlik hisoblanadi. Bu birlik nutqdan tashqarida og‘riq, hayrat, taajjub, tasodif, qaltis vaziyat, kutilmagan sharoitli holat kabi ma’nolarda tushuniladi. Misoldagi vaziyatda qo‘llangan undov so‘z personajning kuchli hayratini ko‘rsatish uchun qo‘llangan. Undov so‘zdan keyin ishlatilgan *o‘lmasam* til birligi *voy* undov so‘zining hissiy ta’sir darajasini yanada oshirgan. Bu undov so‘z bilan yondosh tarzda *voy, o‘lay; voy, sho‘rim, voy, Xudo(yim); voy, tavba* kabi ko‘rinishlarda ham qo‘llanadi. Misoldagi undov so‘zni ushbu undov so‘zlar bilan alishtirilib ishlatilishi matnning hissiy belgisini o‘zgartirmaydi.

Umuman, undov so‘zlarning ma’nosi ijodkor maqsadiga ko‘ra matnga joylashtiriladi va shakllantiriladi. Undov so‘z ma’nosini turli badiiy usullar bilan kuchaytiradi va kengaytiradi: undovdan keyin o‘z izohini keltirish, undov so‘zni boshqa til birliklari bilan biriktirish kabi. Undov so‘zlarning ma’no qirralarini bir tadqiqot ishida qamrab tahlil etish mushkul ish hisoblanadi.

Undov so‘zning asosiy nozik jihati ularning matn talabi va ijodkor maqsadiga hamohang tarzda o‘z ma’nolarini o‘zgartira olishi hisoblanadi. Bu borada S.Usmonov shunday yozadi: “Emotsional undov so‘z gapdan uzib olinishi bilanoq leksik ma’no jihati kuchsizlanadi. Demak, undov so‘zning qanday ma’no tashishi ma’lum sharoit, vaqt va o‘rinda aniqlanadi, boshqacha aytganda, grammatik ma’no bilan aniqlanadi” [10;40]. Shakliy bir xillik undov so‘zning nozik jihati hisoblanib, ularni xuddi shakldosh so‘zlarga yaqinlashtirib qo‘yadi. Farqi shakldosh so‘zlar matndan tashqarida ham o‘z ma’nosini mustaqil anglata oladi, undov so‘zlar esa matnning mantiqiy talabi doirasida shakllanadi.

Shuning uchun ulardan keyin kelayotgan leksik birliklarning grammatik va mantiqiy birikishi asosiy omil hisoblanadi. Qaysidir ma’noda aytish mumkinki, ular o‘zidan keyin shakllanadigan nutqiy bosqichni o‘ziga bo‘ysuntiradi. Ana shunda matndagi boshqa lisoniy birliklar undov so‘z bilan mantiqiy birikib nutqiy vaziyat hosil qilishdan ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Masalan, achinish yoki rahm-shafqat ma’nosini ko‘rsatishda qo‘llanadi: *Nihoyat u chuqur tin olib: – **O,** osiy bandalar, bandalar! – deb qo‘ydi.* (O.Yoqubov, “Ulug‘bek xazinasi”)

O undov so‘zi matndan tashqari holatda bir necha ma’nolarga ega: taajjub, mensimaslik, kamsitish, sog‘inch, afsus, tasdiq va b. Misoldagi undov so‘zdan keyin takror qo‘llangan *bandalar* leksik birligi undov so‘z bilan mantiqan birikib kuchli ma’nodagi achinish hissini paydo qilgan.

Sog‘inch ma’nosini ifodalaydi: *– **O,** o‘sha kunlar! Mavlono Muhiddinning javonlari kitobga to‘la osuda xonasida o‘tgan mas’ul daqiqalar!..* (O.Yoqubov, “Ulug‘bek xazinasi”)

Asar qahramoni ruhiyatidagi kuchli xotirlash, undov so‘zdan keyin shakllantirilgan *o‘sha kunlar* so‘z birikmasi bilan yuzaga chiqqan. Bu undov so‘z o‘rnida *eh, ha, hmm, ey* kabi undov so‘zlarni qo‘llash bilan ham shunday badiiy maqsadga erishish mumkin. Lekin bu undov so‘z talaffuzida intonatsion davomiylik va cho‘ziqlik mavjudki, bu personaj ruhiyatidagi sog‘inchni yanada bo‘yoqdor qilib ko‘rsatgan.

Kamsitish yoki haqorat ma’nosida qo‘llanadi: *Qalandar bo‘lsa... – **O,** sahroyi sodda, haq taolo devday qaddi-qomat berib, aql bermagan anqov!* (O.Yoqubov, “Ulug‘bek xazinasi”).

Misoldagi *o* undov so‘zi tasnifi biroz mushkul bo‘lib, matnga e’tibor berilsa, *o* undov so‘zini kamsitish ma’nosida qo‘llanganini sezishda va hissiy hukm chiqarishga ozroq bo‘lsa-da badiiy vaqt kerak bo‘ladi. Undov so‘zdan keyin kelayotgan lisoniy birliklar, ya’ni izohlovchilar zanjirining murakkabligi mavjud bo‘lib, toki *anqov* sifatining qo‘llanishigacha bo‘lgan vaziyatda undov so‘zning matniy ma’nosi mavhum bo‘lgan.

Bu undov so‘z o‘rnida *e, tfu, be, fu* kabi ma’nodoshlari ham ishlatilishi mumkin. Yozuvchi o‘quvchiga *o* undov so‘zini qo‘llash bilan nafaqat kamsitishni, balki tahqir, shama, kinoya va piching kabi ma’no qirralarini ham bo‘rttirib ko‘rsatishni niyat qilgan. Bu undov so‘z tarixiy mavzuda yaratilgan yoki odatiy muomaladagi laganbardorlik, tilyog‘lamalik yoki kuchli takallufni ifodalashda ham qo‘llanadi: *– **O,** xoqoni olam! – qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib javob berdi Dehdor.* (Oybek, “Navoiy”).

Bu misoldagi undov so‘z personaj nutqidagi o‘ta yuqori takalluf va tarixiylik jihatdan nutq odobida yaxlitlangan tasvirni berish uchun ishlatilgan. Undov so‘zdan keyin kelayotgan *xoqoni olam* leksik birligi undov so‘z egasining ijtimoiy quyi bo‘g‘in vakili ekanligini ko‘rsatmoqda. Bunday vaziyatda yozuvchi muomalaning etiket tarziga ko‘tarilgan hamda davriy til va nutqiy jarayonlarda yaxlitlangan lisoniy birliklarni qo‘llashga majbur bo‘ladi. Bu undov birliklarini o‘zining ijodiy erkinligidan kelib chiqib almashtira olmaydi. Zamonaviy badiiy matnlarda ham bu kabi kuchli iltifotni ko‘rsatish maqsadida *o* undov so‘zi ishlatilishi kuzatiladi: *– **O,** Matlubaxonim! Salomlar, salomlarim bo‘lsin! Qarang, niyatning xolisligini, bugun o‘ylab turuvdim.* (T.Malik, “Shaytanatning jin ko‘chalari”).

Yozuvchining bu o‘rinda qo‘llagan *o* undov so‘zida kuchli hurmatdan ko‘ra, shunchaki iltifot yoki so‘zlashuv nutqi odobini ko‘rsatishni ifodalayapti. Undov so‘zning o‘zgaruvchan ma’no qirralari undov so‘zdan keyin qo‘llanayotgan lisoniy birlikning aytilish ohangiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu vaziyatda bu undov so‘zda piching, shama, yolg‘on, kibr, mensimaslik kabi ma’no kengayishi kuzatilmoqda. Bu kabi

nutqiy aktlarda personajlarning yashirin va qabariq xarakter qirralari undov so‘z ishtirok etgan replikalarda yanada ravshanlashadi.

O‘quvchining asar qahramonlarining ma’naviy qiyofasi haqidagi yakuniy qarorlarga kelishida bu kabi undov so‘zning amaliy ahamiyati juda katta hisoblanadi. Bu o‘rinda *o* undov so‘zini *iye, oho, voy, e* kabi undov so‘z bilan ham o‘zgartirib qo‘llash mumkin bo‘ladi.

“Hissiyotlar tabiatini tahlil qilishning keng tarqalgan usullaridan biri, ularni tashqi nutqda maxsus til vositalari hamda nutq mexanizmlari yordamida verballashuvi”ni tahlil etishdir [11;54]. Ovozlantirilayotgan undov so‘zning ma’no qirrasi shu undov so‘zni qanday ohangda aytilayotgani va undov so‘zdan keyin kelayotgan leksik birliklarga tushayotgan ustsegment (ohang, urg‘u, sintagma kabi) birliklarning ahamiyati bilan bog‘liq.

qilinadi. Ushbu yondashuv keyinchalik Kovi va Hovart tadqiqotlarida ingliz frazeologiyasi materiallari asosida davom ettirilgan. Mazkur maktabda asosiy e'tibor birliklarning barqarorlik darajasi, kompozitsionligi, tahlil qilinishi va idiomatiklik darajasiga qaratiladi. Shu sababli "restricted collocation", "figurative idiom" va "pure idiom" kabi kategoriyalar shakllangan. An'anaviy yondashuvning ustun jihati shundaki, u kollokatsiyalarni tasniflash, ularning erkin birikmalar va idiomalar bilan munosabatini ko'rsatish uchun qulay terminologik asos yaratadi. Biroq bu yondashuvda kollokatsiya ko'pincha "cheklangan", "to'liq kompozitsion bo'lmagan" yoki "arbitrar" birlik sifatida baholanadi. Natijada kollokatsiyaning nutqiy vaziyat, kognitiv tajriba va semantik ramka bilan bog'liq jihatlari yetarlicha yoritilmaydi. Poulsen aynan shu jihatni tanqid qilib, klassik kategoriyalash modelining tabiiy til birliklaridagi darajalanish va chegaralarning noaniqligini to'liq tushuntira olmasligini ko'rsatadi.

Yangi Firs maktabi yondashuvi kollokatsiyani, avvalo, real matndagi takroriy birga kelish hodisasi sifatida talqin qiladi. Bu yo'nalishda Sinkler, Halliday va Stabs ishlari muhim ahamiyatga ega. Ular til birliklarini alohida-alohida emas, balki matn, kontekst va leksik-grammatik tanlovlar tizimi ichida o'rganishni taklif qiladilar. Korpus yondashuvi kollokatsiyalarni subyektiv sezgi asosida emas, balki katta hajmdagi matnlar orqali aniqlashga imkon beradi. Shunga qaramay, faqat chastota yoki birga kelish ko'rsatkichi kollokatsiyaning semantik motivatsiyasini to'liq ochib bermaydi. Masalan, birikmaning tez-tez uchrashi uning kognitiv jihatdan qanday shakllangani, komponentlar o'rtasidagi semantik munosabat qanday qurilgani yoki fe'lning yordamchi funksiyaga yaqinlashgan-yaqinlashmaganini izohlab bera olmaydi. Shu bois korpus ma'lumotlari sifat tahlili, freym semantikasi va kognitiv grammatika bilan birgalikda qo'llangandagina samarali natija beradi.

Kognitiv lingvistika kollokatsiyalarni arbitrar birlik emas, balki motivatsiyalangan, tajribaga asoslangan va konseptual tuzilmalarga bog'langan birlik sifatida ko'radi. Langakerning kognitiv grammatika nazariyasida murakkab birliklar tarkibiy qismlarning mexanik yig'indisi emas, balki ularning o'zaro integratsiyasi natijasida yuzaga keladigan kompozit tuzilma sifatida talqin qilinadi. Lakof esa ma'no har doim ham qismlar yig'indisidan oldindan to'liq bashorat qilinmasligini, biroq ko'pincha motivatsiyalangan bo'lishini ta'kidlaydi. Filmorning freym semantikasi bu masalada muhim nazariy asos beradi. Unga ko'ra, so'z yoki birikma ma'lum bir bilim tuzilmasini, ya'ni freymni faollashtiradi. Fe'l + ot tipidagi kollokatsiyalarda ot ko'pincha asosiy semantik ramkani chaqiradi, fe'l esa shu ramkaning muayyan jihatini profillashtiradi. Poulsenning *break an appointment* birikmasi bo'yicha tahlili ham aynan shuni ko'rsatadi. Bunday kollokatsiyada *appointment* dominant freymni faollashtiradi, *break* esa ushbu freymdagi buzish, bekor qilish yoki majburiyatni bajarmaslik kabi harakat aspektini ifodalaydi.

Funksional yondashuv esa kollokatsiyalarni til tizimidagi tayyor birlik sifatida emas, balki muloqot ehtiyojiga xizmat qiluvchi nutqiy resurs sifatida izohlaydi. Bu nuqtayi nazardan kollokatsiyalar so'zlovchiga tanish vaziyatlarni tez va aniq ifodalashga, tinglovchiga esa ma'lum semantik ramkani darhol anglashga yordam beradi. Demak, kollokatsiyaning barqarorligi faqat odat yoki cheklanish natijasi emas, balki kommunikativ samaradorlik bilan bog'liq hodisadir. An'anaviy frazeologik yondashuv kollokatsiyalarni tasniflashga kuchli e'tibor beradi. Bu yondashuv idiomalar, erkin birikmalar va cheklangan kollokatsiyalar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatish uchun foydalidir. Biroq u ko'pincha kollokatsiyani to'liq kompozitsionlikdan og'ish sifatida ko'radi. Korpus yondashuvi kollokatsiyalarni empirik dalillar asosida aniqlaydi. Uning kuchli tomoni real nutq materialiga tayanishi. Zaif tomoni esa chastotani semantik izoh bilan almashtirib qo'yish xavfidir.

Kognitiv-funksional yondashuv kollokatsiyalarni ma'no, tajriba, freym, prototip va nutqiy vazifa bilan bog'liq holda talqin qiladi. Bu yondashuv kollokatsiyalarning nima uchun barqarorlashishini va qanday semantik motivatsiyaga ega ekanini chuqurroq tushuntiradi. Shu sababli mazkur maqola uchun eng maqbul nazariy asos kognitiv-funksional yondashuv hisoblanadi. Mavjud adabiyotlarda bir nechta muhim muammo haligacha to'liq yechim topmagan. Birinchidan, erkin birikma, ochiq kollokatsiya, cheklangan kollokatsiya va idioma o'rtasidagi chegaralar doimo aniq emas. Ikkinchidan, kompozitsionlik, tahlil qilinish va semantik motivatsiya ko'pincha bir-biriga yaqin tushunchalar sifatida ishlatiladi, holbuki, ular alohida mezonlar sifatida tahlil qilinishi kerak. Uchinchidan, fe'l + ot tipidagi kollokatsiyalarda fe'lning to'liq leksik birlikmi yoki yordamchi/support-verb funksiyasiga ega birlikmi ekanini aniqlash masalasi ochiq qolmoqda. To'rtinchidan, ingliz tilidagi kollokatsiyalarni o'zbek tili nuqtayi nazaridan o'rganish, tarjima qilish va o'qitish bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. Shu jihatdan, ushbu maqola ingliz tilidagi fe'l + ot tipidagi kollokatsiyalarni faqat tasniflash obyekti sifatida emas, balki freym, prototip, barqarorlashuv va funksional tanlov bilan bog'liq murakkab til hodisasi sifatida tahlil qilishga qaratildi. Bu esa mavjud adabiyotlardagi tasviriy yondashuvni izohli-kognitiv tahlil bilan to'ldirish imkonini beradi.

Metodlar. Tadqiqotda ingliz tilidagi fe'l + ot tipidagi kollokatsiyalarni funksional-kognitiv yondashuv asosida o'rganish maqsad qilindi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz frazeologiyasi va kollokatsiya

nazariyasiga oid ilmiy qarashlar, xususan, Firs maktabi, yangi Firs maktabi korpus yondashuvi, an'anaviy frazeologiya hamda kognitiv grammatika doirasidagi nazariy manbalar tanlandi. Maqolada kollokatsiyalar faqat leksik birliklarning birga kelishi sifatida emas, balki nutqiy vaziyat, semantik ramka, konseptual tajriba va grammatik tanlov bilan bog'liq murakkab til hodisasi sifatida talqin qilindi. Tadqiqotning nazariy asosi J.R. Firs tomonidan ilgari surilgan kollokatsiya konsepsiyasiga borib taqaladi. Firs til birliklarining ma'nosi ularning odatiy qo'llanish muhiti bilan bog'liq ekanini ko'rsatib, so'zning semantik imkoniyatlarini uning boshqa so'zlar bilan muntazam birga kelishi orqali aniqlash mumkinligini asoslagan [14;15]. Ushbu qarash keyinchalik M. A. K. Halliday va J. Sinkler tadqiqotlarida rivojlantirilgan. Halliday leksik tanlov va grammatik qurilish o'rtasidagi bog'liqlikni funksional tilshunoslik nuqtayi nazaridan izohlagan bo'lsa, Sinkler korpus lingvistikasi asosida kollokatsiyalarni real matnlarda takrorlanuvchi birliklar sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatgan [17;18;28].

Tadqiqotda an'anaviy frazeologik yondashuv ham muhim metodologik manba sifatida hisobga olindi. Kovi, Howart va Mun tadqiqotlarida kollokatsiyalar erkin birikmalar, cheklangan kollokatsiyalar va idiomatik birliklar oralig'idagi frazeologik birliklar sifatida tavsiflanadi [9;19;24]. Ushbu yondashuv kollokatsiyalarning barqarorlik, takroriylik, kompozitsionlik va idiomatiklik darajasini aniqlash imkonini beradi. Biroq mazkur maqolada kollokatsiyalarni faqat "cheklangan" yoki "arbitrar" birlik sifatida ko'rish yetarli emasligi nazarda tutildi. Chunki fe'l + ot tipidagi birikmalarda komponentlar o'rtasidagi semantik munosabat, freymga bog'liqlik va nutqiy vazifa alohida tahlilni talab qiladi. Metodologik jihatdan tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-nazariy, komponent tahlil, freym tahlili va funksional-kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod kollokatsiya tushunchasining ilmiy adabiyotlarda qanday talqin qilinganini izohlashga xizmat qildi. Qiyosiy-nazariy metod orqali Firs maktabi, an'anaviy frazeologik, korpus va kognitiv yondashuvlar o'zaro solishtirildi. Komponent tahlil yordamida fe'l + ot strukturali kollokatsiyalarda fe'l va otning semantik vazifalari alohida ko'rib chiqildi. Bunda ot komponentining ko'pincha asosiy semantik maydonni faollashtirishi, fe'l komponentining esa shu maydon doirasida muayyan harakat yoki holat aspektini profillashtirishi inobatga olindi.

Kognitiv tahlil uchun R. Langakerning kognitiv grammatika nazariyasi asosiy nazariy tayanchlardan biri sifatida olindi. Langakerga ko'ra, murakkab til birliklari tarkibiy qismlarning oddiy yig'indisi emas, balki ular o'rtasidagi konseptual integratsiya natijasida hosil bo'ladigan kompozit tuzilmadir [22;23]. Shu nuqtayi nazardan fe'l + ot kollokatsiyalari ham faqat grammatik bog'lanish emas, balki komponentlarning o'zaro semantik moslashuvi va nutqiy tajribada barqarorlashuvi natijasi sifatida qaraldi. Freym tahlilida C. J. Filmor tomonidan ishlab chiqilgan freym semantikasi nazariyasiga tayanildi. Filmorga ko'ra, til birligi ma'lum bir bilim tuzilmasini yoki vaziyat modelini faollashtiradi [11;12]. Ushbu yondashuv fe'l + ot tipidagi kollokatsiyalarni tahlil qilishda ayniqsa muhimdir, chunki bunday birikmalarda ot ko'pincha dominant freymni yuzaga chiqaradi, fe'l esa shu freym ichidagi muayyan harakat, buzilish, bajarish, boshlash yoki yakunlash kabi semantik jihatni belgilaydi.

Tadqiqotda prototipik kategoriyalash nazariyasi ham qo'llanildi. Rosh tomonidan ishlab chiqilgan prototip nazariyasi tabiiy til birliklarini qat'iy chegaralangan kategoriyalar sifatida emas, balki markaziy va periferik a'zolarga ega bo'lgan darajalangan tuzilmalar sifatida talqin qilish imkonini beradi [26:328-350; 27:192-233]. Taylor bu yondashuvni lingvistik kategoriyalar tahliliga tatbiq etib, ma'no va grammatik birliklarning doimo qat'iy chegaralarga ega emasligini ko'rsatadi [31]. Shu sababli maqolada kollokatsiyalar erkin birikma va idioma o'rtasidagi qat'iy oraliq birlik sifatida emas, balki prototipik xususiyatlari turlicha namoyon bo'ladigan frazeologik-kognitiv hodisa sifatida tahlil qilindi. Korpus yondashuvi tadqiqotda yordamchi metod sifatida ko'rib chiqildi. Sinklerning korpusga asoslangan tadqiqotlari kollokatsiyalarni real nutq materiallari asosida aniqlashga imkon beradi [28]. Biroq maqolada chastota yakuniy mezon sifatida emas, balki sifat tahlilini qo'llab-quvvatlovchi dalil sifatida baholandi. Chunki kollokatsiyaning ko'p uchrashi uning semantik motivatsiyasi, freymga bog'liqligi yoki funksional vazifasini to'liq izohlab bera olmaydi. Tahlil jarayoni uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda kollokatsiya tushunchasining Firs maktabi talqinlari, frazeologik va korpus yondashuvlaridagi talqinlari umumlashtirildi. Ikkinchi bosqichda fe'l + ot tipidagi kollokatsiyalarning tarkibiy-semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda ushbu kollokatsiyalarning funksional-kognitiv xususiyatlari, ya'ni freymga bog'liqligi, prototipikligi, barqarorlashuvi va nutqiy resurs sifatidagi vazifasi izohlandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fe'l + ot tipidagi ingliz kollokatsiyalarini faqat so'zlarning odatiy birga kelishi sifatida talqin qilish yetarli emas. Bunday birliklar leksik tanlov, grammatik qurilish va semantik freymning o'zaro bog'lanishi natijasida shakllanadi. Firs [14;15] tomonidan ilgari surilgan kollokatsiya haqidagi qarashlar til birliklarining ma'nosi ularning odatiy qo'llanish muhiti bilan bog'liq ekanini asoslaydi. Bu yondashuvga ko'ra, so'zning ma'nosi faqat lug'aviy izoh orqali emas, balki uning qanday birliklar bilan birga kelishi orqali ham aniqlanadi. Halliday [16;17]

ushbu fikrni funksional tilshunoslik doirasida rivojlantirib, leksika va grammatika o‘rtasini qat’iy ajratish emas, balki ularning nutqdagi o‘zaro aloqasini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, fe’l + ot kollokatsiyalari grammatik shakl va leksik mazmun birlashadigan birliklar sifatida talqin qilinadi. Masalan, *make a decision*, *take responsibility*, *break an agreement*, *launch a campaign* kabi birikmalarda fe’l grammatik jihatdan harakatni bildirsa-da, semantik markaz ko‘pincha ot komponenti orqali yuzaga chiqadi. Bunda ot muayyan vaziyat yoki tushuncha maydonini faollashtiradi, fe’l esa shu vaziyatning harakat aspektini belgilaydi.

Sinkler [28] ning korpus lingvistikasi bo‘yicha qarashlari kollokatsiyalarni real nutqiy material asosida aniqlash imkonini beradi. Korpus yondashuvi kollokatsiyaning takroriylik xususiyatini ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. Biroq natijalar shuni ko‘rsatadiki, chastota kollokatsiyaning to‘liq izohi bo‘la olmaydi. Birikma ko‘p uchrashi mumkin, ammo uning nima sababdan barqarorlashgani, tarkibiy qismlar qanday semantik munosabatga kirishgani va nutqda qanday funksional vazifa bajarayotgani alohida izohni talab qiladi. Shu sababli korpus ma’lumotlari kognitiv va funksional tahlil bilan to‘ldirilishi zarur. An’anaviy frazeologik yondashuvda Kovi [9], Hovart [19] va Mun [24] kollokatsiyalarni erkin birikmalar va idiomalar oralig‘idagi birliklar sifatida tavsiflaydi. Ushbu qarash kollokatsiyalarni tasniflash uchun qulay asos beradi. Biroq mazkur yondashuvda kollokatsiyalar ko‘pincha “cheklangan”, “arbitrar” yoki “to‘liq kompozitsion bo‘lmagan” birlik sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari esa bunday baholash bir tomonlama ekanini ko‘rsatadi. Chunki kollokatsiya tarkibidagi cheklanish ko‘pincha tasodifiy emas, balki nutqiy tajriba, semantik freym va kommunikativ ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘ladi.

Kognitiv grammatika bu masalani chuqurroq tushuntirish imkonini beradi. Langaker [22; 23] ning fikricha, murakkab til birliklari tarkibiy qismlarning oddiy yig‘indisi emas, balki ularning o‘zaro konseptual integratsiyasi natijasida yuzaga keladigan kompozit tuzilmalardir. Bu fikr fe’l + ot kollokatsiyalariga bevosita tatbiq etiladi. Masalan, *break an appointment* tipidagi birlikda *break* va *appointment* alohida-alohida ma’no bildiradi, biroq ular birikkanida “kelishilgan uchrashuv yoki majburiyatning buzilishi” kabi yaxlit semantik talqin hosil qiladi. Demak, kollokatsiya ma’nosi to‘liq oldindan bashorat qilinmasa-da, u mutlaqo arbitrar ham emas. Filmor [11; 12] ning freym semantikasi ushbu xulosani yanada asoslaydi. Freym yondashuviga ko‘ra, til birligi ma’lum bilim tuzilmasini faollashtiradi. Fe’l + ot kollokatsiyalarida ot ko‘pincha dominant freymni yuzaga chiqaradi. Masalan, *appointment*, *agreement*, *promise*, *decision*, *responsibility* kabi otlar ijtimoiy munosabat, majburiyat, kelishuv yoki qaror qabul qilish bilan bog‘liq freymlarni faollashtiradi. Fe’l esa ushbu freym ichida bajarish, buzish, boshlash, yakunlash yoki qabul qilish kabi harakatni profillashtiradi. Shuning uchun bunday kollokatsiyalarda semantik markaz faqat fe’lda emas, balki fe’l va otning o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi.

Rosh [26; 27] va Teylor [31] tomonidan ishlab chiqilgan prototipik kategoriyalash nazariyasi kollokatsiyalarni qat’iy chegaralangan guruhlar sifatida emas, balki markaziy va periferik a’zolarga ega bo‘lgan darajalangan birliklar sifatida tushuntirishga imkon beradi. Masalan, *make a decision* yoki *take responsibility* kabi birikmalar support-verb konstruksiyalarining markaziyroq namunasi bo‘lishi mumkin, chunki ularda fe’l semantik jihatdan umumiylashgan. *break an appointment* yoki *launch a campaign* kabi birliklarda esa fe’l nisbatan aniqroq semantik yuklamaga ega bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, ular ham barqarorlashgan kollokatsion birlik sifatida qaraladi. Baybi [6] til birliklarini leksik birlikdan grammatik birlikgacha bo‘lgan kontinuum sifatida talqin qiladi. Bu qarash fe’l + ot kollokatsiyalarida fe’lning leksik va grammatik vazifalari o‘rtasidagi oraliq holatini tushuntirishga yordam beradi. Baron va Herslund [5: 99-116] support-verb konstruksiyalarida fe’l umumiy harakat ma’nosini bildirishi, asosiy semantik mazmun esa ot orqali shakllanishini ta’kidlaydi. “FrameNet” yondashuvida ham frame-bearing noun, ya’ni freymni faollashtiruvchi ot tushunchasi muhim o‘rin tutadi; bunda ot dominant freymni beradi, fe’l esa shu freymdagi harakatni tashkil qiladi.

Svitser [30: 389-405] grammatikalashuvni ma’noning yo‘qolishi sifatida emas, balki konkret tajriba sohasidan mavhumroq konseptual sohaga ko‘chishi sifatida izohlaydi. Bu fikr fe’l + ot kollokatsiyalaridagi fe’llarning support-verb funksiyasiga yaqinlashishini tushuntirishda muhimdir. Masalan, *break* fe’li fizik obyektni sindirish ma’nosidan tashqari, ijtimoiy kelishuv, majburiyat yoki tartibning buzilishi kabi mavhum holatlarni ham ifodalay oladi. Bu esa kollokatsiyalarda metaforik kengayish va grammatikalashuv jarayonlari o‘zaro bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Umuman, natijalar shuni ko‘rsatadiki, fe’l + ot kollokatsiyalari ingliz tilida tayyor birlik sifatida mavjud bo‘lish bilan birga, ular nutqiy tanlov, semantik freym, prototipik kategoriyalash va funksional ehtiyoj asosida shakllanadigan murakkab lisoniy hodisadir. Shuning uchun bunday birliklarni faqat frazeologik tasnif doirasida emas, balki funksional-kognitiv tahlil asosida o‘rganish ularning ichki tuzilishi va kommunikativ ahamiyatini chuqurroq ochib beradi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi fe’l + ot tipidagi kollokatsiyalarni faqat tayyor leksik birikma yoki tez-tez uchraydigan so‘z qo‘shilmasi sifatida izohlash yetarli emas. Bunday

birliklar leksik tanlov, grammatik qurilish, semantik freym va nutqiy tajribaning o‘zaro bog‘liqligi asosida shakllanadi. Firs kollokatsiyani so‘zlarning odatiy birga kelishi bilan bog‘lagan bo‘lsa, Halliday va Sinkler bu hodisani funksional va korpus yondashuvi orqali izohlaydi [14; 16; 28]. An’anaviy frazeologik yondashuvda kollokatsiyalar erkin birikmalar va idiomalar oralig‘idagi birlik sifatida qaraladi [9; 19; 24]. Biroq bunday yondashuv ularning semantik motivatsiyasi va kognitiv asoslarini to‘liq ochib bera olmaydi. Langakerning kognitiv grammatika nazariyasiga ko‘ra, murakkab til birliklari tarkibiy qismlarning oddiy yig‘indisi emas, balki konseptual integratsiya natijasidir [22]. Fillmorening freym semantikasi esa fe’l + ot kollokatsiyalarida ot dominant semantik freymni faollashtirishi, fe’l esa shu freym ichidagi muayyan harakat yoki holatni profillashtirishini ko‘rsatadi [11]. Shu asosda *make a decision*, *take responsibility*, *break an appointment* kabi kollokatsiyalar arbitrar emas, balki nutqiy ehtiyoj, semantik ramka va kognitiv tajriba bilan motivatsiyalangan birliklar sifatida talqin qilinadi. Rosch va Taylorning prototip nazariyasi esa bunday birliklarni qat’iy chegaralangan sinflar emas, balki darajali kategoriyalar sifatida o‘rganish imkonini beradi [26: 31]. Umuman, fe’l + ot kollokatsiyalarini funksional-kognitiv yondashuv asosida tahlil qilish ularning shakliy barqarorligi, semantik tuzilishi va kommunikativ vazifasini chuqurroq tushuntirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘qitish, tarjima amaliyoti, akademik yozuv va kollokatsion lug‘atlar tuzishda amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Alexander R.J. Fixed expressions in English: A linguistic, psycholinguistic, sociolinguistic and didactic study. – Trier: Linguistic Agency University of Trier, 1978.

2. Alexander R.J. Problems in understanding and teaching idiomaticity in English // Anglistik und Englischunterricht. - 1987. - № 32. - P. 105-122.

3. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1963.

4. Baranov A.N., Dobrovol’skij D.O. Idiomaticity and text: A cognitive approach // Idioms: Structural and psychological perspectives / Eds. M. Everaert, E.-J. van der Linden, A. Schenk, R. Schreuder. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1996. - P. 121-144.

5. Baron I., Herslund M. Support verb constructions as predicate formation // Studies in Valency I / Ed. L. Schøsler. – Odense: Odense University Press, 1998. - P. 99-116.

6. Bybee J. Morphology: A study of the relation between meaning and form. – Amsterdam: John Benjamins, 1985.

7. Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. The evolution of grammar: Tense, aspect, and modality in the languages of the world. – Chicago: University of Chicago Press, 1994.

8. Cowie A.P. The place of illustrative material and collocations in the design of a learner’s dictionary // In honour of A.S. Hornby / Ed. P. Strevens. – Oxford: Oxford University Press, 1978. - P. 127-139.

9. Cowie A.P. Phraseology: Theory, analysis, and applications. – Oxford: Oxford University Press, 1998.

10. Cowie A.P. English dictionaries for foreign learners: A history. – Oxford: Oxford University Press, 1999.

11. Fillmore C.J. Frame semantics // Linguistics in the morning calm. – Seoul: Hanshin, 1982. - P. 111-137.

12. Fillmore C.J. Frames and the semantics of understanding // Quaderni di Semantica. - 1985. - Vol. 6. - P. 222-255.

13. Fillmore C.J., Atkins B.T.S. Starting where the dictionaries stop: The challenge of corpus lexicography // Computational approaches to the lexicon / Eds. B.T.S. Atkins, A. Zampolli. – Oxford: Oxford University Press, 1994. - P. 349-393.

14. Firth J.R. Papers in linguistics 1934-1951. – London: Oxford University Press, 1957.

15. Firth J.R. A synopsis of linguistic theory 1930-1955 // Selected papers of J.R. Firth 1952-1959 / Ed. F.R. Palmer. – London: Longman, 1968. - P. 168-205.

16. Halliday M.A.K. Lexis as a linguistic level // In memory of J.R. Firth / Eds. C.E. Bazell, J.C. Catford, M.A.K. Halliday, R.H. Robins. – London: Longman, 1966. - P. 148-162.

17. Halliday M.A.K. An introduction to functional grammar. 2nd ed. – London: Edward Arnold, 1994.

18. Halliday M.A.K., Matthiessen C.M.I.M. Construing experience through meaning: A language-based approach to cognition. – London: Continuum, 1999.

19. Howarth P.A. Phraseology in English academic writing: Some implications for language learning and dictionary making. – Tübingen: Max Niemeyer, 1996.

20. Johnson C.R., Fillmore C.J., Wood E.J., Ruppenhofer J., Urban M., Petruck M.R.L., Baker C.F. The FrameNet Project: Tools for lexicon building // International Journal of Lexicography. - 2003.

21. Lakoff G. Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987.

22. Langacker R.W. Foundations of cognitive grammar. Volume I: Theoretical prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987.

23. Langacker R.W. Grammar and conceptualization. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1999.

24. Moon R. Fixed expressions and idioms in English: A corpus-based approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998.

25. Poulsen S. Collocations as a language resource: A functional and cognitive study in English phraseology: PhD dissertation. – University of Southern Denmark, 2005.

26. Rosch E. Natural categories // Cognitive Psychology. - 1973. - Vol. 4, № 3. - P. 328-350.

27. Rosch E. Cognitive representations of semantic categories // Journal of Experimental Psychology: General. - 1975. - Vol. 104, № 3. - P. 192-233.

28. Sinclair J.M. Corpus, concordance, collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991.

29. Stubbs M. Text and corpus analysis: Computer-assisted studies of language and culture. – Oxford: Blackwell, 1996.

30. Sweetser E.E. Grammaticalization and semantic bleaching // Proceedings of the Fourteenth Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society. - 1988. - P. 389-405.

31. Taylor J.R. Linguistic categorization: Prototypes in linguistic theory. 2nd ed. – Oxford: Clarendon Press, 1995.

32. Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977.

UDC 81

ONOMASTIC SPACE

Koziyeva Ikbol Komiljonovna,
PhD lecturer, Department of Russian Language and Literature
Bukhara State University Faculty of Philology

Abstract. *This article examines the issues of the entire diversity of the world of things, real, imaginary and hypothetical created by man. It also talks about common names (as generalizing) and proper names (as highlighting individual objects) of a person's close attention. The universe around us is the universal substance. The world, which is infinite for cognition, can be called the Absolute Universe, and the area of it that is accessible to people is the Universe "for us." The paper gives an idea of the classification of realities – all things, considers the categories of areas of the Absolute Universe that are accessible to man.*

Keywords: *onomastics, anthroponymics, onyms, proper names, The universe, the surrounding world, classification, term, individual names, group anthroponymy.*

ОНОМАСТИЧЕСКОЕ ПРОСТРАНСТВО

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы всего многообразия мира вещей, реального, воображаемого и гипотетического, созданного человеком. Также говорится об именах нарицательных (как обобщающих) и собственных (как выделяющих отдельные объекты) пристального внимания человека. Вселенная вокруг нас - это универсальная субстанция. Мир, который бесконечен для познания, можно назвать Абсолютной Вселенной, а та его часть, которая доступна людям, - это Вселенная «для нас». В статье даётся представление о классификации реальностей – всего сущего, рассматриваются категории областей Абсолютной Вселенной, которые доступны человеку.*

Ключевые слова: *ономастика, антропонимика, онимы, имена собственные, Вселенная, окружающий мир, классификация, термин, индивидуальные имена, групповая антропонимия.*

ONOMASTIK MAKON

Annotatsiya. *Atrofimizdagi koinot universal moddadir. Bilish uchun cheksiz bo'lgan dunyoni Mutlaq olam deb atash mumkin, va uning odamlar uchun ochiq bo'lgan hududi "biz uchun" koinotdir. Markazida bo'lgan umumiy nomlar (umumlashtiruvchi sifatida) va tegishli nomlar (alohida obyektlarni ajratib ko'rsatish) haqida gapiradi. Atrofimizdagi koinot universal moddadir. Bilish uchun cheksiz bo'lgan dunyoni Mutlaq olam deb atash mumkin, va uning odamlar uchun ochiq bo'lgan hududi "biz uchun" koinotdir. Maqolada voqeliklarning tasnifi, ya'ni barcha narsalar haqida tushuncha berilgan, Mutlaq olamning inson uchun ochiq bo'lgan sohalari toifalari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, antroponimika, onimlar, tegishli nomlar, koinot, atrofdagi dunyo, tasnif, atama, individual nomlar, guruh antroponimiyasi.*

Introduction. All the diversity of the world of things, real, imaginary and hypothetical, is the primary one, given from the outside or created by man, for which names are needed: common (as generalizing) and proper (as highlighting individual objects) deserving of special human attention.

The universe around us is the universal substance. The world, which is infinite for cognition, can be called the Absolute Universe, and the area of it that is accessible to people is the Universe "for us."

Analysis of thematic literature. The first known classification of realities–of all things capable of having names–belongs to Aristotle. They were allocated 10 categories, or predicates, among them: Substantia, Quantitas, Qualitas, Actio, etc. Considering these categories, J. S. Mill (1865) noted their inconsistency, since some things (mental and psychic perceptions and manifestations) are omitted in them, while others allow the possibility of inclusion in different headings. When proposing his classification, J. S. Mill first of all distinguished things that exist and non-existent. [2, c.145]

The analysis of real and imaginary things is combined with the analysis of the words that exist to denote them.

Onomastic (V.N. Toporov – toponomastic) space is created on the basis of a real, fictional and hypothetical Universe "for us" as selectively as the name of objects in the real world. Naturally, the most

fragmented part of the verbal substance correlates with a range of subjects that are closest and necessary to a person.

In different eras and in different countries, people have distinguished and individualized various things, sometimes not similar to each other. So, it was customary to give people individual names, as if always, in all collectives and societies. Even in cases where people, such as American Indians, address each other as "my friend", "my brother", "my nephew", "my brother's sister", etc., each of them has an individual name, which for some reason is not customary to use. But animals do not always and not all nations receive individual nicknames.

In addition to the names of real, folklore, legendary or mythological objects, the onomastic space also includes the names of erroneously identified and hypothetical objects: Sannikov Land, Lieutenant Kizhe, Atlantis, planet Phaeton. For onomastics as a whole, it does not matter whether the named object exists in reality or only in people's fantasies. But the nature of the connection of the name with the denotation changes from this.

The names of hypothetical objects cannot relate either to objects (since the existence of the latter has not been proven) or to images (because the latter vary over an extremely wide range and lack specificity). In this case, the name can only relate to the concept. In their morphology, they are similar to the names of real objects, cf. Antarctica, Taurida – Atlantis, Pacifida.

Historical onomastics stand out: the names of long-dead people, the names of long-defunct settlements, etc. They fill the "depth" of the onomastic space, while their place depends on the significance of the denotation. There are names (Julius Caesar, Alexander Macedonian, Nero), which are relevant even for a synchronous onomastic cut, and there are names of lesser-known persons, even if they lived in a time closer to our days, they remain passive and relevant only for the chronological cut that corresponds to the dates of their lives.

This case cannot be put on a par with the mythonyms, where there is no object and the image is associated with the concept. There was a real object here, and the image that acts as a substitute for it is initially associated with the object. An image is formed during a person's lifetime from his real qualities and characteristics and is associated with an object using a name.

The continuum, which is an onomastic space with its diverse filling in different epochs and among different peoples, is available in full view only to those who are specifically interested in it. The onomastic space available to an individual includes different areas of it, but only in a fragmentary form.

The individual areas into which onomastic space is divided can be designated according to the named objects as toponymy, anthroponymy, mythonymy, zoonymy, chrematonymy, astronomy, etc. Onomastic fields can be allocated within these areas. The names included in each field represent a system (or complex of systems), each member of which is linked to the others by a number of parameters: territory, time, theme, etc. The proper names that make up each field are systemic. The systems of adjacent territories and epochs smoothly merge into each other. A breakdown in continuity is noted with a sharp change of epochs, accompanied by a change in the state language and political, religious, onomastic, etc. orientation, as well as in territories separated by a state border for a long time if the population on both sides of it speaks different languages.

Thus, the onomastic space can be conditionally divided:

1) the names of real objects;

2) the names of fictional objects;

3) the names of hypothetical objects [3, c.47]

Names in works of art occupy an intermediate position between the names of real and fictional objects, because: a) their denotations are constructed based on the experience of an artist, writer, musician, but do not necessarily exist in reality; b) they are created based on models of names of real or unreal objects, taking into account their belonging to a certain onomastic field.

The description and analysis of proper names is impossible without a certain classification, which is either invisibly present. In onomastic work, it is used as a kind of platform by the author, or it is specially introduced by him to clearly distinguish phenomena. Note, however, that until now, only toponyms have been classified in more or less detail.

Research methodology. When classifying onomastic material, it is possible to proceed from the affiliation of names to certain languages, territories, chronological periods, social formations, etc. Depending on this, the approach to the material, the methods of studying it, and the depth of coverage will vary.

Taking into account the linguistic and extralinguistic characteristics of names, the following types of classification can be distinguished (without claiming to be exhaustive):

1. Classification of names in connection with named objects (subject-nominative).

2. Naturally occurring and artificially created names. This classification is closely related to the classification of names by their purpose and to the dichotomy of "names in official and unofficial use."

3. Classification along the line of "micro" – "macro".

4. Structural classification of names.

5. Chronological classification of names.

6. Classification of names in connection with motivation and the etymological classification adjacent to it (also the division of names into appellative and eponymous, primary and "transferred").

7. Classification of names in relation to the volume of concepts fixed in them.

8. Classification in connection with the language–speech dichotomy.

9. Stylistic and aesthetic classification. All of these aspects (and perhaps others, undetected) are inherent in each name and can act as its characteristic. One characteristic may be more relevant for some types of names, while another may be more relevant for others. It should be noted that these characteristics are very diverse in their properties: some of them are linguistic, others are logical, others are historical, others are social, others are psychological, but all of them are reflected in onomastics.

Of all possible classifications, the subject-nominative one should be put in the first place, since correlation with the subject, as a rule, determines the "face" of the name and its other characteristics.

A. Bach (1952) divides proper names in connection with designated objects.:

1) the names of living beings or beings who are considered alive;

2) the names of things that include localities, houses, vehicles, works of fine art, names of astrographic and space objects;

3) the names of institutions, societies;

4) the names of actions: dances, games;

5) the names of thoughts, ideas: literary works, military plans, etc.;

6) names of musical motifs and works

Analysis and results. Despite the fact that anthroponyms refer to naming people and only people, this single object provides an extremely complex range of categories of names, which is related to cultural history, human psychology, traditions, and many others. [5, c.112]

Individual anthroponyms. They distinguish a person from a team. The ethnographic diversity in the traditions associated with personal naming makes it difficult to establish a common classification for the names of all peoples and puts on the agenda the most careful study and description of the rituals of naming or changing names where it is practiced. The division of onomastic systems of different peoples into homonymous, two-name, three-name, etc. can hardly be considered a classification with good reason. In addition, local unofficial anthroponymic systems may be completely different from each other when the names are recorded in official documents. An important role here is played by the sequence of generations, which introduces a certain organization into the naming system. The study of the particular features of the onomastic system of each nation reveals interesting facts related to its history and ethnography, and provides a lot of material for further research.

Group anthroponyms. These include generic, family, and dynastic names, whose denotations are groups of people distinguished by various characteristics. The most ancient of the listed units is the genus. Generic names are usually the words singularia tantum: Wolf, Fox. Surnames, i.e. family names, are the immediate successors of generic names. However, unlike the latter, the surnames are pluralia tantum words: Ivanovs, Zaitsevs, Peskovskys. Dynastic names are very similar in their linguistic properties to family names: Romanovs, Habsburgs, Bourbons, The Ptolemies, etc. The use in the singular, as well as the use in the singular of ordinary surnames, indicates that it refers to a separate representative of the family in question, called an individual anthroponym.

Zoonyms are the names of various animals, birds, etc. – a special department of onomastics with its own traditions, which vary in a significant range among different peoples and in different eras. The group names of animals given to the entire species are known from Arabic zoonymy: all hyenas are Qutham, one of the snake species is ibn Fitrah, and so on. Individual names (nicknames) of domestic and wild animals have significant differences. Wild animals usually do not receive systematic, regularly given nicknames. In artificial conditions, individual wild animals receive individual nicknames in zoos and nature reserves. At the same time, the national principle is often maintained: the animal receives a nickname reminiscent of its homeland. Naming pets has its own, sometimes very deep traditions. Here, the moment of special cultivation and individualization becomes very important. International dog breeding traditions, dog shows, and the specialization of dogs in connection with various services (hunting, search, indoor, etc.) have created, for example, peculiar naming traditions for dogs of various breeds with different national orientations and with their own specific motivations. The most widespread animals – sheep, pigs, and poultry - usually do not have

individual nicknames. In zoonymy, as in anthroponymy, there are official (passport) and unofficial (everyday) forms of names (horse Hyacinth – Gesha, horse Rocket – Paradise, Capital – Kapa, etc.). Both zoonyms and anthroponyms form regional onomastic systems.

Mythonymy is a kind of sector of the onomastic space, created like a real part of it. It includes names of people, animals, plants, peoples, geographical and cosmographic objects, various objects, etc., which in reality never existed. A special place in it is occupied by theonymy (names of gods), which is most vividly represented in polytheistic religions, and demononymy (naming various spirits, higher and lower, good and evil). Bits of information about earlier stages of human history can be gleaned from mythonyms. In addition, many theonyms or their elements are part of anthroponyms and other types of proper names, and without special study, their onomastic studies would be incomplete and chronologically inaccurate.

Conclusions and suggestions. Thus, the onomastic space can be divided into peculiar sectors, within which separate zones or fields are distinguished. This division is objectively necessary, since the entire onomastic space as a whole is difficult to see. However, the approach to division can be different due to not only objective, but also subjective reasons, which are determined both by factors of public order and the personality of the researcher.

REFERENCES:

1. Begmatov E. A. The meaning of the names of Uzbekistan references (dictionary). 14 600 names isoxi.2nd edition. - Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan (dictionary), 2007. — 608 r.

2. Bondaletov, V.D. Russian onomastics / V.D. Bondaletov. – M.: Prosveshchenie, 1983. – 224 p.

3. Ermolich D.I. Proper names between languages and cultures.-M.: R.Valent, 2001.

4. Kurilovich, E. The position of the proper name in the language / E. Kurilovich // Essays on linguistics. – M. : Publishing House of foreign Languages. liters, 1962. – pp. 251-266.

5. Superanskaya, A.V. General theory of proper names / A.V. Superanskaya. – 2nd ed., ispr. – M. : LKI Publishing House, 2007. - 368 p.

6. Petrovsky N.A. Dictionary of Russian personal names.-M.: Publishing House Soviet Encyclopedia, 1966.

7. Koziyeva I. K. the history of the development of russian anthroponymy //международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – т. 3. – №. 3.

8. Koziyeva I. K. The Boundaries of Onomastic Vocabulary 10th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Istanbul, Turkiye, 2025, pp. 1563-1568, doi: 10.1109/UBMK67458.2025.11206932.

UDC 81

DEPICTION OF «SPIRITUAL VALUES» IN UZBEK LANGUAGE MEDIA ARTICLES

Barotova Saodat Uktamovna,
Bukhara State University
Teacher of English linguistics department
s.u.barotova@buxdu.uz

Abstract. *This article presents a comprehensive analysis of the mechanisms through which the concept of "spiritual values" is expressed in Uzbek-language mass media sources: Uzbekistan TV Yoshlar (Youth) Channel (television), Hurriyat newspaper (print media), and the @Manaviyat_uz Telegram channel alongside the @yoshlar_uz Instagram account (social media). The study applies a combined methodological framework comprising N. Fairclough's Critical Discourse Analysis (CDA), T. van Dijk's news discourse model, R. Entman's framing theory, and G. Lakoff and M. Johnson's conceptual metaphor theory. The findings reveal that the concept is expressed through modal-obligation frames on television, sacralisation strategies and metaphorical structures in print media, and hashtag-mediated ambient affiliation mechanisms on digital platforms — all of which systematically reinforce national-spiritual identity.*

Keywords: *spiritual values, concept, media discourse, Critical Discourse Analysis, framing theory, conceptual metaphor, social media, Uzbek national identity.*

O'ZBEK TILIDAGI MEDIA MATNLARDA "MA'NAVIY QADRIYATLAR" KONSEPTINING REPREZENTATSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi OAV manbalari: "O'zbekiston" TV, "Yoshlar" kanali, "Hurriyat" gazetasi va @Manaviyat_uz Telegram kanali hamda @yoshlar_uz Instagram akkaunti asosida "Ma'naviy qadriyatlar" konseptining ifodalanish mexanizmlari keng qamrovli tahlil etiladi. Tadqiqotda N.Faircloughning tanqidiy diskurs tahlili (CDA), T. van Dikning yangilik diskursi modeli, R. Entmanning freymlashtirish nazariyasi va G. Lakoff hamda M. Johnsonning kontseptual metafora nazariyasi birlashtirildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, konsept televideniyada modal-majburiyat freymlari, matbuotda muqaddaslashtirish strategiyalari va metaforik tuzilmalar, raqamli platformalarda esa hashteglar orqali milliy-ma'naviy identitetni mustahkamlash mexanizmlari vositasida ifodalanadi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy qadriyatlar, konsept, OAV diskursi, tanqidiy diskurs tahlili, freymlashtirish nazariyasi, kontseptual metafora, ijtimoiy media, o'zbek milliy identiteti.*

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА „ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ" В УЗБЕКОЯЗЫЧНЫХ МЕДИАТЕКСТАХ

Аннотация. *В данной статье проводится комплексный анализ механизмов выражения концепта «духовные ценности» в узбекоязычных медиаисточниках: телеканале «Ёшлар» Узбекистана, газете «Хуррият», Telegram-канале @Manaviyat_uz и Instagram-аккаунте @yoshlar_uz. В исследовании применяется комбинированная методологическая база, включающая критический дискурс-анализ Н. Фэркло, модель новостного дискурса Т. ван Дейка, теорию фреймирования Р. Энтмана и теорию концептуальной метафоры Дж. Лакоффа и М. Джонсона. Результаты показывают, что концепт выражается через модально-обязательные фреймы на телевидении, стратегии сакрализации и метафорические структуры в печатных СМИ, а также механизмы хэштег-опосредованной аффилиации на цифровых платформах.*

Ключевые слова: *духовные ценности, концепт, медиадискурс, критический дискурс-анализ, теория фреймирования, концептуальная метафора, социальные медиа, узбекская идентичность.*

Introduction. Uzbek-language mass media constitutes a decisive semiotic space for the formation, dissemination, and consolidation of the concept of "spiritual values" in the national consciousness. This space is not merely a channel of information transmission — it simultaneously performs the functions of constructing national identity, legitimising social norms, and ensuring moral-spiritual continuity between generations. As Islam Karimov defined it, "spirituality is the soul, the unique spirit and image of a person, a nation, a society. " Uzbek media texts systematically express, reproduce, and transmit precisely this "soul" to succeeding generations.

The present article offers a comprehensive analysis of the mechanisms through which the concept of ”spiritual values” is expressed across three Uzbek-language media sources: Uzbekistan TV Yoshlar (Youth) Channel (television), Hurriyat newspaper (print media), and the @Manaviyat_uz Telegram channel and @yoshlar_uz Instagram account (social media). As Shavkat Mirziyoyev has emphasised, ”elevating spiritual-educational work to a new level” is a priority direction of state policy — and this political context is directly reflected in Uzbek media texts.

The selection of these media sources is grounded in the following scholarly criteria: (1) degree of representativeness within the Uzbek media landscape across diverse genres and formats; (2) systematic coverage of material relating to the concept of ”spiritual valuesv; (3) audience reach and level of influence; (4) availability of current material from 2024.

Table 1. Uzbek-Language Media Sources Selected for the Study

Source Type	Name	Format / Focus	Audience	Material Analysed
Television	Uzbekistan TV — Yoshlar (Youth) Channel	State / Spiritual-educational orientation	Millions of viewers	”Youth and Spirituality” roundtable discussion (March 2024)
Newspaper	Hurriyat newspaper	Socio-political weekly publication	~85,000 copies (circulation)	Articles, January–April 2024 (n=14)
Social Media	Telegram: @Manaviyat_uz Instagram: @yoshlar_uz	Digital / Youth audience	340,000+ subscribers	Posts with #manaviyat, #milliyqadriyat hashtags (n=200+)

Main Body

1. Television Discourse: Uzbekistan TV Yoshlar Channel

The Yoshlar (Youth) Channel of the National Television and Radio Company of Uzbekistan is the most active platform with a spiritual-educational orientation in Uzbek television. Two programs were selected as primary television materials for this study: the roundtable discussion on “Youth and Spirituality” broadcast on 15 March 2024, and the special program “Preserving National Values — the Duty of Us All’’ aired on 3 April 2024. These programs vividly illustrate how the concept of “spiritual values” is expressed within Uzbek television discourse.

Analysis of the program texts reveals that the concept of “spiritual values” is expressed through a distinctive modal-obligation frame: constructions such as “must be preserved”, “it is necessary to instill”, “ it is imperative to educate”, and “it is our duty” present the concept not merely as descriptive but as normative. According to Layoff and Johnson's conceptual metaphor theory, these modal constructions rest on a cognitive schema that conceptualizes spiritual values as a “fortress” requiring defense or as “seeds” that must be sown. As Barthes observed, the naturalization of such obligation modality is a primary marker of the mythologisation process.

The composition of participants in the Uzbekistan TV roundtable also plays a significant role in establishing the conceptual frame: a teacher, a clergyman, a psychologist, and a youth representative are all presented at the same table within a single program. This multidisciplinary participation performs the integrative function of what Solganik termed “social language”: showing representatives of different fields united in the same position on “spiritual values” confers on the concept the status of an inevitable truth endorsed from all sides. The presuppositional mechanism operates powerfully here — the question “How should spiritual values be preserved?” pre-establishes the presupposition that “values are under threat”, channeling the entire discussion within the frame of confirming this assumption.

7. Mughal, S., Faizy, R.M. and Saadabadi, A. (2025). Autism Spectrum Disorder (Regressive Autism, Child Disintegrative Disorder). [online] PubMed. Available at: https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK525976/.

8. O'Connor, K. (2012). Auditory processing in autism spectrum disorder: A review. Neuroscience & Biobehavioral Reviews, 36(2), pp.836–854. doi:https://doi.org/10.1016/j.neubiorev.2011.11.008.

9. Rosenblau, G., Kliemann, D., Dziobek, I. and Heekeren, H.R. (2016). Emotional prosody processing in Autism Spectrum Disorder. Social Cognitive and Affective Neuroscience, 12(2), p.nsw118. doi:https://doi.org/10.1093/scan/nsw118.

10. Shriberg, L.D., Potter, N.L. and Strand, E.A. (2011). Prevalence and Phenotype of Childhood Apraxia of Speech in Youth With Galactosemia. Journal of Speech, Language, and Hearing Research, 54(2), pp.487–519. doi:https://doi.org/10.1044/1092-4388(2010/10-0068).

11.STERPONI, L. and SHANKEY, J. (2013). Rethinking echolalia: repetition as interactional resource in the communication of a child with autism. Journal of Child Language, 41(2), pp.275–304. doi:https://doi.org/10.1017/s0305000912000682.

12.Tiippana, K. (2014). What is the McGurk effect? Frontiers in Psychology, [online] 5(725). doi:https://doi.org/10.3389/fpsyg.2014.00725.

UO‘K 81

MATN DAVRINI ANIQLASH UCHUN YIG‘ILGAN MATNLARNI OLDINDAN QAYTA ISHLASH BOSQICHLARI

Alayev Ruhillo Habibovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
alayev_r@nuu.uz
Kenjayeva Marjona Baratovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti
mkenjayeva274@gmail.com

Annotatsiya. *Matnni oldindan qayta ishlash kompyuter lingvistikasi (NLP) va sun’iy intellekt modellarini yaratishdagi eng muhim va poydevor bosqich hisoblanadi. Mashinalar inson tilini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuna olmasligi sababli, xom va tartibsiz ma’lumotlarni algoritm tushunadigan, toza va standartlashtirilgan formatga o‘tkazish talab etiladi. Ushbu maqolada matnni tahlilga tayyorlashning asosiy qadamlari tizimli ravishda tadqiq qilingan. Xususan, raqamli matnlarni asosiy mazmunga aloqador bo‘lmagan texnik shovqinlardan (HTML teglar, URL manzillar va hokazo) tozalash , so‘zlar chastotasini to‘g‘ri hisoblash uchun bir xil registrga o‘tkazish , yaxlit matnni eng kichik ma’noli qismlarga ajratuvchi tokenizatsiya jarayoni hamda matnning semantik ma’nosiga ta’sir qilmaydigan tinish belgilarini olib tashlash usullari yoritilgan. Shuningdek, model e’tiborini faqat asosiy so‘zlarga qaratish maqsadida o‘zida mustaqil leksik ma’no tashimaydigan stop-so‘zlarni qisqartirish hamda matn o'zagini aniqlashda stemming va lemmatizatsiya usullarining o‘ziga xos farqlari ochib berilgan. Maqola yakunida ushbu jarayonlarning xom matnga ta’siri qiyosiy jadval yordamida dalillangan. Ushbu material matn tahlili va NLP modellarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar va dasturchilar uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *matn semantikasi, matnni oldindan qayta ishlash, kompyuter lingvistikasi, sun‘iy intellekt modellari, shovqinlardan tozalash, tokenizatsiya jarayoni, stop-so‘zlarni olib tashlash, stemming va lemmatizatsiya, xom ma‘lumotlarni standartlashtirish, morfologik tahlil.*

ЭТАПЫ ПРЕДВАРИТЕЛЬНОЙ ОБРАБОТКИ КОРПУСА ТЕКСТОВ ДЛЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПЕРИОДА СОЗДАНИЯ ТЕКСТА

Аннотация. *Предварительная обработка текста является одним из важнейших и фундаментальных этапов в области компьютерной лингвистики (NLP) и разработки моделей искусственного интеллекта. Поскольку машины не способны непосредственно понимать человеческий язык, возникает необходимость преобразования необработанных и неструктурированных данных в чистый и стандартизированный формат, понятный алгоритмам. В данной статье систематически исследованы основные этапы подготовки текста к анализу. В частности, рассмотрены методы очистки цифровых текстов от технического шума, не связанного с основным содержанием (HTML-теги, URL-адреса и др.), приведения слов к единому регистру для корректного подсчёта их частотности, процесс токенизации, разделяющий сплошной текст на минимальные смысловые единицы, а также способы удаления знаков препинания, не влияющих на семантическое содержание текста. Кроме того, освещены методы удаления стоп-слов, не несущих самостоятельной лексической нагрузки, с целью сосредоточения внимания модели на ключевых словах, а также раскрыты различия между методами стемминга и лемматизации при определении основы слова. В заключение статьи влияние указанных этапов на необработанный текст подтверждено с помощью сравнительной таблицы. Представленный материал может служить важным руководством для исследователей и разработчиков, занимающихся анализом текстов и созданием моделей обработки естественного языка.*

Ключевые слова: *семантика текста, предварительная обработка текста, компьютерная лингвистика, модели искусственного интеллекта, очистка от шума, токенизация, удаление стоп-слов, стемминг и лемматизация, стандартизация необработанных данных, морфологический анализ.*

TEXT PREPROCESSING STAGES FOR A TEXT CORPUS USED IN TEXT PERIOD IDENTIFICATION

Abstract. *Text preprocessing is one of the most fundamental and essential stages in Natural Language Processing (NLP) and the development of artificial intelligence models. Since machines cannot directly understand human language, raw and unstructured textual data must be transformed into a clean and standardized format that can be effectively processed by computational algorithms. This paper systematically examines the key stages of text preprocessing. In particular, it discusses methods for removing technical noise unrelated to the main content of digital texts (such as HTML tags and URLs), converting text into a uniform letter case for accurate word frequency analysis, tokenization for splitting continuous text into meaningful units, and the removal of punctuation marks that do not affect semantic meaning. Furthermore, the study describes the elimination of stop words, which carry little independent lexical meaning, in order to focus the model on informative terms. It also explains the fundamental differences between stemming and lemmatization in identifying the lexical root of words. Finally, the impact of these preprocessing stages on raw text is demonstrated through a comparative table. The presented material serves as a valuable reference for researchers and software developers engaged in text analysis and the development of NLP models.*

Keywords: *text semantics, text preprocessing, computational linguistics, artificial intelligence models, noise removal, tokenization, stop-word removal, stemming and lemmatization, raw data standardization, morphological analysis.*

Kirish. Hozirgi kunda kompyuter lingvistikasi (NLP) va sun‘iy intellekt jadal rivojlanib bormoqda, biroq mashinalar inson tilini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunish qobiliyatiga ega emas. Tabiiy til informatsion jihatdan boy, lekin ayni paytda ma‘lumotlar bazasi yoki mashinali o‘qish uchun o‘ta tartibsiz tuzilmaga ega bo‘lganligi sababli, xom matnni tozalab, tahlilga tayyor holatga keltirish muhim zarurat hisoblanadi. Axborot asrida kundan-kunga ortib borayotgan ulkan hajmdagi matnli ma‘lumotlarni (masalan, ijtimoiy tarmoq postlari, ilmiy maqolalar, yangiliklar) to‘g‘ri va aniq tahlil qilish bevosita matnga qay darajada sifatli dastlabki ishlov berilganiga bog‘liq. Matnni oldindan qayta ishlash (Text Preprocessing) NLP modellarini yaratishdagi eng muhim va poydevor bosqichdir. Bu jarayon xom va tartibsiz ma‘lumotlarni algoritm tushunadigan, toza va standartlashtirilgan formatga o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Odatda, har qanday raqamli matn o‘zida turli xil texnik "shovqinlar" va asosiy mazmunga aloqador bo‘lmagan belgilarni saqlaydi, bu esa sun‘iy intellektning matn mazmunini to‘g‘ri anglashiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, matndagi ortiqcha va chalg‘ituvchi elementlarni bartaraf etish kompyuter modellarining aniqligini hamda semantik axborotni o‘zlashtirish tezligini sezilarli darajada oshiradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – matnni tahlilga tayyorlashning standart qadamlarini tizimli ravishda yoritib berishdan iborat. Maqolada xom matn ustida olib boriladigan asosiy amallar: shovqinlardan tozalash, kichik harflarga o‘tkazish, tokenizatsiya, tinish belgilarini tozalash, stop-so‘zlarni olib tashlash hamda stemming va lemmatizatsiya kabi jarayonlar ketma-ketlikda tahlil qilinadi. Bu jarayonlarni to‘g‘ri amalga oshirish har qanday matn tahliliga asoslangan arxitekturaning tezligi, aniqligi va umumiy samaradorligini kafolatlaydi.

Adabiyotlar sharhi. Jahon miqyosida kompyuter lingvistikasi va sun‘iy intellekt modellarida matnni dastlabki ishlovdan o‘tkazishning ahamiyati ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan e‘tirof etilgan. Xususan, J.Camacho-Collados va M. T. Pilehvar o‘zlarining ilmiy ishlarida neyron to‘rlar arxitekturasida matnni oldindan qayta ishlashning tutgan o‘rnini chuqur tahlil qilganlar va bu bosqichning dastur samaradorligidagi muhimligini asoslab berganlar [1:1-7]. Shuningdek, matnni tahlilga tayyorlashning poydevor qoidalari, tokenizatsiya va lemmatizatsiya jarayonlari D. Jurafsky va J. H. Martin kabi olimlarning jahon miqyosida tan olingan fundamental asarlarida o‘zining batafsil ilmiy tasdig‘ini topgan [7:15-28]. Bunga qo‘shimcha sifatida, C. D. Manning va uning hammualliflari axborot qidiruv tizimlari arxitekturasida stop-so‘zlarni tozalash va stemming usullarining qanday ishlashini amaliy matematik modellar yordamida isbotlab berishgan [8:21-30].

O‘zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi va matnlarni avtomatik qayta ishlash masalalari N.Abdurahmonova, A. Rahimov, A. Po‘latov kabi yetakchi olimlarimiz tomonidan ham chuqur tadqiq etilib, milliy NLP bazasini yaratish bo‘yicha muhim qadamlar tashlanmoqda. Jumladan, olima N. Z. Abdurahmonova o‘zining tadqiqotlarida o‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlashning (NLP) fundamental asoslarini tizimli ravishda yoritib bergan [2:24-28]. Bunga qo‘shimcha ravishda, A. Rahimovning ilmiy ishlarida ham kompyuter lingvistikasining nazariy va amaliy poydevor tamoyillari keng ko‘rib chiqilgan [4:15-19]. Milliy NLP doirasidagi amaliy dasturlar, korpus lingvistikasi va matnni avtomatik qayta ishlash vositalarini yaratishda B. Elov, Sh. Hamroyeva hamda R. Alayev kabi izlanuvchilarning hissalari beqiyosdir.

Professor B.Elov hamda Sh. Hamroyeva rahbarligida o‘zbek tilining milliy va parallel korpuslarini yaratish, matnlarni morfologik hamda semantik tahlil qilish tizimlarini ishlab chiqish doirasida fundamental qadamlar tashlangan [5:37-41]. Ularning tadqiqotlari natijasida axborot-qidiruv tizimlari (shuningdek, Google, Yandex kabi tizimlar) uchun o‘zbek tilining morfoleksikoni va maxsus morfologik analizator dasturlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu esa xom matnni tozalash va to‘g‘ri tokenizatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqotchi R. Alayevning ilmiy yondashuvlari esa o‘zbek tilining o‘ziga xos agglyutinativ xususiyatlarini hisobga olgan holda axborot izlash tizimlari uchun mustaqil stemmer (o‘zakni ajratib oluvchi) modellarini ishlab chiqish hamda ma‘lumotlar bazalarini tahlil qilish masalalariga qaratilgani bilan ilmiy ahamiyatga ega [6:12-18].

Ushbu jarayonlarni kompyuter dasturlari yordamida avtomatlashtirishda M. A. Abjalovaning o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qiluvchi dasturlarning lingvistik ta‘minoti va avtomatik morfologik tahlil bo‘yicha olib borgan izlanishlari alohida e‘tiborga loyiq [9:45-52]. Bunga parallel ravishda, matnli hujjatlardan semantik axborot va bilimlarni ajratib olishning amaliy mexanizmlari borasida F. E. Qodirov tomonidan olib borilgan izlanishlar ham muhim ilmiy yechimlarni taqdim etadi. Uning ilmiy tadqiqotlarida tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlari yordamida matnli hujjatlardan bilimlarni avtomatik ajratib olish jarayonlari batafsil tahlil qilingan [3:129-130]. Shuningdek, matnni dastlabki qayta ishlash amaliyotini bevosita kompyuter tarjimasi, tezaurus lug‘atlari va semantik ma‘lumotlar bazalarini yaratish bilan bog‘liq holda tadqiq etgan olimlar qatorida M.Xudayberganova ishlarini ham alohida ta‘kidlash lozim. Uning izlanishlarida o‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrir qilish, fe‘l shakllari va maxsus lingvistik terminlarni to‘g‘ri ajratish uchun matnga dastlabki ishlov berish algoritmlari chuqur o‘rganilgan [10:14-18]. Bunga qo‘shimcha ravishda, o‘zbek tilidagi tabiiy tilni qayta ishlash modellarida POS-tegging (so‘z turkumlarini belgilash) va maxsus arxitekturalarda tokenlarni to‘g‘ri ajratish masalalari O. Abdullayeva hamda M. Uzoqovalar tomonidan ham ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo‘lib, bu bevosita xom matnni tozalash va standartlashtirish bosqichining samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatadi [11:55-60].

Ushbu olimlarning ilmiy xulosalari shuni aniq ko‘rsatadiki, yuqori aniqlikdagi tahlil natijalariga erishish va modelni to‘g‘ri o‘qitish uchun dastlabki xom matnni turli shovqinlardan tozalash, qoliplarga solish hamda algoritm tushunadigan standartlashtirilgan formatga keltirish barcha keyingi muvaffaqiyatli qadamlarning asosi va ajralmas qismi hisoblanadi.

Metodologiya. Matnni qayta ishlash jarayoni xom va tartibsiz ma‘lumotlarni algoritm tushunadigan, toza va standartlashtirilgan formatga o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Odatda, bu jarayon quyidagi standart qadamlardan iborat bo‘ladi:

1. Shovqinlardan tozalash (Noise Removal) Har qanday raqamli matn o‘zida keraksiz ma‘lumotlarni saqlashi mumkin. Bu bosqichda matn asosiy mazmunga aloqador bo‘lmagan texnik "shovqinlar"dan tozalanadi.

- HTML va XML teglarini olib tashlash (ayniqsa, veb-saytlardan olingan matnlarda).
- URL manzillar, elektron pochta qutisi nomlari va ijtimoiy tarmoq belgilarini (masalan, @ foydalanuvchi nomlari) tozalash.
- Matndagi ortiqcha bo‘shliqlar (probellar) va qator tashlash belgilarini bittaga qisqartirish.

2. Kichik harflarga o‘tkazish (Lowercasing) Kompyuter uchun "Maktab", "MAKTAB" va "maktab" so‘zlari uchta turli xil belgi sifatida qabul qilinadi. Modellar so‘zlarning chastotasini to‘g‘ri hisoblashi uchun barcha matn bir xil registrga – kichik harflarga o‘tkaziladi.

3. Tokenizatsiya (Tokenization) Bu matnni tahlil qilish uchun eng kichik va ma‘noli qismlarga (tokenlarga) ajratish jarayonidir.

- Gaplarga ajratish (Sentence tokenization): Yaxlit matnni alohida gaplarga bo‘lish.
- So‘zlarga ajratish (Word tokenization): Gaplarni alohida so‘zlarga va tinish belgilariga ajratib chiqish.

4. Tinish belgilari va maxsus belgilarni olib tashlash Aksariyat NLP vazifalarida (masalan, matn mavzusini aniqlashda) vergul, nuqta, so‘roq belgisi kabi tinish belgilari matnning semantik ma‘nosiga unchalik ta‘sir qilmaydi. Shuning uchun ular lug‘at hajmini kattalashtirmasligi uchun olib tashlanadi.

5. Stop-so‘zlarni olib tashlash (Stop-words Removal) Har bir tilda nutqni bog‘lash uchun xizmat qiladigan, ammo o‘zida mustaqil leksik ma‘no tashimaydigan so‘zlar mavjud. O‘zbek tilida va, yoki, bilan, uchun, ammo kabi bog‘lovchi va ko‘makchilar stop-so‘zlar hisoblanadi. Ularni olib tashlash orqali model faqatgina matnning mazmunini tashuvchi asosiy so‘zlarga e‘tiborini qaratadi.

6. Stemming va Lemmatizatsiya Bu bosqichda so‘zlarga qo‘shilgan turli xil affikslar (qo‘shimchalar) olib tashlanib, so‘zning asosiy o‘zagi topiladi. Ular ikkiga bo‘linadi:

• Stemming: So‘zning oxirini qat‘iy qoidalar asosida kesib tashlaydi. Bu tez ishlaydi, lekin ba‘zida ma‘nosiz o‘zaklar hosil qilib qo‘yishi mumkin (masalan, ishchilar -> ishchi o‘rniga ishch deb kesishi mumkin).

• Lemmatizatsiya: Bu ancha aqlli usul bo‘lib, tilning morfologik lug‘atidan foydalanadi va so‘zni to‘g‘ri boshlang‘ich (lug‘aviy) shakliga qaytaradi (masalan, odamlar -> odam , borayapman -> bormoq).

1-jadval. Bosqichlarning qiyosiy jadvali

Jarayon	Vazifasi	Matn misolida (Xom matn: "Mening mashinam juda tez yuradi!!!")
Lowercasing	Kichik registrga o‘tkazish	"mening mashinam juda tez yuradi!!!"
Punctuation removal	Tinish belgilarini tozalash	"mening mashinam juda tez yuradi"
Tokenizatsiya	So‘zlarga bo‘lish	["mening", "mashinam", "juda", "tez", "yuradi"]
Stop-words removal	Keraksiz so‘zlarni kesish	["mashinam", "tez", "yuradi"]
Lemmatizatsiya	O‘zakni ajratish	["mashina", "tez", "yurmoq"]

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, matnni oldindan qayta ishlash (Text Preprocessing) kompyuter lingvistikasi (NLP) va sun‘iy intellekt modellarini yaratishdagi eng muhim va poydevor bosqich hisoblanadi. Mashinalar inson tilini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunmagani uchun, xom matnni tozalab, tahlilga tayyor holatga keltirish muhim talabdir. Xom matnlarni hech qanday ishlovsiz bevosita tahlilga tortish tizimning xato ishlashiga, xotira hajmining keraksiz to‘lishiga va umuman, samarasiz natijalarga olib keladi. Maqola davomida ko‘rib chiqilgan shovqinlardan tozalash, kichik harflarga o‘tkazish, tokenizatsiya, tinish belgilarini tozalash, stop-so‘zlarni olib tashlash hamda stemming va lemmatizatsiya kabi standart qadamlarxom va tartibsiz ma‘lumotlarni algoritm tushunadigan, toza va standartlashtirilgan formatga o‘tkazishni ta‘minlaydi.

Ayniqsa, o‘zbek tili kabi agglyutinativ (qo‘shimchalar orqali so‘z yasaluvchi va o‘zgaruvchi) xususiyatga ega tillarda bu bosqichlarning, xususan, mustaqil stemmer va morfologik analizatorlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi axborot-qidiruv tizimlari hamda NLP modellarining aniqligini keskin oshiradi. Yakuniy natijada, sifatli qayta ishlangan ma‘lumotlar bazasi mashinali tarjima, matnni tasniflash, semantik tahlil va boshqa intellektual dasturlarning ishonchli hamda tezkor ishlashi uchun mustahkam poydevor yaratib beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Camacho-Collados J., Pilehvar M. T. On the Role of Text Preprocessing in Neural Network Architectures // arXiv preprint arXiv:1707.01780. – 2017. – B. 1-7.

2. Abdurahmonova N. Z. Kompyuter lingvistikasi: O‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) asoslari. – Toshkent: Noshir, 2021. – B. 24-28.

3. Qodirov F. E. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yordamida matnli hujjatlardan bilimlarni avtomatik ajratib olish // International scientific conferences. – 2023. – B. 129-130.

4. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 15-19.

5. Elov B., Hamroyeva Sh., Abdullayeva O., Xusainova Z., Xudayberganov N. O‘zbek, turk va uyg‘ur tillarida pos teglash va stemming // O‘zbekiston: til va madaniyat (Kompyuter lingvistikasi). – Toshkent, 2023. – 1(6)-son. – B. 40-64.

6. Raupova L. R., Elov B. B., Abjalova M. A., Alayev R. H. O‘zbek tilining ta‘limiy korpusi va uning imkoniyatlari // O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya. – Toshkent, 2021. – 4-son. – B. 37-41.

7. Jurafsky D., Martin J. H. Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition. – 3rd ed. draft. – Pearson, 2023. – B. 15-28.

8. Manning C. D., Raghavan P., Schütze H. Introduction to Information Retrieval. – Cambridge University Press, 2008. – B. 21-30.

9. Abjalova M. A. O‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qiluvchi dasturning lingvistik ta‘minoti. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 45-52.

10.Xudayberganova M. Kompyuter lingvistikasi va tezaurus tipidagi lug‘atlarni yaratishda lingvistik terminlarning ifodalanishi // MESAS konferensiyasi materiallari. – 2023. – B. 14-18.

11.Elov B., Abdullayeva O., Uzokova M. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da o‘zbek tili uchun POS-tegging masalasi: muammo va takliflar // ResearchGate materiallari. – 2022. – B. 55-60.

UDC 81.373.21:81'22

INTERTEXTUAL FUNCTIONS OF ALLUSION IN SHAKESPEARE'S HAMLET

Noralieva Kumush Murodkulovna,
Teacher of National University of Uzbekistan
kumushnuraliyeva9@gmail.com

Abstract. *This article examines three major types of allusions employed in the tragedy "Hamlet" by William Shakespeare including: biblical, mythological, and historical and a specific textual example is provided and analyzed for each type. The study illustrates how allusions function as a literary device to deepen characterization, expand thematic meaning, and connect the play to broader cultural and philosophical traditions. The findings confirm that allusion is central to the artistic richness of Hamlet and to Shakespeare's literary method as a whole. Furthermore, the analysis demonstrates that Shakespeare's use of allusions enriches readers' interpretation and strengthens the intellectual depth of the play.*

Keywords: *allusion, intertextuality, Hamlet, Shakespeare, biblical allusion, mythological allusion, historical allusion, literary device, Renaissance drama, dramatic technique.*

UILYAM SHEKSPIRNING "HAMLET" ASARIDA ALLYUZIYANING INTERTEKSTUAL FUNKSIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Uilyam Shekspirning "Hamlet" tragediyasida qo'llangan uchta asosiy allyuziya turini: bibliyaviy, mifologik va tarixiy allyuziyalarni aniq misollar bilan tahlil qiladi. Tadqiqot allyuziyalarning adabiy vosita sifatida qahramonlar xarakterini chuqurlashtirish, mavzuviy ma'noni kengaytirish va pyesani kengroq madaniy va falsafiy an'analar bilan bog'lashdagi rolini ko'rsatib beradi. Olingan natijalar allyuziyaning "Hamlet" asarining badiiy boyligi va Shekspirning umuman ijodiy metodining markaziy elementi ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, tahlil Shekspirning alluziyalardan foydalanishi o'quvchilarning asarni talqin qilishini boyitishi va asarning intellektual chuqurligini kuchaytirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *allyuziya, intertekstuallik, Hamlet, Shekspir, bibliyaviy allyuziya, mifologik allyuziya, tarixiy allyuziya, adabiy vosita, uyg'onish davri dramasi, dramatik usul.*

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ АЛЛЮЗИИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ШЕКСПИРА "ГАМЛЕТ"

Аннотация. *В этой статье рассматриваются три основных типа аллюзий, использованных в трагедии Уильяма Шекспира "Гамлет": библейские, мифологические и исторические, при этом для каждого типа приводится и анализируется конкретный текстуальный пример. Исследование показывает, как аллюзии функционируют в качестве литературного приёма, углубляющего характеристику персонажей, расширяющего тематическое значение произведения и связывающего пьесу с более широкими культурными и философскими традициями. Полученные результаты подтверждают, что аллюзия занимает центральное место в художественном богатстве "Гамлета" и в литературном методе Шекспира в целом. Кроме того, анализ показывает, что использование Шекспиром аллюзий обогащает восприятие читателей и усиливает интеллектуальную глубину произведения.*

Ключевые слова: *аллюзия, интертекстуальность Гамлет, Шекспир, библейская аллюзия, мифологическая аллюзия, историческая аллюзия, литературный приём, драма эпохи Возрождения, драматический приём.*

Introduction. Literature has always been closely connected with cultural, historical, and intellectual traditions, and writers often rely on references to previous texts, events, myths, and beliefs to enrich the meaning of their works. One of the most significant literary techniques used to establish such connections is allusion. Allusion refers to an indirect reference to a person, event, place, literary work, mythological figure, or religious concept that readers are expected to recognize through their background knowledge. Through allusions, authors create deeper layers of meaning, strengthen thematic development, and establish intertextual relationships between texts.

The concept of intertextuality has become an important field of literary studies because literary texts rarely exist in isolation. Every literary work is influenced by earlier traditions and simultaneously contributes to later interpretations and cultural discourse. Intertextuality emphasizes the relationship between texts and demonstrates how meanings are constructed through references and associations. William Shakespeare's works, particularly his tragedies, provide rich examples of intertextual elements that connect classical traditions, biblical narratives, historical events, and mythological symbolism.

Among Shakespeare's tragedies, *Hamlet* occupies a unique place due to its philosophical depth, psychological complexity, and artistic richness. Written around the beginning of the seventeenth century, the play explores fundamental themes such as revenge, morality, death, betrayal, identity, and human existence. Shakespeare does not present these themes directly; instead, he frequently employs allusions to expand the intellectual and emotional dimensions of the tragedy. Biblical, mythological, and historical references appear throughout the play and contribute significantly to the development of characters and themes.

The allusions found in *Hamlet* perform not merely decorative functions but serve as important intertextual devices that establish connections between the play and broader cultural traditions. For instance, biblical allusions emphasize moral and spiritual conflicts, mythological references deepen symbolic meanings and characterization, while historical allusions provide political and social context. Such references allow readers and audiences to interpret the text on multiple levels and reveal Shakespeare's ability to combine diverse cultural materials into a unified artistic structure[1].

The present study aims to examine the intertextual functions of allusion in Shakespeare's *Hamlet*, with particular attention to biblical, mythological, and historical allusions. The research seeks to analyze how these allusions operate within the text, contribute to characterization and thematic development, and enhance the literary complexity of the tragedy. By investigating these intertextual elements, the study intends to demonstrate that allusion is not simply a stylistic ornament but an essential component of Shakespeare's literary technique and artistic vision.

William Shakespeare's Hamlet is widely regarded as not only one of the greatest works in the history of world literature but also one of the definitive masterpieces of Renaissance literature, exploring a profound examination of revenge, existential dread, ethical decay, and the psychological determinants of human action.To articulate these complex existential crises, the play relies heavily on intricate literary devices, most notably allusion. As an intertextual signal, allusion demands a level of literary sophistication that not all authors choose to integrate into their works; however, in *Hamlet*, it emerges as a defining device that drives the enduring resonance of the play. An allusion functions as an intertextual marker which constitutes an explicit or implicit reference within a literary text to an external work, historical event, figure, or cultural tradition, predicated on the assumption that the audience possesses the relevant background knowledge to recognize and decode the marker. Thus, the device functions as a vehicle for textual condensation, allowing an isolated signifier to mobilize a complex framework of historical narratives and ethical imperatives.

The allusive framework of *Hamlet* derives from three primary textual repositories: the Bible, Greco-Roman mythology, as well as classical and contemporary history. Each type serves a distinct thematic purpose. While Biblical allusions ground the characters' moral dilemmas within a shared cultural framework of sin, guilt, and redemption, mythological references elevate these conflicts to a timeless, universal scale. Ultimately, historical references position the play within a broader cultural conversation regarding power, mortality, and political intrigue.

The present article undertakes to identify, classify, and analyze representative textual examples for each of the three identified allusion types, thereby illustrating the functional diversity of allusion as a device in Hamlet.

Literature review and methodology. The study implements a qualitative intertextual analysis approach, utilizing the complete text of William Shakespeare's *Hamlet* as its primary source material. The core research methodology relies on close reading and literary-stylistic analysis of selected passages including explicit or implicit intertextual markers. To decode these intertextual signals, the paper employs a semiotic and hermeneutic framework, examining how isolated signifiers activate broader cultural and historical narratives for the audience. Allusions were identified through cross-referencing the dramatic text with biblical, mythological, and historical sources documented in established literary studies, including works by Bloom (1998), Muir (1977), and Bradley (1904).

The classification framework adopted in this study distinguishes three major allusion types: biblical, mythological, and historical, depending on the ancestral realm of the textual echo. For each category, one representative example was selected on the basis of textual prominence, critical recognition, and functional significance within the dramatic narrative. The analysis focuses on identifying the source of each allusion,

explaining its contextual function, and assessing its contribution to characterization and thematic development [2].

Results. Exploring intertextual landscapes of William Shakespeare's Hamlet uncovers three distinct categories of allusion. To understand how these textual echoes operate, the study classifies them into biblical, mythological, and historical spheres, charting the precise ways they enrich the narrative and psychological atmosphere of the play.

It is evident that within the canon of Western literature, biblical allusions represent one of the most widespread and foundational forms of intertextuality and in the play also biblical allusions constitute the most frequently occurring intertextual register. Because the early modern audience possessed deep scriptural literacy, these signals instantly frame localized character actions in a macro-framework of universal moral and theological consequences.

For instance: The Allusion to Cain and Abel.

In Act III, Scene 3. King Claudius attempts to pray and confesses the true nature of his crime. His words contain a direct allusion to the first murder recorded in the *Bible* the killing of Abel by his brother Cain:

"O, my offence is rank, it smells to heaven; / It hath the primal eldest curse upon't /A brother's murder." (III.3.36–38). 2.[William Shakespeare, *Hamlet*, ed. Ann Thompson and Neil Taylor (London: Arden Shakespeare, 2006), III.3.36–38.]

The phrase "primal eldest curse" refers to the curse God placed upon Cain after he murdered his brother Abel (Genesis 4:11). By invoking this *allusion*, Shakespeare equates Claudius's fratricide with the archetypal act of human evil. The allusion establishes the theological gravity of Claudius's sin and explains why he is ultimately unable to find genuine repentance: just as Cain was marked and condemned, Claudius is spiritually trapped by his crime[3].

By turning to Greco-Roman mythology, Shakespeare holds a classic mirror to Renaissance life, casting contemporary human struggles in the timeless light of ancient myths. Mythological allusions in the play serve to elevate characters to heroic or symbolic status and to underscore the universal dimensions of the drama.

Example: The Allusion to Niobe. In Act I, Scene 2. Hamlet looks back with bitter sorrow at his mother's funeral tears, grief that seemed as boundless and inconsolable as the ocean, yet evaporated into the celebration of a hasty remarriage.

"...like Niobe, all tears..." (I.2.149). 3.[William Shakespeare, *Hamlet*, Act 1, Scene 2, line 149.]

In Greek myth, the weeping queen Niobe after losing all his sons, was turned into stone, her sorrow frozen into a perpetual stream of tears. Hamlet invokes this image of eternal grief only to weaponize it with sharp dramatic irony: unlike the enduring stone, Gertrude's tears evaporate within two months as she rushes to remarry. The allusion instantly exposes her mourning as a fleeting performance, anchoring Hamlet's deep psychological disillusionment.

By drawing on ancient Roman history, the Renaissance touchstone for political discourse, the historical allusions in Hamlet connect the Danish court to timeless narratives of power and betrayal. These markers instantly elevate a local courtly conflict into a universal commentary on political morality and human mortality.

Example: The Allusion to Brutus and Caesar

In Act III, Scene 2, As the court gathers for the play-within-a-play in Act III, Scene 2, Polonius invokes his early humanistic training, recalling a student performance in which he personified the iconic, betrayed figure of Julius Caesar...

"I did enact Julius Caesar. I was killed i' th' Capitol; Brutus killed me." (III.2.99–100) 4.[William Shakespeare, *Hamlet*, Act 3, Scene 2, lines 99–100.]

This brief exchange functions as a moment of sharp dramatic irony. By recalling his performance as Julius Caesar, Polonius inadvertently anticipates his own death he will soon be stabbed through an arras by Hamlet. It is apparent that Hamlet steps into the role of Brutus: a man driven by a moral duty to eliminate a corrupt ruler, only to trigger a chain of catastrophic consequences. Ultimately, Shakespeare uses this historical echo not as a clever joke, but as a structural device to highlight the dangerous moral complexity of political violence[3].

Discussion. The findings indicate that allusion in *Hamlet* operates on several levels simultaneously, functioning as a thematic framework, a tool of characterization, and a structural device. Examining these different functions demonstrates how Shakespeare depends on the interaction between the text and the audience's existing cultural knowledge.

The biblical allusion to Cain and Abel places Claudius's crime within a familiar moral and religious framework that Shakespeare's audience would have readily understood. This reference allows Shakespeare to communicate the seriousness of Claudius's guilt without extensive explanation, strengthening the audience's condemnation of the king and reinforcing the moral corruption associated with his character[4].

Similarly, the mythological allusion to Niobe serves a more subtle purpose. Its significance lies not only in audience recognition but also in the contrast it creates. As Niobe symbolizes endless grief, the comparison emphasizes the inadequacy and insincerity of Gertrude's mourning. This contrast intensifies Hamlet's disappointment in his mother and contributes significantly to the emotional and psychological complexity of his first monologue. The historical allusion to Brutus and Caesar performs an important structural function within the play. Introduced through an apparently casual conversation between Hamlet and Polonius, it acts as a form of anticipating the violence and moral conflicts that later unfold. Through this allusion, Shakespeare uses historical memory not merely as a decorative reference but as a means of exploring political violence, moral responsibility, and the unintended consequences of human actions[5].

Taken together, these examples illustrate that allusions used in *Hamlet* are not only ornamental, but also they are central components of Shakespeare's dramatic technique, enabling him to condense complex moral, psychological, and political ideas into compact images and references. By relying on the cultural knowledge of the audience to unlock these deeper meanings, Shakespeare creates a rich and layered dramatic experience. This economy of expression supports Bloom's view of Shakespeare's ability to portray psychologically and morally complex characters whose significance continues to transcend historical and cultural boundaries.

Conclusion. This study has revealed that s function as one of the most versatile and purposeful literary devices in Shakespeare's *Hamlet*. The three categories including biblical, mythological, and historical allusions each of which shows distinct yet interconnected roles within the play. Biblical allusions situate the moral conflicts of the drama within a theological framework, confronting characters and audiences alike with questions of sin, guilt, and divine justice. Mythological allusions elevate characters and events beyond their immediate context, linking them to universal archetypes and enduring patterns of human experience preserved in classical tradition. Historical allusions, meanwhile, ground the drama within broader traditions of political thoughts and philosophical reflections, reinforcing themes of power, mortality, and moral responsibility that were central to Renaissance culture.

Collectively, these allusions contribute to the remarkable depth and complexity of the play. They enable Shakespeare to communicate intricate moral, psychological, and political ideas with efficient use of language, relying on the cultural knowledge of the audience to activate deeper layers of meaning. For contemporary readers and scholars, the study of these allusions extends beyond the identification of literary sources; it provides a means of recovering the intellectual and cultural contexts that shaped the original reception of the play. Ultimately, *Hamlet* remains not only because of its psychological insight and dramatic power but also because its rich allusive framework connects the drama to fundamental human concerns that surpass historical and cultural boundaries. Through this interplay of literary, religious, and historical references, Shakespeare creates a work whose relevance and interpretive richness continue to resonate across generations.

REFERENCES:

1. *Harold Bloom, Shakespeare: The Invention of the Human 1998.*
2. *Kenneth Muir, The Sources of Shakespeare's Plays, 1977.*
3. *William Shakespeare, Hamlet, ed. Ann Thompson and Neil Taylor (London: Arden Shakespeare, 2006), III.3.36–38.*
4. *William Shakespeare, Hamlet, Act 1, Scene 2, line 149.*
5. *William Shakespeare, Hamlet, Act 3, Scene 2, lines 99–100.*
6. *Bloom, Harold. Shakespeare: The Invention of the Human. New York: Riverhead Books, 1998.*
7. *Bradley, A. C. Shakespearean Tragedy: Lectures on Hamlet, Othello, King Lear, Macbeth. London: Macmillan, 1904.*
8. *Frye, Northrop. Anatomy of Criticism: Four Essays. Princeton: Princeton University Press, 1957.*

UO‘K 81

INTERTEKSTUALLIK MUNOSABATLARI VA ULARNING TURLARI

Normamatov Farrux Komiljon o‘g‘li,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
normamatovfk@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada intertekstuallik munosabatlarining nazariy mohiyati, shakllanish manbalari, asosiy turlari va matndagi funksiyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Intertekstuallik matnning boshqa matnlar bilan ochiq yoki yashirin aloqaga kirishishi, avvalgi madaniy, adabiy, tarixiy va kommunikativ tajribalarni qayta talqin qilishi bilan izohlanadi. Maqolada M. Bakhtinning dialogizm nazariyasi, J. Kristevaning intertekstuallik konsepsiyasi, R. Barthesning matn va muallif haqidagi qarashlari hamda G. Genettening transtextuallik tasnifi nazariy asos sifatida o‘rganiladi. Shuningdek, iqtibos, allyuziya, reminissensiya, parafraza, parodiya, epigraf, paratekstual, metatekstual, arxitekstual va gipertekstual munosabatlar tavsiflanadi.*

Kalit so‘zlar: *intertekstuallik, matnlararo munosabat, iqtibos, alyluziya, reminissensiya, parodiya, transtextuallik, paratekst, gipertekst, dialogizm.*

INTERTEXTUAL RELATIONSHIPS AND THEIR TYPES

Abstract. *this article examines the theoretical essence, sources, major types and functions of intertextual relations in literary and non-literary texts. Intertextuality is understood as the ability of a text to enter into explicit or implicit relations with other texts and to reinterpret previous cultural, literary, historical and communicative experiences. The study is based on M. Bakhtin’s theory of dialogism, J. Kristeva’s concept of intertextuality, R. Barthes’s views on text and authorship, and G. Genette’s classification of transtextual relations. The paper discusses quotation, allusion, reminiscence, paraphrase, parody, epigraph, paratextuality, metatextuality, architextuality and hypertextuality.*

Keywords: *intertextuality, intertextual relations, quotation, allusion, reminiscence, parody, transtextuality, paratext, hypertext, dialogism.*

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ИХ ВИДЫ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретическая сущность, источники формирования, основные виды и функции интертекстуальных отношений в художественных и нехудожественных текстах. Интертекстуальность понимается как способность текста вступать в открытые или скрытые связи с другими текстами, а также переосмысливать прежний культурный, литературный, исторический и коммуникативный опыт. Теоретическую основу исследования составляют теория диалогизма М. Бахтина, концепция интертекстуальности Ю. Кристевой, взгляды Р. Барта на текст и авторство, а также классификация транстекстуальных отношений Ж. Женетта.*

Ключевые слова: *интертекстуальность, межтекстовые отношения, цитата, аллюзия, реминисценция, пародия, транстекстуальность, паратекст, гипертекст, диалогизм.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda matn alohida, mustaqil va yopiq birlik sifatida emas, balki boshqa matnlar, madaniy kodlar, tarixiy xotira va ijtimoiy tajribalar bilan bog‘liq murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin etiladi. Har qanday matn o‘zidan oldingi matnlar, janrlar, obrazlar, iboralar, mifologik va diniy manbalar, xalq og‘zaki ijodi, ilmiy qarashlar yoki ommaviy madaniyat unsurlari bilan bevosita yoki bilvosita aloqada bo‘ladi. Ana shu matnlararo bog‘lanish ilmiy adabiyotlarda intertekstuallik deb yuritiladi.

Intertekstuallik tushunchasi XX asr ikkinchi yarmida poststrukturalizm, semiotika, matn lingvistikasi va diskurs tahlili doirasida keng rivojlandi. Bu tushuncha matnning mazmuni faqat muallif niyati yoki alohida lingvistik birliklar orqali emas, balki u murojaat qiladigan boshqa matnlar tizimi orqali ham shakllanishini ko‘rsatadi. Shu ma’noda intertekstuallik matnning ichki semantik tuzilishini kengaytiradi, o‘quvchini avvalgi bilim va madaniy tajribaga murojaat qilishga undaydi hamda matn talqinini ko‘p qatlamli qiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv, raqamli kommunikatsiya va madaniyatlararo muloqot sharoitida matnlararo aloqalar yanada faollashmoqda. Badiiy adabiyot, publitsistika, reklama, siyosiy nutq, ilmiy matn, internet memlari, film, qo‘shiq, ijtimoiy tarmoq postlari va boshqa ko‘plab kommunikativ shakllarda intertekstual birliklar keng qo‘llanadi. Shuning uchun intertekstuallikni o‘rganish nafaqat adabiy matnni tahlil qilish, balki zamonaviy diskursning ma’no yaratish mexanizmlarini tushunish uchun ham muhimdir.

Ushbu maqolaning maqsadi intertekstuallik munosabatlarining nazariy mohiyatini ochib berish, ularning asosiy turlarini tasniflash va matndagi funksional ahamiyatini yoritishdan iborat. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, semiotik va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi. Intertekstuallik konsepsiyasining nazariy ildizlari M. Bakhtinning dialogizm haqidagi qarashlariga borib taqaladi. Bakhtin fikricha, har qanday nutq avvalgi nutqlar bilan muloqotda bo‘ladi; so‘z hech qachon mutlaqo “yolg‘iz” yashamaydi, balki boshqa ovozlar, baholar va ijtimoiy kontekstlar bilan bog‘liq holda ma’no kasb etadi (Bakhtin, 1981). Uning dialogizm nazariyasi keyinchalik intertekstuallik tushunchasining shakllanishiga muhim zamin yaratdi. Chunki dialogizm matnning ko‘p ovozliligi, turli ijtimoiy va madaniy kodlar bilan aloqadorligini ko‘rsatadi.

J. Kristeva “intertekstuallik” terminini ilmiy muomalaga kiritib, har qanday matn boshqa matnlarning kesishuv maydoni ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, matn tayyor, yakunlangan va mustaqil mahsulot emas, balki turli matnlarning o‘zaro almashinuvi va qayta tashkil topish jarayonidir (Kristeva, 1980). Demak, muayyan asarni tushunish uchun uni faqat ichki tuzilishi orqali emas, balki u kirishgan matnlararo munosabatlar tizimi orqali ham tahlil qilish zarur.

R. Barthes intertekstuallikni muallif hokimiyatining cheklanishi va o‘quvchi faoliyatining kuchayishi bilan bog‘laydi. Uning qarashlarida matn turli madaniy kodlar, belgilar va avvalgi nutq shakllaridan tashkil topgan ochiq maydon sifatida talqin qilinadi (Barthes, 1977). Bu yondashuvda matn ma’nosi bitta yakuniy izohga ega emas; aksincha, o‘quvchi o‘z bilimlari, madaniy tajribasi va boshqa matnlar haqidagi xotirasi asosida yangi ma’nolarni hosil qiladi.

G. Genette intertekstuallikni yanada kengroq “transtekstuallik” tushunchasi tarkibida ko‘rib chiqadi. U matnlararo munosabatlarni intertekstuallik, paratekstuallik, metatekstuallik, arxitekstuallik va gipertekstuallik kabi turlarga ajratadi (Genette, 1997a). Bu tasnif intertekstuallik hodisasini faqat iqtibos yoki alluziya bilan cheklab qo‘ymasdan, matnning sarlavha, epigraf, janr, sharh, parodiya va boshqa shakllar orqali ham boshqa matnlar bilan bog‘lanishini tushuntirishga imkon beradi.

Intertekstuallik munosabatlari deganda bir matnning boshqa matnlar bilan semantik, uslubiy, kompozitsion, janriy yoki pragmatik jihatdan bog‘lanishi tushuniladi. Bunday munosabatlar ochiq yoki yashirin bo‘lishi mumkin. Ochiq intertekstuallikda boshqa matndan olingan birlik aniq ko‘rinadi: masalan, iqtibos, epigraf, muallif nomi, asar nomi yoki havola orqali. Yashirin intertekstuallikda esa manba bevosita ko‘rsatilmaydi; o‘quvchi alluziya, obraz, syujet, ibora yoki uslubiy o‘xshashlik orqali uni anglaydi.

Intertekstuallik matnning ikki asosiy darajasida namoyon bo‘ladi. Birinchisi - formal daraja. Bunda boshqa matnga oid birlik matn ichida tashqi shaklda ko‘rinadi: iqtibos, sarlavha, epigraf, maqol, aforizm, qo‘shiq satri, diniy yoki tarixiy ibora sifatida. Ikkinchisi - semantik-pragmatik daraja. Bunda matn boshqa matn yoki madaniy kodga ishora qilish orqali qo‘shimcha ma’no, baho, kinoya, tanqid yoki estetik ta’sir hosil qiladi.

Intertekstuallikning muhim jihati shundaki, u faqat muallif tomonidan yaratiladigan hodisa emas. Ba’zan muallif boshqa matnga ongli ravishda murojaat qiladi; ba’zan esa intertekstual ma’no o‘quvchi talqini jarayonida yuzaga chiqadi. Shuning uchun intertekstuallik muallif, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimi sifatida qaraladi.

Metodologiya. *Iqtibos* intertekstuallikning eng ochiq va aniq ko‘rinishidir. Unda boshqa matndan olingan parcha so‘zma-so‘z yoki deyarli o‘zgarmagan holda keltiriladi. Iqtibos ilmiy matnlarda dalil, asos va nazariy tayanch vazifasini bajarsa, badiiy matnlarda estetik, semantik yoki xarakterologik vazifa bajaradi. Masalan, qahramon nutqida maqol, hadis, she’r yoki mashhur asardan parcha keltirilishi uning dunyoqarashi, madaniy saviyasi yoki ruhiy holatini ochishga xizmat qiladi.

Allyuziya mashhur matn, tarixiy voqea, diniy syujet, mifologik obraz, adabiy qahramon yoki madaniy hodisaga yashirin ishora qilishdir. Allyuziyada manba to‘liq bayon qilinmaydi, balki qisqa belgi orqali eslatiladi. Masalan, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Yusuf va Zulayho” kabi obrazlarga murojaat qilish o‘zbek va Sharq adabiy an’analarida sevgi, sadoqat, hijron, sinov va ma’naviy yetuklik kabi ma’nolarni faollashtiradi.

Reminissensiya avvalgi matn, obraz, motiv yoki uslubning beixtiyor yoki bilvosita eslatilishidir. U iqtibosdan farqli ravishda so‘zma-so‘z takror emas, alluziyadan farqli ravishda esa aniq maqsadli ishora

bo‘lmasligi mumkin. Reminissensiya ko‘proq o‘xshash ohang, kompozitsion qurilish, obrazlar tizimi yoki poetik kayfiyat orqali namoyon bo‘ladi.

Parafraza boshqa matndagi fikr, g‘oya yoki ifodani muallifning o‘z so‘zlari bilan qayta bayon qilishidir. Ilmiy matnlarda parafraza muhim ahamiyatga ega, chunki tadqiqotchi boshqa olimlarning fikrini aynan ko‘chirmasdan, uni o‘z talqini asosida ifodalaydi. Badiiy matnlarda esa parafraza ma’lum syujet, motiv yoki obrazni yangicha kontekstda qayta yaratish imkonini beradi.

Parodiya mavjud matn, janr, uslub yoki muallif nutqini kulgili, kinoyali yoki tanqidiy shaklda qayta yaratishdir. Hutcheon parodiyani faqat kulgi vositasi emas, balki “tanqidiy farq bilan takrorlash” sifatida talqin qiladi (Hutcheon, 1985). Demak, parodiya avvalgi matnga tayanadi, lekin uni aynan takrorlamaydi; aksincha, o‘zgartiradi, baholaydi va yangi pragmatik maqsadga bo‘ysundiradi.

Epigraf asar yoki bob boshida keltiriladigan qisqa matn bo‘lib, u keyingi matnning ma’nosini oldindan belgilash, o‘quvchini ma’lum ruhiy-estetik holatga tayyorlash yoki muallif pozitsiyasini ishora qilish vazifasini bajaradi. Epigraf ko‘pincha she’r, maqol, hadis, aforizm yoki mashhur asardan olingan parcha shaklida bo‘ladi.

Paratekstual munosabat matnning sarlavha, muqaddima, izoh, epigraf, bag‘ishlov, annotatsiya, muqova, bob nomlari kabi tashqi elementlari orqali boshqa matnlar yoki madaniy kodlar bilan bog‘lanishidir. Genette paratekstni matnni o‘quvchiga taqdim etuvchi ostonaviy birlik sifatida ko‘radi (Genette, 1997b). Masalan, sarlavhada mashhur ibora yoki tarixiy nomning ishlatilishi o‘quvchini muayyan kontekstga yo‘naltiradi.

Metatekstual munosabat bir matnning boshqa matn haqida sharh, izoh, tanqid yoki talqin berishi bilan bog‘liq. Masalan, adabiy tanqidiy maqola, taqriz, ilmiy sharh yoki tahliliy esse metatekstual xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Bunda ikkinchi matn birinchi matnga bevosita yoki bilvosita munosabat bildiradi.

Arxitekstual munosabat matnning janr, uslub, diskurs turi yoki adabiy an’ana bilan bog‘liqligini anglatadi. Masalan, roman, g‘azal, doston, hikoya, maqola, taqriz, esse kabi janrlar o‘zining oldindan mavjud qoidalari, kompozitsiyasi va uslubiy xususiyatlariga ega. Yangi matn ana shu janriy xotira bilan munosabatga kirishadi.

Gipertekstual munosabat keyingi matnning oldingi matn asosida yaratilishi, uni o‘zgartirishi, davom ettirishi, parodiyalashi yoki moslashtirishi bilan bog‘liq. Genette bunday munosabatda oldingi matnni “gipotext”, keyingi matnni esa “gipertext” sifatida talqin qiladi (Genette, 1997a). Adaptatsiya, remeyk, stilizatsiya va ijodiy qayta yozish gipertekstuallikning muhim shakllaridir.

Tahlil. Intertekstuallik matnda bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u semantik funksiyaga ega. Boshqa matnga ishora qilish orqali muallif qisqa birlik yordamida keng madaniy va tarixiy ma’nolarni faollashtiradi. Masalan, mashhur obraz yoki ibora matnga kiritilganda, o‘quvchi shu obraz bilan bog‘liq butun ma’no tizimini eslaydi.

Ikkinchidan, intertekstuallik estetik funksiyani bajaradi. U matnni ko‘p qatlamli, obrazli va talqinga boy qiladi. Ayniqsa badiiy adabiyotda intertekstual birliklar matnning poetik ta’sirchanligini kuchaytiradi, o‘quvchini faol izlanishga undaydi. Uchinchidan, intertekstuallik pragmatik funksiyaga ega. Muallif boshqa matnga murojaat qilish orqali o‘z fikrini kuchaytirishi, kinoya bildirishi, tanqid qilishi yoki o‘quvchi bilan yashirin muloqot o‘rnatishi mumkin.

To‘rtinchidan, intertekstuallik madaniy-xotira funksiyasini bajaradi. Har bir jamiyat o‘z tarixiy tajribasi, diniy qadriyatlari, adabiy merosi va xalq og‘zaki ijodi orqali matnlararo xotirani shakllantiradi. Intertekstual birliklar ana shu xotirani saqlaydi va yangi avlodlarga yetkazadi. Beshinchidan, intertekstuallik janriy funksiyani bajaradi. Matn ma’lum janrga murojaat qilganda, o‘quvchi shu janrning avvalgi namunalarini eslaydi. Bu esa yangi matnni qabul qilish va talqin qilish jarayonini belgilaydi.

Intertekstual munosabatlarning to‘liq anglanishi o‘quvchining madaniy, adabiy va lingvistik kompetensiyasiga bog‘liq. Iqtibosni tushunish uchun o‘quvchi manbani bilishi; alluziyani anglash uchun esa ishora qilingan tarixiy, diniy yoki adabiy kontekstga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun intertekstuallik matn va o‘quvchi o‘rtasida faol intellektual hamkorlikni talab qiladi.

Agar o‘quvchi intertekstual ishorani tanisa, matnning chuqur qatlamlariga kiradi. Agar tanimasa, u faqat yuzaki ma’noni qabul qiladi. Shu jihatdan intertekstuallik badiiy matn talqinida ochiq va yashirin ma’nolar tizimini yuzaga keltiradi. Bu hodisa ayniqsa tarjimada muhim ahamiyatga ega, chunki tarjimon manba matndagi intertekstual birlikni nafaqat tanishi, balki uni qabul qiluvchi til va madaniyat uchun mos usulda qayta yaratishi kerak.

Natijalar. Bugungi kunda intertekstuallik faqat adabiy matnlar bilan chegaralanmaydi. Reklama matnlarida mashhur film, qo‘shiq, maqol yoki tarixiy shaxsga ishora qilish orqali mahsulotning ta’sirchanligi oshiriladi. Ommaviy axborot vositalarida siyosiy va ijtimoiy voqealar ko‘pincha tarixiy analogiyalar,

mashhur iboralar yoki adabiy obrazlar orqali izohlanadi. Internet madaniyatida esa memlar, remikslar, parodiyalar va ijtimoiy tarmoq postlari intertekstuallikning eng faol maydoniga aylangan.

Raqamli muhitda intertekstuallik tezkor, ko‘p formatli va intermedial xarakter kasb etadi. Birgina internet memi rasm, matn, film sahnasi, qo‘shiq satri va ijtimoiy kontekstni birlashtirishi mumkin. Bunday holatda intertekstual munosabat faqat matnlar orasida emas, balki turli media shakllari - tasvir, ovoz, video va yozuv o‘rtasida ham yuzaga keladi. Bu esa intertekstuallikning zamonaviy tadqiqotlarda intermediallik bilan bog‘liq holda o‘rganilishini taqozo qiladi.

Xulosa. Intertekstuallik munosabatlari matnshunoslik, adabiyotshunoslik, diskurs tahlili va tarjimashunoslik uchun muhim nazariy kategoriya hisoblanadi. U matnning boshqa matnlar, madaniy kodlar, janrlar va tarixiy xotira bilan bog‘lanishini ifodalaydi. Intertekstuallik orqali matn o‘z mazmunini kengaytiradi, ko‘p qatlamli talqin imkoniyatini yaratadi va o‘quvchini faol ma’no izlash jarayoniga jalb qiladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, intertekstuallik iqtibos, allyuziya, reminissensiya, parafraza, parodiya, epigraf, paratekstual, metatekstual, arxitekstual va gipertekstual munosabatlar shaklida namoyon bo‘ladi. Har bir tur o‘ziga xos formal belgilar, semantik vazifalar va pragmatik imkoniyatlarga ega. Iqtibos ochiq manba aloqasini ko‘rsatsa, alluziya va reminissensiya yashirin madaniy ishoralar orqali ishlaydi. Parodiya va gipertekstuallik esa avvalgi matnni ijodiy qayta ishlash, baholash va yangicha kontekstga moslashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, intertekstuallik matnning yolg‘iz mavjud emasligini, balki boshqa matnlar bilan doimiy muloqotda yashashini ko‘rsatadi. Bu hodisani o‘rganish matnning chuqur ma’nolarini ochish, muallif pozitsiyasini anglash, o‘quvchi talqinini baholash va madaniy xotira mexanizmlarini tushunishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Allen, G. (2000). Intertextuality. Routledge.*
2. *Asadov, T. H. (2023). Matn tilshunosligi. Durdona.*
3. *Bakhtin, M. M. (1981). The dialogic imagination: Four essays (C. Emerson & M. Holquist, Trans.; M. Holquist, Ed.). University of Texas Press.*
4. *Barthes, R. (1977). Image, music, text (S. Heath, Trans.). Fontana Press.*
5. *Fairclough, N. (1992). Discourse and social change. Polity Press.*
6. *Fairclough, N. (2003). Analysing discourse: Textual analysis for social research. Routledge.*
7. *Genette, G. (1997a). Palimpsests: Literature in the second degree (C. Newman & C. Doubinsky, Trans.). University of Nebraska Press.*
8. *Genette, G. (1997b). Paratexts: Thresholds of interpretation (J. E. Lewin, Trans.). Cambridge University Press.*
9. *Hutcheon, L. (1985). A theory of parody: The teachings of twentieth-century art forms. Methuen.*
10. *Kristeva, J. (1980). Desire in language: A semiotic approach to literature and art (T. Gora, A. Jardine, & L. S. Roudiez, Trans.; L. S. Roudiez, Ed.). Columbia University Press.*
11. *Quronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2010). Adabiyotshunoslik lug‘ati. Akademnashr.*
12. *Riffaterre, M. (1978). Semiotics of poetry. Indiana University Press.*
13. *Yo‘ldoshev, M. (2007). Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Fan.*
14. *Yo‘ldoshev, M., Muhamedova, S., & Saparniyazova, M. (2021). Matn lingvistikasi. Ishonchli Hamkor.*

UO‘K 81

INGLIZ VA FRANSUZ TILLARIDA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLAR

Safarova Xurshida Salimovna,
Buxoro davlat universiteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlar tilshunoslik va diskurs nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda nutq aktlari nazariyasi, kooperativ prinsip, implikatura, xushmuomalalik strategiyalari, pragmatik markerlar va diskurs tashkil etish mexanizmlari asosida ikki tilning kommunikativ modellari o‘rganildi. Tahlil natijalari ingliz va fransuz tillarida bir xil kommunikativ maqsadlar turli lingvistik va madaniy vositalar orqali ifodalanishini ko‘rsatdi. Ingliz tilida bilvosita ifodalash, yumshatish strategiyalari va pragmatik markerlar ustun bo‘lsa, fransuz tilida rasmiylik darajasi, murojaat shakllari (vous/tu), morfosintaktik vositalar va ijtimoiy kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Diskurs tahlili natijasida ikki tilda kogeziya, kogerentlik, navbat almashish va implikaturalarni shakllantirish mexanizmlaridagi farqlar aniqlandi. Tadqiqotda mazkur pragmatik xususiyatlarning inson–sun’iy intellekt muloqoti tizimlaridagi ahamiyati ham yoritilgan. Olingan natijalar ko‘p tilli intellektual tizimlarni yaratishda madaniy va pragmatik kompetensiyani integrasiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ pragmatika, diskurs tahlili, nutq aktlari, implikatura, xushmuomalalik strategiyalari, ingliz tili, fransuz tili, madaniyatlararo kommunikatsiya, sun’iy intellekt muloqoti, pragmatik kompetensiya.*

КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ коммуникативно-прагматических особенностей английского и французского языков с точки зрения лингвистики и дискурсивного подхода. Исследование основано на теории речевых актов, принципе кооперации, теории импликатур, концепции вежливости, а также на анализе прагматических маркеров и механизмов организации дискурса. Результаты исследования показывают, что одинаковые коммуникативные намерения в английском и французском языках реализуются посредством различных языковых и культурных стратегий. В английском языке доминируют косвенные формы выражения, стратегии смягчения и прагматические маркеры, тогда как во французском языке особое значение имеют уровень формальности, система обращения (vous/tu), морфосинтаксические средства и социальный контекст. Дискурсивный анализ выявил различия в механизмах когезии, когерентности, смены речевых ролей и формирования импликатур в двух языках. Особое внимание уделяется применению выявленных прагматических особенностей в сфере взаимодействия человека и искусственного интеллекта. Полученные результаты подтверждают необходимость интеграции культурно-прагматических моделей в многоязычные интеллектуальные системы.*

Ключевые слова: *коммуникативная прагматика, дискурс-анализ, речевые акты, импликатура, стратегии вежливости, английский язык, французский язык, межкультурная коммуникация, искусственный интеллект, прагматическая компетенция.*

COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF THE ENGLISH AND FRENCH LANGUAGES

Abstract. *This article presents a comparative analysis of the communicative-pragmatic features of English and French from linguistic and discourse perspectives. The study examines speech acts, conversational implicature, politeness strategies, pragmatic markers, and discourse organization mechanisms based on major theoretical approaches in pragmatics. The findings demonstrate that similar communicative intentions are expressed through different linguistic and cultural strategies in English and French. English communication is characterized by indirect expressions, mitigation strategies, and interpersonal pragmatic markers, whereas French communication places greater emphasis on formality, address systems (vous/tu), morphosyntactic devices, and social context. The discourse analysis reveals differences in cohesion, coherence, turn-taking mechanisms, and contextual interpretation of implicatures in*

both languages. The study also highlights the relevance of these pragmatic features for human–artificial intelligence communication. The results suggest that multilingual AI systems require culturally sensitive pragmatic models to achieve more effective, adaptive, and human-centered interaction.

Keywords: *communicative pragmatics, discourse analysis, speech acts, implicature, politeness strategies, English language, French language, intercultural communication, artificial intelligence communication, pragmatic competence.*

Kirish. Globallashuv, raqamli transformasiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi turli til va madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, ingliz va fransuz tillari xalqaro siyosat, ta'lim, biznes, diplomatiya va raqamli kommunikatsiya sohalarida keng qo'llanilayotganligi sababli ularning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tillararo muloqot samaradorligi nafaqat grammatik va leksik bilimlarga, balki pragmatik kompetensiya, ijtimoiy me'yorlar va madaniy kodlarni to'g'ri talqin qilish qobiliyatiga ham bog'liq hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda pragmatika til birliklarining kontekstda qo'llanilishi, muloqot ishtirokchilarining niyatlari va ma'no yaratish mexanizmlarini o'rganuvchi muhim yo'nalish sifatida qaraladi. Graysning kooperativ prinsipi, Ostin va Sirlning nutq aktlari nazariyasi, Braun va Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi hamda Sperber va Uilsonning relevantlik nazariyasi kommunikativ jarayonlarni tahlil qilishning muhim nazariy asoslarini tashkil etadi.

Ingliz va fransuz tillari bir qator umumiy pragmatik xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, murojaat shakllari, rasmiylik darajasi, iltimos bildirish strategiyalari, implikaturalarni shakllantirish va muloqotni boshqarish vositalari jihatidan sezilarli farqlarga ega. Ushbu farqlar ayniqsa inson–sun'iy intellekt muloqoti tizimlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki dialog agentlari foydalanuvchilarning madaniy va pragmatik kutilmalariga moslashishi talab etiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlarni tilshunoslik va diskurs nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilish hamda ularning inson–sun'iy intellekt muloqotidagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Metod va natijalar. Mazkur tadqiqot ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlarni tilshunoslik va diskurs nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan sifat tadqiqoti (qualitative comparative study) hisoblanadi. Tadqiqot interdissiplinar xususiyatga ega bo'lib, pragmatika, diskurs tahlili, sosiolingvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya va hisoblash tilshunosligi sohalaridagi nazariy yondashuvlarni integrasiya qiladi.

Tadqiqotning konseptual dizayni ikki bosqichli tahlilga asoslandi. Birinchi bosqichda ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik mexanizmlar nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, pragmatik markerlar va implikaturalar nuqtayi nazaridan o'rganildi. Ikkinchi bosqichda mazkur xususiyatlarning diskurs darajasidagi namoyon bo'lishi, jumladan, kogeziya, kogerentlik, navbat almashish (turn-taking), muloqot strategiyalari va inson–sun'iy intellekt muloqotidagi ahamiyati tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va fransuz tillaridagi pragmatik resurslarning funksional xususiyatlarini aniqlash hamda ularning raqamli kommunikatsiya va intellektual dialog tizimlarida qo'llanilish imkoniyatlarini baholashdan iborat.

Tadqiqot manbalari nazariy va empirik xarakterga ega bo'lgan xalqaro ilmiy adabiyotlardan shakllantirildi.

Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi:
pragmatika va diskurs tahlili sohasidagi fundamental ishlar;
ingliz va fransuz tillari bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar;
muloqot nazariyalari va madaniyatlararo kommunikatsiyaga bag'ishlangan ishlar;
inson–kompyuter va inson–sun'iy intellekt muloqoti sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar;
Scopus va Web of Science bazalarida indeksasiyalangan ilmiy maqolalar;
yuqori iqtiboslanish ko'rsatkichiga ega manbalar.
Tahlil ob'ekti sifatida quyidagi nazariy yo'nalishlar qamrab olindi:
nutq aktlari nazariyasi;
kooperativ prinsip va implikatura nazariyasi;
relevantlik nazariyasi;
xushmuomalalik nazariyasi;
diskurs tahlili;
navbat almashish nazariyasi;
madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyalari.

Shuningdek, inson–sun’iy intellekt muloqotiga oid tadqiqotlarda ChatGPT, virtual assistentlar va ko‘p tilli dialog tizimlarining pragmatik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy ishlar ham tahlil qilindi.

Tadqiqot bir nechta o‘zaro bog‘liq nazariy platformalarga tayandi:

Speech Act Theory. Austin (1962) va Searle (1969) tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi ingliz va fransuz tillaridagi illokutiv harakatlarni tahlil qilishning asosiy nazariy vositasi sifatida qo‘llanildi. Tahlil jarayonida iltimos, taklif, rad etish, tavsiya berish va va’da kabi nutq aktlarining ifodalanish usullari o‘rganildi.

Cooperative Principle and Conversational Implicature. Grice (1975)ning kooperativ prinsipi va implikatura nazariyasi muloqot ishtirokchilari tomonidan yashirin ma’nolarni yaratish va talqin qilish jarayonlarini tahlil qilish uchun qo‘llanildi. Bu nazariya ingliz va fransuz tillaridagi pragmatik farqlarni tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Politeness Theory. Brown va Levinson (1987)ning xushmuomalalik nazariyasi ijtimoiy masofa, maqom va yuz (face) tushunchalari asosida muloqot strategiyalarini tahlil qilish imkonini berdi. Ayniqsa, fransuz tilidagi vous/tu tizimi va ingliz tilidagi yumshatish strategiyalari mazkur nazariya nuqtayi nazaridan baholandi[1,124].

Relevance Theory. Sperber va Wilson (1995)ning relevantlik nazariyasi muloqotda kontekst va kognitiv samaradorlikning ahamiyatini tahlil qilish uchun nazariy asos sifatida tanlandi.

Discourse Analysis Framework. Halliday va Hasan (1976) hamda zamonaviy diskurs tahlili yondashuvlari asosida kogeziya, kogerentlik, referensiya, ellipsis va konnektorlarning qo‘llanilishi o‘rganildi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri qiyosiy pragmatik tahlil bo‘lib, u ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ strategiyalarni solishtirish imkonini berdi. Tahlil birliklari sifatida iltimos bildirish, murojaat qilish, taklif berish va muloqotni boshqarish kabi kommunikativ harakatlar tanlandi.

Discourse Analysis. Diskurs tahlili orqali muloqotning makro va mikro tuzilmalari o‘rganildi. Makro darajada janr xususiyatlari, diskurs maqsadi va kommunikativ ssenariylar tahlil qilindi. Mikro darajada esa pragmatik markerlar, bog‘lovchilar, referensial birliklar va kogeziya vositalari ko‘rib chiqildi.

Sociopragmatic Analysis. Sosiopragmatik tahlil madaniy normalar, ijtimoiy maqom va muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarning til vositalariga ta’sirini aniqlash uchun qo‘llanildi.

Interactional Analysis. Mazkur usul muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi navbat almashish, backchannel signallar, ta’mirlash (repair) mexanizmlari va muloqot dinamikasini baholash imkonini berdi.

Functional Linguistic Analysis. Funksional tahlil yordamida muayyan til vositalarining kommunikativ vazifalari o‘rganildi. Xususan, modal fe’llar, pragmatik markerlar, murojaat shakllari va intonasion vositalarning funksiyalari aniqlandi.

AI-Oriented Pragmatic Evaluation. Inson–sun’iy intellekt muloqoti nuqtayi nazaridan ingliz va fransuz tillaridagi pragmatik xususiyatlarni modellashtirish imkoniyatlari baholandi. Bu bosqichda ko‘p tilli chatbotlar va intellektual agentlarning pragmatik moslashuvchanligiga oid ilmiy natijalar tahlil qilindi.

Tadqiqot tahlili olti bosqichda amalga oshirildi:

1-bosqich: Manbalarni yig‘ish

Pragmatika, diskurs tahlili va madaniyatlararo kommunikatsiya bo‘yicha ilmiy adabiyotlar saralandi.

2-bosqich: Konseptual tasniflash

Kommunikativ-pragmatik kategoriyalar (nutq aktlari, pragmatik markerlar, implikaturalar va xushmuomalalik strategiyalari) tasniflandi.

3-bosqich: Qiyosiy tahlil

Ingliz va fransuz tillaridagi mazkur kategoriyalarning funksional xususiyatlari taqqoslandi.

4-bosqich: Diskurs tahlili

Kogeziya, kogerentlik, janr xususiyatlari va navbat almashish mexanizmlari o‘rganildi.

5-bosqich: Interpretasiya

Olingan natijalar pragmatik va sosiomadaniy nazariyalar nuqtayi nazaridan sharhlandi.

6-bosqich: AI kontekstida baholash

Tahlil natijalari inson–sun’iy intellekt muloqotida qo‘llash nuqtayi nazaridan baholandi.

Tadqiqotning ishonchliligi (reliability) bir nechta mustaqil nazariy manbalar va tadqiqot yo‘nalishlarini o‘zaro taqqoslash orqali ta’minlandi. Turli olimlar tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar va empirik natijalarning muvofiqligi tekshirildi.

Validlik (validity) esa xalqaro miqyosda e’tirof etilgan nazariy modellardan foydalanish va turli ilmiy maktablar qarashlarini integrasiya qilish orqali ta’minlandi. Shuningdek, qiyosiy tahlil jarayonida ikki til uchun bir xil tahlil mezonlari qo‘llanilishi natijalarning xolisligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlarni tizimli ravishda yoritishda namoyon bo‘lsa, amaliy ahamiyati ko‘p tilli sun’iy intellekt tizimlari, intellektual dialog agentlari va madaniyatlararo kommunikatsiya platformalarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratishi bilan belgilanadi.

Tahlil natijalari ingliz va fransuz tillarida nutq aktlarining amalga oshirilishida umumiy kommunikativ maqsad saqlanib qolishiga qaramay, ularning lingvistik ifodalanish vositalari va pragmatik yuklamasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Har ikki tilda ham reprezentativ, direktiv, komissiv, deklarativ va ekspressiv nutq aktlari faol qo‘llaniladi, ammo ularning amalga oshish darajasi madaniy va ijtimoiy omillarga bog‘liq holda o‘zgarib turadi [10,57].

Ingliz tilida direktiv nutq aktlari, ayniqsa iltimos va so‘rov shakllari, ko‘p hollarda bilvosita konstruksiyalar orqali ifodalanishi kuzatildi. “Could you help me?”, “Would you mind explaining this?” kabi konstruksiyalar muloqotda hamkorlik muhitini shakllantirish va muloqot ishtirokchisining ijtimoiy “yuzi”ni saqlash vazifasini bajaradi. Fransuz tilida esa xuddi shu kommunikativ maqsad conditionnel shakllari yordamida amalga oshiriladi: “Pourriez-vous m’aider ?”, “Voudriez-vous expliquer cela ?”. Bu holat fransuz tilida grammatik vositalarning pragmatik funksiyasi kuchliroq ekanligini ko‘rsatdi. Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, ingliz tilida illokutiv kuch aksariyat hollarda kontekst va intonasiya orqali anglashilsa, fransuz tilida morfologik va sintaktik belgilar orqali aniqroq ifodalanadi. Bu farq inson–sun’iy intellekt muloqotida nutq aktlarini avtomatik aniqlash jarayonida hisobga olinishi lozim bo‘lgan muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot natijalari ikki tilda xushmuomalalik strategiyalarining amal qilish mexanizmi turlicha ekanligini aniqladi. Ingliz tilida muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar asosan leksik va pragmatik vositalar orqali boshqariladi. Hedging, mitigation va indirectness strategiyalari yuqori chastotada qo‘llanilishi kuzatildi. Masalan:

“I think it might be possible...”, “Perhaps we could consider...”, “Would it be possible to...” kabi ifodalar ingliz tilida muloqotni yumshatish va ehtimoliy konfliktlarning oldini olish vazifasini bajaradi.

Fransuz tilida esa xushmuomalalikning asosiy mexanizmi ijtimoiy masofani grammatik kodlash orqali amalga oshiriladi. Vous va tu murojaat shakllari nafaqat shaxslar o‘rtasidagi munosabatni, balki kommunikativ muhitning rasmiylik darajasini ham belgilaydi.

Tahlil natijalari fransuz tilida rasmiy muloqotlarda vous shaklining ustuvorligini, ingliz tilida esa bunday grammatik farqlanish mavjud emasligini ko‘rsatdi. Bu esa fransuz tilida ijtimoiy maqom va institusional munosabatlar muhimroq ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Pragmatik markerlarning qiyosiy tahlili har ikki tilda ular muloqotni tashkil etish va ma’noni boshqarishning muhim vositasi ekanligini ko‘rsatdi.

Ingliz tilida eng ko‘p uchraydigan pragmatik markerlar quyidagilar bo‘ldi: well, actually, you know, I mean, sort of, kind of. Ushbu birliklar so‘zlovchining pozisiyasini belgilash, muloqotni boshqarish, fikrni qayta shakllantirish va muloqot ishtirokchisi bilan hamkorlikni saqlash vazifalarini bajaradi.

Fransuz tilida esa quyidagi markerlar ustunlik qildi: alors, donc, bon, en fait, quoi

Enfin. Tahlil natijalari fransuz pragmatik markerlari ko‘proq diskursning ichki mantiqiy tashkil etilishiga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Ingliz tilida esa ularning vazifasi ko‘proq interpersonal munosabatlarni boshqarish bilan bog‘liqligi aniqlandi.

Shuningdek, har ikki tilda pauza markerlari (uh, um; euh) kognitiv rejalashtirish jarayonining muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ldi.

Grays nazariyasi asosida o‘tkazilgan tahlil implikaturalarning har ikki tilda keng tarqalganligini ko‘rsatdi. Biroq ularning shakllanish va talqin qilinishi madaniy xususiyatlarga bog‘liq holda farq qildi [4;215].

Ingliz tilida implikaturalar asosan muloqot samaradorligi va vazifaga yo‘naltirilganlik bilan bog‘liq bo‘lsa, fransuz tilida ijtimoiy munosabatlar va ritorik an’analar muhim rol o‘ynashi kuzatildi. Masalan, ingliz tilida: “Some of the students passed the exam.” jumlasidan “hammasi emas” degan ma’no kelib chiqishi ehtimoli yuqori bo‘lsa, fransuz muloqotida kontekst va ijtimoiy vaziyat implikaturaning talqiniga kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Shuningdek, fransuz tilida ironiya va ritorik konstruksiyalar orqali shakllangan implikaturalar ingliz tiliga nisbatan murakkabroq pragmatik qayta ishlashni talab qilishi kuzatildi.

Diskurs tahlili natijalari ingliz va fransuz tillarida kogeziya va kogerentlikni ta’minlash vositalarida ma’lum farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Ingliz tilida: pronominal reference; discourse connectors; ellipsis; lexical repetition kabi mexanizmlar ko‘proq qo‘llanildi.

Fransuz tilida esa: aniq referensial konstruksiyalar; formal bog‘lovchilar; sintaktik muvofiqlik; leksik birliklarning tizimli takrori kogerentlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Natijalar fransuz diskursida formal struktura va argumentativ ketma-ketlikning yuqoriroq darajada saqlanishini ko‘rsatdi.

Navbat almashish mexanizmlari tahlili har ikki tilda muloqot dinamikasining madaniy jihatdan farq qilishini ko‘rsatdi.

Ingliz tilida: tezkor javob berish; backchannel signallar; minimal tasdiqlash vositalari, muloqotning tabiiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Keng tarqalgan backchannel elementlari: yeah, right, exactly, okay.

Fransuz tilida esa d’accord, oui, bien sûr, effectivement kabi tasdiqlash vositalari ko‘proq formal xarakter kasb etdi.

Shuningdek, fransuz muloqotida pauzalar va navbatni berish jarayoni ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi kuzatildi.

Qiyosiy tahlil natijalari ingliz va fransuz tillari o‘rtasidagi asosiy pragmatik farqlarni aniqlash imkonini berdi. Bu natijalar madaniy muhit kommunikativ strategiyalarni shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari inson–sun’iy intellekt muloqotida tilning pragmatik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi.

Aniqlanishicha, ingliz tili uchun ishlab chiqilgan standart dialog modellari fransuz tili muhitida doimo ham samarali ishlamasligi mumkin. Xususan:

murojaat shaklini noto‘g‘ri tanlash;

rasmiylik darajasini hisobga olmaslik;

implikaturalarni noto‘g‘ri talqin qilish;

madaniy pragmatik me’yorlarni inobatga olmaslik;

foydalanuvchi qoniqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Natijalar ko‘p tilli sun’iy intellekt tizimlarida pragmatik kompetensiya, madaniy adaptasiya va diskurs modellashtirish modullarini integrasiya qilish zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, fransuz tili uchun T/V murojaat tizimi, rasmiylik parametrlari va madaniy muloqot ssenariylarini hisobga oluvchi adaptiv algoritmlarni joriy etish muhim ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, olingan natijalar ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlarning inson–sun’iy intellekt muloqoti sifatini belgilashda muhim omil ekanligini tasdiqladi va kelajakda madaniyatga moslashuvchan intellektual dialog tizimlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos yaratdi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlar nafaqat til strukturasi, balki ijtimoiy munosabatlar, madaniy me’yorlar va muloqot maqsadlari bilan ham belgilanishini ko‘rsatdi. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlandiki, har ikki til universal kommunikativ tamoyillarga asoslangan bo‘lsa-da, ularning amaliy ifodalanishi va pragmatik vositalardan foydalanish usullari sezilarli darajada farq qiladi.

Nutq aktlari nazariyasi nuqtayi nazaridan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va fransuz tillarida bir xil kommunikativ maqsad turli lingvistik strategiyalar orqali amalga oshiriladi. Ingliz tilida iltimos, taklif va tavsiya kabi direktiv nutq aktlari ko‘pincha bilvosita shakllar orqali ifodalanadi. Masalan, modal fe’llar va yumshatuvchi konstruksiyalar (“could”, “would”, “might”) so‘zlovchining ijtimoiy ehtiyotkorligini namoyon qiladi. Bu holat ingliz muloqot madaniyatida muloqot ishtirokchilarining mustaqilligi va shaxsiy hududini saqlashga katta e’tibor qaratilishini ko‘rsatadi.

Fransuz tilida esa nutq aktlarining pragmatik yuklamasi ko‘proq grammatik va ijtimoiy belgilar orqali ifodalanishi aniqlandi. Conditionnel shakllari, rasmiy murojaat konstruksiyalari va vous/tu tizimi nafaqat hurmat bildirish, balki muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatni belgilash vazifasini ham bajaradi. Bu natija fransuz tilida pragmatik ma’noning morfosintaktik vositalar bilan kuchli bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari Brown va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik nazariyasi bilan uyg‘unlik kasb etadi. Ingliz tilida “face-saving strategies” asosan leksik yumshatish va bilvosita ifodalash orqali amalga oshirilsa, fransuz tilida ijtimoiy masofa va rasmiylik darajasi ko‘p hollarda murojaat shakllari orqali kodlanadi. Shu sababli ingliz tilidagi kommunikativ yumshatish vositalari fransuz tilidagi rasmiylik mexanizmlarining to‘liq muqobili hisoblanmaydi [6;68].

Pragmatik markerlar tahlili ham mazkur farqlarni tasdiqladi. Ingliz tilidagi “well”, “actually”, “you know”, “I mean” kabi birliklar ko‘pincha so‘zlovchining pozisiyasini yumshatish, fikrni qayta tashkil qilish va muloqot jarayonini boshqarish uchun ishlatiladi. Fransuz tilidagi “alors”, “donc”, “en fait”, “bon” kabi

markerlar esa ko‘proq diskurs strukturasini tashkil etish, fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlash va kommunikativ oqimni boshqarish vazifasini bajaradi.

Implikaturalar tahlili natijasida aniqlandiki, Graysning kooperativ prinsipi har ikki tilda ham amal qilsa-da, uning namoyon bo‘lishi madaniy kontekstga bog‘liq. Ingliz muloqotida implikaturalar ko‘pincha qisqalik, aniqlik va samaradorlik tamoyillari bilan bog‘liq bo‘lsa, fransuz muloqotida ritorik ifodalar, formal uslub va ijtimoiy munosabatlar muhimroq rol o‘ynaydi.

Bu farqlar inson–sun’iy intellekt muloqoti uchun alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy til modellari katta hajmdagi matnlar asosida til qonuniyatlarini o‘rganayotgan bo‘lsa-da, pragmatik ma’noni to‘liq anglash uchun ularga madaniy va diskursiv kontekstni hisobga oluvchi mexanizmlar zarur. Masalan, ingliz tilida oddiy va to‘g‘ri berilgan savol fransuz tilida yetarli darajada rasmiy emas deb baholanishi mumkin. Aksincha, fransuz tilidagi yuqori darajada rasmiy murojaat ingliz tilida ortiqcha rasmiy yoki masofali ko‘rinishi mumkin [6;89].

Diskurs tahlili natijalari ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Ingliz tilida diskurs ko‘proq vazifaga yo‘naltirilgan va kommunikativ maqsadga tez erishishga qaratilgan bo‘lsa, fransuz tilida diskurs strukturasida rasmiylik, argumentativlik va ijtimoiy munosabatlarni ifodalash elementlari kuchliroq namoyon bo‘ladi. Bu holat xizmat ko‘rsatish, ta’lim, diplomatiya va raqamli muloqot sohalarida ayniqsa muhim hisoblanadi.

Navbat almashish mexanizmlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, muloqotdagi sukut, pauza va qisqa tasdiqlovchi signallar ham pragmatik ma’noga ega. Ingliz tilida “yeah”, “right”, “okay” kabi backchannel vositalari foydalanuvchining muloqotda ishtirokini ko‘rsatsa, fransuz tilidagi “oui”, “d’accord”, “bien sûr” kabi vositalar ko‘proq ijtimoiy muvofiqlik va rasmiy munosabatni ifodalaydi.

Olingan natijalar ko‘p tilli sun’iy intellekt tizimlarini ishlab chiqishda pragmatik adaptasiya zarurligini ko‘rsatadi. Agar dialog agentlari faqat grammatik to‘g‘rilikka asoslansa, ular inson muloqotidagi nozik ijtimoiy signallarni noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin. Shuning uchun kelajakdagi intellektual tizimlar quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olishi kerak:

nutq aktlarini avtomatik aniqlash;

kontekstga asoslangan implikatura tahlili;

madaniy pragmatik modellar;

foydalanuvchi ijtimoiy profiliga moslashish;

tilga xos xushmuomalalik strategiyalarini tanlash.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari pragmatik kompetensiya sun’iy intellekt uchun oddiy til modeli emas, balki inson muloqotining ijtimoiy va kognitiv xususiyatlarini anglash mexanizmi ekanligini ko‘rsatadi. Inson–AI muloqotining yuqori sifatini ta’minlash uchun til, madaniyat va ijtimoiy kontekstni birlashtiruvchi kompleks yondashuv talab etiladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik farqlar faqat lingvistik hodisa emas, balki madaniy fikrlash va muloqot strategiyalarining aks etishi ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa kelajakda insonga yo‘naltirilgan, madaniyatlararo sezgir va pragmatik jihatdan moslashuvchan sun’iy intellekt tizimlarini yaratish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlarni tilshunoslik va diskurs nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, inson muloqotida ma’no faqat grammatik va leksik birliklar orqali emas, balki kontekst, ijtimoiy munosabatlar, madaniy me’yorlar va kommunikativ maqsadlar asosida shakllanadi. Shu sababli pragmatik kompetensiya zamonaviy tilshunoslik va inson–sun’iy intellekt muloqoti tadqiqotlarida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari ingliz va fransuz tillarida nutq aktlarining amalga oshirilishida umumiy kommunikativ maqsadlar mavjud bo‘lsa-da, ularning ifodalanish vositalari va ijtimoiy vazifalari farq qilishini ko‘rsatdi. Ingliz tilida iltimos, taklif va muloqot strategiyalari ko‘proq bilvosita shakllar, modal vositalar va yumshatish mexanizmlari orqali ifodalanadi. Fransuz tilida esa pragmatik ma’no ko‘proq grammatik shakllar, rasmiy murojaat tizimi va ijtimoiy masofani belgilaydigan til vositalari orqali namoyon bo‘ladi.

Xushmuomalalik strategiyalari tahlili natijasida aniqlandiki, ingliz tilida kommunikativ muvozanat asosan hedging, mitigation va indirectness kabi vositalar orqali ta’minlansa, fransuz tilida vous/tu tizimi, rasmiy murojaatlar va nutqning formal strukturasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu farqlar tilning faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi mexanizm ekanligini tasdiqlaydi.

Diskurs tahlili natijalari ingliz va fransuz tillarida kogeziya, kogerentlik, pragmatik markerlar va navbat almashish mexanizmlarining o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ingliz diskursida

muloqot samaradorligi va vazifaga yo‘naltirilganlik ustun bo‘lsa, fransuz diskursida formallik, argumentativ tuzilish va ijtimoiy kontekstning roli kuchliroq ekanligi aniqlandi.

Graysning kooperativ prinsipi va relevantlik nazariyasi asosida o‘tkazilgan tahlil implikaturalarning har ikki tilda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Biroq implikaturalarni talqin qilish jarayoni madaniy xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bir tilda samarali hisoblangan kommunikativ strategiya boshqa til muhitida boshqacha qabul qilinishi mumkin. Bu holat madaniyatlararo muloqotda pragmatik xatolarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning muhim amaliy natijalaridan biri inson–sun’iy intellekt muloqot tizimlarini ishlab chiqishda pragmatik va madaniy omillarni hisobga olish zarurligi bilan bog‘liq. Zamonaviy til modellari katta hajmdagi ma’lumotlar asosida grammatik va semantik bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lsada, inson muloqotining ijtimoiy va madaniy qatlamlarini to‘liq anglash uchun qo‘shimcha pragmatik modellarga ehtiyoj mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, kelajakdagi ko‘p tilli sun’iy intellekt tizimlari quyidagi imkoniyatlarni rivojlantirishi lozim:

nutq aktlarini kontekst asosida aniqlash;

foydalanuvchining kommunikativ maqsadini tushunish;

madaniy va ijtimoiy omillarga mos javob shakllarini tanlash;

implikatura va yashirin ma’nolarni talqin qilish;

tilga xos xushmuomalalik strategiyalarini qo‘llash.

Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlarni yagona qiyosiy model asosida yoritib berdi. Amaliy ahamiyati esa madaniyatlararo kommunikatsiya, til o‘rgatish, avtomatik tarjima va inson–sun’iy intellekt muloqoti sohalari uchun ilmiy asos yaratishi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlarga ega. Xususan, tahlil asosan nazariy va sifat yondashuviga asoslangan bo‘lib, katta hajmdagi korpus ma’lumotlari asosida statistik modellashtirish amalga oshirilmadi. Kelgusi tadqiqotlarda ingliz va fransuz tillaridagi real dialog korpuslarini jalb qilish, pragmatik kategoriyalarni avtomatik belgilash va ko‘p tilli sun’iy intellekt tizimlarida eksperimental sinovlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, ingliz va fransuz tillaridagi kommunikativ-pragmatik farqlarni hisobga olish inson–sun’iy intellekt o‘rtasida samarali, madaniy jihatdan moslashuvchan va inson markazli muloqot muhitini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Til, kognitiv jarayon va madaniy kontekstni birlashtiruvchi kompleks yondashuv kelajakdagi intellektual muloqot tizimlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.*
2. *Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.*
3. *Fraser, B. (1996). Pragmatic markers. Pragmatics, 6(2), 167–190.*
4. *Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), Syntax and Semantics, Volume 3: Speech Acts (pp. 41–58). Academic Press.*
5. *Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). Cohesion in English. Longman.*
6. *Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.*
7. *Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). Speech and Language Processing (3rd ed.). Pearson.*
8. *Sacks, H., Schegloff, E. A., & Jefferson, G. (1974). A simplest systematics for the organization of turn-taking for conversation. Language, 50(4), 696–735.*
9. *Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press.*
10. *Sperber, D., & Wilson, D. (1995). Relevance: Communication and Cognition (2nd ed.). Blackwell.*
11. *Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A. N., Kaiser, Ł., & Polosukhin, I. (2017). Attention is all you need. Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS).*

УДК 81

СПОСОБЫ ПЕРЕДАЧИ ЧУЖОЙ РЕЧИ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Шарипова Дилбар Гулямовна,
преподаватель кафедры Русского языка и литературы
Бухарского государственного университета
dilbargulyamovna123@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются основные способы передачи чужой речи в современном русском языке, раскрывается соотношение авторской и чужой речи, а также анализируются особенности оформления конструкций, содержащих чужое высказывание. Особое внимание уделяется грамматическим и синтаксическим средствам передачи чужой речи, их функциональным особенностям и роли в организации текста. Отмечается, что конструкции с чужой речью представляют собой важную синтаксическую категорию, позволяющую воспроизводить высказывания другого лица с различной степенью точности. Несмотря на значительное количество исследований в данной области, среди лингвистов до сих пор отсутствует единый подход к определению понятия чужой речи и её классификации. В связи с этим проблема изучения конструкций с чужой речью сохраняет свою актуальность и остаётся одним из важных направлений современной лингвистики.*

Ключевые слова: *чужая речь, авторская речь, способы передачи чужой речи, синтаксические конструкции, грамматическая структура, лингвистика, русский язык.*

METHODS OF REPRESENTING REPORTED SPEECH IN MODERN RUSSIAN

Abstract. *This article examines the main methods of representing reported speech in modern Russian. It explores the relationship between authorial speech and reported speech and analyzes the structural and grammatical features of constructions containing another person's utterance. Particular attention is paid to the grammatical and syntactic means of representing reported speech, their functional characteristics, and their role in text organization. It is noted that reported speech constructions constitute an important syntactic category that enables the reproduction of another speaker's utterance with varying degrees of accuracy. Despite extensive research in this field, there is still no universally accepted approach among linguists to defining the concept of reported speech or to its classification. Therefore, the study of reported speech constructions remains a relevant issue and continues to be one of the important areas of contemporary linguistic research.*

Keywords: *reported speech, authorial speech, methods of representing reported speech, syntactic constructions, grammatical structure, linguistics, Russian language.*

HOZIRGI RUS TILIDA O‘ZGA NUTQNI IFODALASH USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi rus tilida o‘zga nutqni ifodalashning asosiy usullari ko‘rib chiqiladi, muallif nutqi va o‘zga nutq o‘rtasidagi o‘zaro munosabat yoritiladi, shuningdek, o‘zga shaxsning nutqini o‘z ichiga olgan konstruksiyalarni rasmiylashtirish xususiyatlari tahlil qilinadi. Alohida e’tibor o‘zga nutqni ifodalashning grammatik va sintaktik vositalari, ularning funksional xususiyatlari hamda matnni tashkil etishdagi o‘rniga qaratilgan. Ta’kidlanishicha, o‘zga nutqli konstruksiyalar boshqa shaxsning fikri va nutqini turli darajada aniqlik bilan ifodalash imkonini beruvchi muhim sintaktik kategoriya hisoblanadi. Ushbu sohada ko‘plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, tilshunoslar orasida o‘zga nutq tushunchasi va uning tasnifi bo‘yicha yagona yondashuv hali ham shakllanmagan. Shu munosabat bilan o‘zga nutq konstruksiyalarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *o‘zga nutq, muallif nutqi, o‘zga nutqni ifodalash usullari, sintaktik konstruksiyalar, grammatik tuzilish, tilshunoslik, rus tili.*

Введение. Чужая речь – это высказывания автора или других лиц. Чужой речью может быть устная речь, письменная речь или мысли, не записанные и не высказанные вслух. Чужая речь может быть передана двумя способами: прямой речью и косвенной речью. Феномен чужой речи – одна из традиционных тем синтаксического описания, со всеми вытекающими из этого следствиями. С одной

стороны, за долгое время изучения феномена чужой речи накоплен ряд ценных наблюдений, которые позволяют более или менее адекватно интерпретировать большинство фактов. С другой стороны, в научных представлениях о феномене чужой речи сохранилось много заблуждений, поддерживаемых многолетней традицией и касающихся как общих вопросов квалификации способов ввода чужой речи, так и частных заключений о характере тех или иных периферийных явлений. Поэтому в предлагаемой статье по необходимости придётся совместить информацию о теоретических констатациях, сохранивших свою эвристическую ценность, и о констатациях, такую ценность утративших.

Анализ литературных источников. Традиционно выделяются три способа ввода чужой речи – прямая речь, косвенная речь и несобственно-прямая речь.

Несколько ниже мы остановимся на недостаточности такой классификации обсуждаемого нами феномена. Сейчас же обратимся к характеристике прямой речи. Обычно констатируют, что прямая речь точно воспроизводит чужие высказывания и сопровождается авторскими словами, которые устанавливают сам факт чужой речи и указывают, кому она принадлежит. Комментариев требуют и первый, и второй признак. Особенно интенсивно чужая речь в отечественной лингвистике изучалась в 60–70-х годах прошлого столетия. Тогда был обоснован собственно грамматический подход к этому явлению. Так, например, в работе Г. М. Чумакова предпринята попытка целостного описания феномена чужой речи, выделены пять её разновидностей (прямая речь, косвенная речь, тематическая речь, несобственно-прямая речь, свободная прямая речь). Современный этап исследования чужой речи характеризуется изменением ориентации с грамматического подхода на сугубо коммуникативный. Это определяет особое внимание к коммуникативной ситуации и коммуникативному событию, а также к теории речевых актов. Исследование художественного текста предполагает при таком подходе рассмотрение чужой речи в системе, во взаимодействии персонажей, а также с учётом текстообразующих потенций различных конструкций. Языковые факты свидетельствуют, что, вопреки мнению лингвистов, прямая речь предполагает не точное воспроизведение чужого высказывания, а всего лишь имитацию буквальной передачи последнего в плане его языковой организации, поэтому прямой речи свойственна некоторая противоречивость. Бесспорно, в прямой речи сохраняются основные грамматические, лексико-фразеологические и интонационные особенности, сказанные кем-то (иногда даже самим автором). Однако правила имитации других сторон чужого высказывания, оформляемого как прямая речь, в частности его содержания, оказываются, наоборот, весьма нестрогими. Автор речевого произведения может изложить соображения говорящего лишь приблизительно; может исказить его мысли до такой степени, что говорящий откажется признать сообщение своим; может приписать речь бессловесному животному (как у Н. Гоголя в знаменитом монологе коня Чубарого).

Оглушение не замыкается в границах словоформы – оно распоряжается и внешними фонетическими процессами на стыке слов (сандхи), обнаруживая тем самым, что подлинная его область – конец фонетического слова перед паузой и перед новым приступом. Предлоги и приставки на з демонстрируют механику с прозрачностью учебной таблицы: без сна звучит [б’ес], без дома – [б’ез], и орфография, в виде редчайшего исключения из морфологического принципа, здесь капитулирует перед фонетикой, узаконив двойное написание приставок (бесполезный – бездомный). И эта узаконенная нейтрализация не осталась без метаязыкового фольклора: написание бес- в словах типа бессовестный, бесчеловечный сделалось предметом известной околоязыковой полемики, участники которой, смешивая приставку с существительным бес, требуют вернуть дореформенное без-, – курьёз, интересный лингвисту как свидетельство того, что омофония, рождённая нейтрализацией, способна возбуждать даже идеологические страсти; сетевые шутки о «бесе, попутавшем орфографию» разрабатывают ту же жилу в игровом ключе. Аналитически существенно,

что сандхиальное озвончение и оглушение перед началом следующего слова (сад большой [сад-], сад стоит [сат-]) подчиняются тем же правилам, что и внутрисловные, – граница слова для русской голосовой нейтрализации проницаема, и это резко отличает её от английской ситуации, где словесная граница защищена и leave soon не превращает [v] в [f].

Особую линию русской финальной нейтрализации составляет статус губно-зубного: конечное в реализуется глухим [ф], и пары типа *любовь – [л'убоф'], кровь – [кроф'], бровь – [броф']* совпадают исходами до неразличимости. Русская поэтическая культура среагировала на это совпадение уникальным образом – рифменная триада *кровь – любовь – вновь,* держащаяся на тождестве [оф'], была затёрта до такой степени, что превратилась в метаязыковое присловье: разговорная идиома любовь-морковь, иронически обозначающая сентиментальную тему, есть, в сущности, народная пародия на рифму, возможную лишь благодаря оглушению (морковь – [маркоф']); язык, как видим, не только произвёл нейтрализацию, но и высмеял её поэтические последствия собственными средствами.

Неожиданного свидетеля русскому оглушению доставила история письменности чужого языка – эмигрантская транслитерация фамилий. Написания *Rachmaninoff, Smirnoff, Ivanoff,* закрепившиеся в латинице за носителями фамилий на -ов, передают не букву, а звук: конечное [ф], продукт нейтрализации, был честно услышан и записан средой, не знавшей русской орфографии, и мировая торговая марка водочного дома хранит это [ф] по сей день. Перед нами транслитерационный аналог детского дуп – запись архифонемы наивным ухом, только произведённая коллективно и вмороженная в юридические документы; советская же транслитерация, ориентированная на букву (-ov), стёрла фонетический след, и сосуществование дублетов *Rachmaninoff/Rakhmaninov* в мировом обиходе позволяет датировать смену транслитерационных стратегий с точностью до поколения.

Продуктивность финального оглушения красиво подтверждает молодая грамматическая форма – так называемый новый звательный. Разговорная речь последних десятилетий систематически усекает личные имена и термины родства в обращении: *Тань, Свет, Серёж, Володь, мам, пап* («Мам, ну мам!»; «Серёж, подойди на минутку» – из бытовых диалогов, зафиксированных исследователями разговорной речи), и усечение исправно порождает новые словоформы с исходом на согласный[19]. Показательно, что свежеиспечённые конечные немедленно подчиняются общему режиму: *Серёж звучит* [с'ир'ош] с оглушённым исходом, *Володь* – [валот'], и никакой носитель не производит здесь звонкого, хотя мотивирующие *Серёжа, Володя* содержат его в целости. Это и есть эксперимент, поставленный самим языком: правило оглушения было применено к формам, которых не существовало ещё полвека назад, – неоспоримое свидетельство того, что нейтрализация жива как продуктивный механизм, а не хранится в словах готовыми блоками. Английская параллель вокативных усечений (Liz из Elizabeth, Rob из Robert) демонстрирует, разумеется, обратное: *Rob*, например, кончается полновесным [b], и англоязычное усечение никаких голосовых перестроек не влечёт – новая форма наследует конец исходной без правки.

Выводы. Границы русского оглушения очерчены границами самой голосовой корреляции, и этот отрицательный материал не менее поучителен положительного. Сонорные, не имеющие глухих партнёров, финальной нейтрализации не знают: гром, сон, даль, край выходят из конца слова невредимыми, и рифма, соединяющая их (гром – паром, даль – печаль), не содержит никакой архифонемы – она соединяет полноценные фонемы. Отсюда важное уточнение к карте слабых позиций: конец слова слаб не вообще, а лишь для единиц, втянутых в привативную корреляцию, и русский исход являет двухэтажное устройство – нейтрализующий этаж шумных над константным этажом сонорных. Английская система устроена в этом пункте зеркально по материалу, но тождественно по логике: носовые /m/, /n/, /ŋ/, лишённые глухих пар, не участвуют ни в каких голосовых событиях финали, и вся драма предфортисного сокращения разыгрывается этажом ниже – среди шумных.

Сопоставляемые языки образуют почти безупречный хиазм: русский язык слаб в исходе слова и силён между гласными, английский (в американском изводе) силён в исходе и слаб между гласными. Перекрёстная асимметрия эта не случайна и допускает функциональное истолкование: каждая система оберегает контрасты там, где сосредоточена её опознавательная нагрузка, – английское слово, бедное флексией, несёт лексическую информацию до последнего сегмента, и финаль ему терять нельзя; русское слово, защищённое флективной избыточностью, может позволить себе размытую финаль, но дорожит интервокальной зоной, на которую приходится стык основы и окончания. Так частный фонологический хиазм оказывается проекцией глубинного типологического различия аналитического и флективного строя – вывод, к которому мы будем возвращаться на каждом следующем ярусе. Попутно заметим, что обе нейтрализации принадлежат дивергентной зоне

сопоставляемой пары: ни одна не имеет в другом языке аналога, и обе, как было показано, исправно генерируют интерференцию, каламбур и эрратив – три верных спутника всякого живого неразличения.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Трубецкой Н. С. Основы фонологии / пер. с нем. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. – С. 256–266.

2. Мартине А. Принцип экономии в фонетических изменениях. Проблемы диахронической фонологии / пер. с фр. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. – С. 77–101.

3. Аванесов Р. И. Фонетика современного русского литературного языка. – М.: Изд-во МГУ, 1956. – С. 33–41; Панов М. В. Современный русский язык. Фонетика. – М.: Высшая школа, 1979. – С. 94–124.

4. Chomsky N., Halle M. The Sound Pattern of English. – New York: Harper & Row, 1968. – P. 178–187; Kiparsky P. Lexical Morphology and Phonology // Linguistics in the Morning Calm / ed. by I.-S. Yang. – Seoul: Hanshin, 1982. – P. 3–91.

5. Beckman J.N. Positional Faithfulness: PhD dissertation. – Amherst: University of Massachusetts, 1998. – P. 1–52; Steriade D. Phonetics in Phonology: The Case of Laryngeal Neutralization. – Los Angeles: UCLA, 1997. – 74 p.

6. Port R. F., O'Dell M. L. Neutralization of Syllable-Final Voicing in German // Journal of Phonetics. – 1985. – Vol. 13. – P. 455–471; Labov W. Principles of Linguistic Change. Vol. 1: Internal Factors. – Oxford; Cambridge: Blackwell, 1994. – P. 349–390.

7. Абдуазизов А. А. Элементы общей и сравнительно-типологической фонологии. – Ташкент: Фан, 1981. – С. 96–134; Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог, интерференция, обучение произношению. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 118–162.

8. Gimson A. C. An Introduction to the Pronunciation of English. – London: Edward Arnold, 1970. – 320 p.

9. Gimson A. C. An Introduction to the Pronunciation of English. – London: Edward Arnold, 1970. – P. 172–187.

10. Vassilyev V. A. English Phonetics: A Theoretical Course. – Moscow: Higher School Publishing House, 1970. – 324 p.

11. Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог, интерференция, обучение произношению. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 118–162.

12. Wells J. C. Accents of English. Vol. 1. – P. 262–263.

13. Панов М. В. Современный русский язык. Фонетика. – М.: Высшая школа, 1979. – С. 94–124.

14. Панов М. В. История русского литературного произношения XVIII–XX вв. – М.: Наука, 1990. – 456с.

15. Панов М. В. Русская фонетика. – М.: Просвещение, 1967. – С. 116–139.

16. Кронгауз М. А. Самоучитель албанского. – М.: АСТ, 2013. – 412 с.

17. Гусейнов Г. Ч. Заметки к антропологии русского Интернета: особенности языка и литературы сетевых людей // Новое литературное обозрение. – 2000. – № 43. – С. 289–321.

18. Русская разговорная речь: Тексты / отв. ред. Е. А. Земская, Л. А. Капанадзе. – М.: Наука, 1978. – 307 с.

19. Русская разговорная речь / отв. ред. Е. А. Земская. – М.: Наука, 1973. – С. 88–120.

UO‘K 81

O‘ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLARNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISH OMILLARI

Saidova Xurshida Faxriddin qizi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
saidovaxurshida808@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lish jarayoni, ularning shakllanish omillari hamda til taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan, texnologiya va xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida til lug‘at tarkibi yangi birliklar bilan boyib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, iqtisod, madaniyat va kundalik hayot sohalarida yangi so‘zlar faol qo‘llanilmoqda. Maqolada neologizmlarning yuzaga kelish sabablari, ularning til tizimiga moslashuvi hamda lug‘at tarkibidagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *neologizm, o‘zlashma so‘z, til taraqqiyoti, yangi so‘zlar, lug‘at boyligi, terminologiya.*

ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЯ НЕОЛОГИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Annotatsiya. *В данной статье анализируется процесс появления неологизмов в современном узбекском языке, факторы их формирования и роль в развитии языка. В результате общественного развития, прогресса науки и технологий, а также расширения международных связей словарный состав языка постоянно пополняется новыми единицами. Особенно активно новые слова употребляются в сферах информационных технологий, экономики, культуры и повседневной жизни. В статье рассматриваются причины возникновения неологизмов, их адаптация в языковой системе и значение в обогащении словарного состава языка.*

Ключевые слова: *неологизм, заимствованное слово, развитие языка, новые слова, словарный состав, терминология.*

FACTORS IN THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF NEOLOGISMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. *This article analyzes the process of the emergence of neologisms in the modern Uzbek language, the factors influencing their formation, and their role in language development. As a result of social progress, the advancement of science and technology, and the expansion of international relations, the vocabulary of the language is constantly enriched with new lexical units. In particular, new words are actively used in the fields of information technology, economics, culture, and everyday life. The article highlights the reasons for the emergence of neologisms, their adaptation within the language system, and their significance in enriching the lexical structure of the language.*

Keywords: *neologism, borrowed word, language development, new words, vocabulary enrichment, terminology.*

Kirish. Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib boradi. Jamiyat hayotida yuz beradigan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy o‘zgarishlar tilning lug‘at tarkibiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli til doimiy ravishda yangi so‘zlar bilan boyib boradi. Tilshunoslikda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar neologizmlar deb ataladi. Neologizmlar tilning rivojlanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular yangi tushunchalar, hodisalar va predmetlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Zamonaviy davrda global axborot almashinuvi, internet va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida yangi so‘zlarning paydo bo‘lish jarayoni yanada tezlashdi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilida ham mustaqillikdan keyingi davrda yangi so‘zlar soni sezilarli darajada ortdi. Bu jarayon tilning tabiiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, yangi terminlarning paydo bo‘lishi ilm-fan va jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichidir. Neologizm atamasi yunoncha *neos* – “yangi” va *logos* – “so‘z” ma’nolarini anglatadi. Tilshunoslikda neologizm deb tilga yangi kirib kelgan yoki yaqinda paydo bo‘lgan so‘zlarga aytiladi.

Neologizmlar quyidagi xususiyatlarga ega: a) ular tilga yaqinda kirib kelgan bo‘ladi; b) yangi tushunchani ifodalaydi; d) dastlab tor sohada qo‘llanadi; e) vaqt o‘tishi bilan umumxalq tiliga kirib borishi mumkin.Masalan, zamonaviy o‘zbek tilida bloger, startap, platforma, dron, kriptovalyuta kabi so‘zlar neologizm sifatida qaraladi. Neologizmlarning paydo bo‘lish omillari. Tilga yangi so‘zlarning kirib kelishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi. *Ijtimoiy omillar*. Jamiyat hayotida yuz berayotgan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Masalan, davlat boshqaruvi va xalqaro munosabatlar bilan bog‘liq terminlar ko‘paymoqda: sammit, monitoring, reyting, platforma. *Ilmiy-texnik taraqqiyot* Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi yangi tushunchalarni yuzaga keltiradi. Natijada ularni ifodalash uchun yangi terminlar paydo bo‘ladi. Masalan: *internet, brauzer, server, algoritm, robot. Iqtisodiy rivojlanish*. Bozor iqtisodiyoti shakllanishi bilan iqtisodiy terminologiya ham boyidi. Masalan: *marketing, investor, franchayzing, menedjer, logistika. Madaniy va global aloqalar.* Turli mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar kengayishi ham tilga yangi so‘zlarning kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Masalan: *burger, sushi, pizza,latte.*

Neologizmlarning shakllanish usullari ham bir qancha. O‘zbek tilida neologizmlar bir necha usullar orqali yuzaga keladi. *O‘zlashma so‘zlar* bunda ko‘plab yangi so‘zlar boshqa tillardan o‘zlashadi. Bu jarayon ayniqsa ingliz tili orqali faol amalga oshmoqda. Masalan: *blog, kontent, trend, influencer. So‘z yasash* jarayoni. Bunda tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi birliklar hosil qilinadi. Masalan: *telefonchi, burgerchi, vaynchi. Terminologik rivojlanish* Muayyan sohalarda ilmiy tushunchalar paydo bo‘lishi natijasida yangi terminlar yuzaga keladi. Masalan: *geoportal, kibersport, kiberxavfsizlik.*

Tadqiqot metodologiyasi. Yangi so‘zlar turli sohalarda faol qo‘llanmoqda.

Axborot texnologiyalarida: internet, brauzer, server, hosting, domen, bot, platforma.

Iqtisod va biznes: startap, marketing, investor, konsalting, menedjer.

Sport: futzal, karting, fitnes, bodibilding.

Turizm: hostel, motel, resort, turpaket, transfer.

Kundalik hayot: blender, smartfon, planshet, poverbank.

1-jadval. O‘zbek tilidagi neologizmlarning kelib chiqish manbalari

Manba turiga ko‘ra	Izoh	Misollari
Tilning ichki imkoniyatlari	So‘z yasash, qo‘shma so‘z hosil qilish, yangi ma'no yuklash orqali yuzaga keladi	raqamlashtirish, videodars
Chet tillardan o‘zlashish	Boshqa tillardan, asosan ingliz tilidan kirib keladi	bloger, startap, marketpleys
Ilm-fan va texnika taraqqiyoti	Yangi texnologiyalar va ilmiy yutuqlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi	sun'iy intellekt, dron, elektromobil
Ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar	Davlat va jamiyat hayotidagi yangiliklarni ifodalaydi.	ochiq budjet, hokim yordamchisi
Internet va ijtimoiy tarmoqlar	Asosan,raqamli kommunikatsiya vositalari orqali tarqaladi.	layk, post
Iqtisodiy munosabatlar	Bozor iqtisodiyoti va biznes sohasidagi yangiliklar bilan bog‘liq bo’ladi.	marketing, brend, treyding
Madaniyat va turmush tarzi	Zamonaviy hayot tarzi va madaniy jarayonlar ta'sirida yuzaga keladi.	kasting, fitnes

Neologizmlar til rivojining tabiiy jarayonidir. Ular:1) yangi tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi; 2) tilning lug‘at boyligini kengaytiradi; 3) ilm-fan taraqqiyotini aks ettiradi.

Shu bilan birga, yangi so‘zlarning til me’yorlariga moslashuvi ham muhim masalalardan biridir. Ayrim neologizmlar vaqt o‘tishi bilan umumxalq tiliga kirib boradi, ayrimlari esa faqat tor sohada qo‘llanib qoladi.

Chetdan kirgan so’z tilga ta’sir ko’rsatmay qolmaydi. Neologizmlarning eng muhim ta’sirlaridan biri o‘zbek tili lug‘at boyligining ortishidir. Fan, texnika, iqtisodiyot, siyosat va axborot texnologiyalari sohalarida paydo bo‘layotgan yangi tushunchalar tilimizga yangi so‘zlarning kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, *sun’iy intellekt, raqamlashtirish, startap, podkast, bloger, kriptovalyuta* kabi birliklar zamonaviy voqelikni aniq ifodalash imkonini yaratdi. Natijada tilning nominativ vazifasi yanada takomillashmoqda.

Neologizmlar o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlarini ham faollashtiradi. Yangi tushunchalarni ifodalashda tilning ichki resurslari – affikslar, qo‘shma so‘zlar va semantik usullar keng qo‘llaniladi. Bu esa milliy tilning rivojlanishiga va uning ichki salohiyatining namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Masalan,

raqamlashtirish, masofaviy ta’lim, elektron kutubxona, videodars kabi birliklar o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlari mahsulidir.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Biroq neologizmlarning ta’siri har doim ham bir xil baholanmaydi. Ayniqsa, chet tillardan kirib kelayotgan o‘zlashma neologizmlarning haddan tashqari ko‘payishi ayrim hollarda milliy muqobillarning faol qo‘llanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, ba’zi hollarda xorijiy atamalar o‘rniga o‘zbekcha muqobillar mavjud bo‘lsa-da, nutqda o‘zlashma variantlar ustun qo‘llaniladi. Bu holat tilning milliy xususiyatlarini saqlash masalasini dolzarb qilib qo‘yadi.

Neologizmlar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tez tarqaladi. Natijada yangi so‘zlar qisqa vaqt ichida keng ommalashib, faol lug‘at tarkibiga kiradi. Ayrim neologizmlar vaqt o‘tishi bilan umumiste’mol so‘zlariga aylanadi va yangilik xususiyatini yo‘qotadi. Masalan, bir paytlar yangi hisoblangan *kompyuter, internet, mobil telefon* kabi birliklar bugungi kunda oddiy leksik birliklar sifatida qabul qilinadi.

Neologizmlar tilning zamon bilan hamnafas rivojlanishini ta’minlaydi. Agar til yangi tushunchalarni ifodalash vositalariga ega bo‘lmasa, uning kommunikativ imkoniyatlari cheklanib qoladi. Shu sababli neologizmlar til taraqqiyotining tabiiy va zaruriy mahsuli hisoblanadi. Muhimi, yangi birliklarni qabul qilishda o‘zbek tilining ichki qonuniyatlari, milliy ruhiyati va adabiy til me’yorlariga amal qilish zarur.

Neologizmlarning o‘zbek tiliga ta'siri

Ijobiy ta’siri	Salbiy ta’siri
Lug‘at boyligini oshiradi	Chet tillar ta'sirini kuchaytirishi mumkin
Yangi tushunchalarni ifodalaydi	Milliy muqobillarning iste'moldan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin
Tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi	Ayrim hollarda tushunarsizlik tug‘diradi
Fan va texnika yutuqlarini aks ettiradi	Adabiy til me'yorlariga ta'sir qilishi mumkin
Til taraqqiyotini ta'minlaydi	Keraksiz o‘zlashmalar sonini ko‘paytirishi mumkin

Xulosa. Zamonaviy o‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lishi til taraqqiyotining tabiiy va uzluksiz jarayonidir. Jamiyat hayotida ro‘y berayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar, shuningdek, ilm-fan hamda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi til lug‘at tarkibining yangilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada yangi tushunchalar, predmetlar va jarayonlarni ifodalash zarurati tug‘ilib, tilga yangi leksemalar kirib kelmoqda yoki mavjud so‘zlar yangi ma’no kasb etmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, turizm, sport va kundalik hayot bilan bog‘liq sohalarda neologizmlar sonining ortib borayotgani kuzatiladi. Yangi so‘zlarning shakllanishi turli omillar bilan izohlanadi. Bir tomondan, xalqaro aloqalar kengayishi va global axborot almashinuvi natijasida boshqa tillardan o‘zlashgan terminlar tilga kirib kelmoqda. Ikkinchi tomondan, tilning ichki imkoniyatlari – so‘z yasash jarayonlari, semantik kengayish va terminologik rivojlanish orqali ham yangi birliklar yuzaga kelmoqda. Shu sababli neologizmlar til tizimining dinamik rivojlanishini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Neologizmlar dastlab ma’lum bir soha yoki ijtimoiy guruh nutqida qo‘llanib, keyinchalik keng iste’molga kirib borishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan ularning ayrimlari umumxalq tilida mustahkam o‘rnashadi, ayrimlari esa faqat tor terminologik qatlamda qo‘llanib qoladi. Shu jihatdan yangi so‘zlarning qo‘llanish doirasi, semantik rivoji va til me’yorlariga moslashuvi jarayonini o‘rganish tilshunoslik uchun muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Umuman olganda, neologizmlar o‘zbek tilining lug‘at tarkibini boyitadi, uning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi va zamonaviy voqelikni aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular til me’yorlari va milliylik tamoyillari asosida o‘zlashtirilgandagina til taraqqiyotiga samarali hissa qo‘sha oladi. Neologizmlar o‘zbek tilining yashovchanligi, taraqqiyoti va zamonaviy dunyo bilan uyg‘un rivojlanayotganining muhim belgilaridan biridir. Neologizmlar tilning lug‘at boyligini kengaytiribgina qolmay, balki jamiyat taraqqiyoti, ilmiy-texnik yutuqlar va madaniy jarayonlarning til tizimida qanday aks etishini ham ko‘rsatadi. Shu bois zamonaviy o‘zbek tilidagi yangi so‘zlarni aniqlash, ularni mavzuviy guruhlarga ajratish hamda lingvistik jihatdan tahlil qilish kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. Asadov T., Saidova X. O‘zbek lug‘at qatlamidagi neologik shaxs otlari va ularning tarkibiy-mazmuniy tuzilishi. – Buxoro davlat universiteti axborotnomasi, 2024. – 9-son. – 54–58-b.

2. Begmatov E. O‘zbek tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 210 b.

3. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2019. – 240 b.

4. Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 192 b.

5. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1995. – 232 b.

6. Nurmonov A., Mahmudov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 304 b.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 476 b.

9. Saidova X.F., Neologizmlarning mavzuviy guruhlari haqida. Finland, Helsinki international scientific online conference “Sustainability of Education Socio-Economic Science Theory”. – 2024. 103-106-b.

10. Saidova X. F. Zamonaviy o‘zbek tilida o‘zlashma terminlarning shakllanishi. BuxDU ilmiy-nazariy jurnal 2026, № 4, aprel.

11. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 400 b.

12. Yo‘ldoshev B. O‘zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 256 b.

UO‘K 81

LINGVOKULTUROLOGIYA, SPETSIFIKA VA KONSEPT MUNOSABATI

Cho‘liyev Ruhillo Abdullayevich,
Navoiy davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada lingvokulturologiya uning spetsifikasi, konseptga munosabati, lingvomadaniy birliklarning berilishida zamon va makonning ahamiyati, shaxsning namoyon bo‘lishida individual so‘z qo‘llash mahoradi, til madaniyatining shakllanishida ichki, tashqi omillarning ta’siri masalalari yuzasidan mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, spetsifika, konsept, madaniyat, lingvoo‘lkashunoslik, tashqi omil, ichki omil, badiiy matn, zamon, makon.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ, СПЕЦИФИКА И ВЗАИМОСВЯЗЬ ПОНЯТИЙ

Аннотация. *В данной статье представлены соображения по вопросам лингвокультурологии, её специфики, связи с понятием, важности времени и пространства в передаче лингвокультурных единиц, индивидуальных лексических навыков в проявлении личности, влияния внутренних и внешних факторов на формирование языковой культуры.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, специфика, понятие, культура, лингволокнистика, внешний фактор, внутренний фактор, литературный текст, время, пространство.*

LINGUOCULTUROLOGY, SPECIFICITY AND CONCEPT RELATIONSHIP

Abstract. *This article presents considerations on the issues of linguoculturology, its specificity, relation to the concept, the importance of time and space in the transmission of linguocultural units, individual vocabulary skills in the manifestation of personality, the influence of internal and external factors in the formation of language culture.*

Keywords: *linguoculturology, specificity, concept, culture, linguolocal studies, external factor, internal factor, literary text, time, space.*

Kirish. Tilning lingvokulturologik tabiatini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda tadqiqot obyekti vazifasini o‘tovchi ishonchli manbaning mavjudligi va aniq materialni belgilab olish dastlabki va eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Badiiy asar, umuman olganda, ma’lum bir davrga tegishli har qanday matn eng ishonchli va boy manba vazifasini o‘tay oladi. Eng qadimgi turkiy (bobokalonlar) tilidan tortib, hozirgi zamon tiliga qadar bosib o‘tilgan tarixiy davrni tadqiq qilishda “matn” tushunchasi birlamchi, obyektiv va inkor etib bo‘lmas tadqiqot birligidir.

Muayyan shaxs tomonidan yaratilgan matnni o‘rganishdagi ahamiyat quyidagi xususiyatlarga asoslanadi:

a)matn muallifi tomonidan unda zamon va makon (xronotop) tushunchalarining aniq belgilab qo‘yilganligi;

b)xalqning turmush tarzi va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan lingvistik birliklarning mavjudligi;

d)shaxsiy va jamoaviy individuallikni belgilab beruvchi etalonlar, realiyalar, onomastik birliklar, paremiologik va frazeologik iboralar kabi vositalarning keng qo‘llanilishi;

e)ijodkorning yaratilgan matn bilan uzviy bog‘liqligi va daxldorligi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Lingvokulturologiya fanini o‘rganish maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Bunda matndagi turlicha ichki va tashqi ishoralar, lisoniy belgilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Obyekt sifatida faqatgina bitta shaxs olingan taqdirda ham, u boshqalar bilan bevosita aloqada bo‘lmagan holatda ham, baribir alohida bir til madaniyati egasi hisoblanadi. Shaxsning tevarak-atrofdagi boshqa insonlar bilan munosabati asosida umumiy, shu bilan birga, o‘ziga xos farqli madaniyat shakllanadi. Shu sababli, shaxsning madaniy qiyofasi boshqa shaxslarning lisoniy-madaniy qiyofasi ta’sirida shakllanadi. Ayni bir shaxsning lisoniy-madaniy dunyoqarashi boshqalarni inkor qilishi yoki ma’lum darajada taqozo qilishi mumkin. Shaxsning lisoniy-madaniy qiyofasi asosini quyidagi holatlar tashkil etadi:

a)an’anaviy va uzviy davom etuvchi hayot tarzi;

b)tevarak-atrofdagi mavjudlik, borliqning obyektiv va subyektiv barqarorligi;

d)boshqa madaniyat va tillar ta’sirining mavjud yoki mavjud emasligi;

tarixiy-tadrijiy taraqqiyot jarayoni.

Yuqoridagi omillar atroflicha tahlil qilinsa, har bir jihatning qanchalik muhim ekanligi oydinlashadi. O‘zgarishsiz hayot tarzi va an’analar insonning uzoq yillar davomida birgalikda hayot kechirgan boshqa odamlarni o‘ziniki sifatida qabul qilishiga olib keladi. Jumladan, O‘zbekiston hududida asrlar davomida o‘zbek va tojik xalqlari yonma-yon, hamjihatlikda yashab kelishganligi sababli, ularning tillari va madaniyatlarida uyg‘unlashish jarayonining kechishi tabiiy holatdir. Boshqa millat vakillari tili va madaniyatining integratsiyalashuvi ham shu tariqa ro‘y beradi. Masalan, ruslarning kirib kelishi bilan ma’lum bir marosimlarda o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. "Kelin ko‘ylak" birligi leksik jihatdan umumturkiy tilga mansub bo‘lsa-da, uning ostma’nosi keyinchalik milliylik kasb etmagan. Mazkur birlik ruslar yoki yevropaliklarning nikoh to‘yi marosimida kiyadigan, asosan, oq yoki boshqa ranglardagi maxsus libos tushunchasini bildiruvchi obyektga aylangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson yashaydigan tabiiy sharoit va ijtimoiy muhitning ta’siri lingvomadaniy jihatdan tilda bevosita aks etadi. Qushlar, hayvonlar, hasharotlar, turli o‘simliklar, daraxtlar va insonlarning yillar davomida odat tusiga kirib qolgan hayot tarzi ham tilda o‘z ifodasini topadi. Realialar, maqollar, hikmatli so‘zlar, iboralar, turli paremiologik birliklar, metaforalar, o‘xshatishlar va hatto lakunalar ham bevosita shu jarayon bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi.

Mamlakatimiz ko‘p millatli jamiyat ekanligi sababli, istalgan boshqa til vakillarining kirib kelishi va o‘z tilida muloqotda bo‘lishi ularga hech qanday noodatiy tuyulmaydi. Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarimizning xalq tilida xorijiy mehmonlarning qaysi hududlardan ko‘proq kelishi va qaysi tillardan ko‘proq foydalanishiga qarab, sinxron lingvomadaniy holatning yuzaga kelishini kuzatish mumkin. Bunday til birliklarining juda ko‘p qismi ergonimik (xalq, qabila, urug‘ va boshqa etnik uyushmalar nomi) birliklar va mahsulot nomlarida uchrab turadi.

Lingvomadaniy hodisalarni kuzatish va tadqiq qilishda tilshunos olimlarimiz tomonidan quyidagi muhim savollarga javob topish zarurligi qayd etiladi:

Til konseptlarining shakllanishida madaniyatning ta’siri qanday? Konsept – yillar davomida insonda shakllangan, muvofiqlashgan xususiyatlar majmuidir. U turli tushunchalarni birlashtiradi, ularni farqlaydi va yirikroq tushunchalar doirasida yana umumlashtiradi. Bu holat tilda ham xuddi shunday namoyon bo‘ladi. Inson, hayvonot olami va uni o‘rab turgan borliq bir-biridan farqlansa-da, aslida til konsepti asosida umumiylik kasb etadi va ularning o‘zaro aloqadorligi anglashiladi.

“Madaniy sema”ning semiotik qatlamdagi o‘rni qanday? Til birliklari tarkibi ma’lum bir semadan iborat bo‘ladi. Davr o‘tishi bilan mana shu yagona sema ma’lum darajadagi semiotik qatlamni hosil qiladi. “Madaniy sema” aynan shu semiotik qatlam bilan qanday bog‘liqlikda bo‘ladi?

Nutq egalarining leksik birliklarni qo‘llash xususiyatlari qanday? Nutq egalari leksik birliklarni qanday ma’noda qo‘llaydilar, bu tushuniladigan ma’no nutqning umumiy vaziyatiga va psixologik jarayonga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Mazkur savollarga javob topish tilning lingvomadaniy spetsifikasini to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Masalan, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida dunyoga kelgan ayolga nisbatan turlicha leksik birliklar ishlatiladi: “ona”, “opa”, “ena” kabi birliklar bir xil ma’noni, ya’ni "ona"ni ifodalashda xizmat qilsa, “oyi(jon)” ko‘pincha qaynonani atovchi leksik birlik sanaladi. Til birliklarini kim va qaysi geografik hudud nuqtayi nazaridan ishlatayotgani shaxsning milliy holatini yanada tor doirada idrok etishimizni taqozo qiladi. “Qimirlagan qir oshar” yoki “Tuyaga yantoq kerak bo‘lsa, bo‘ynini cho‘zadi”, “Bo‘rining yesa ham og‘zi qon, yemasa ham” kabi maqollarning kelib chiqish hududi va ularni qo‘llovchi shaxslarning borliq ta’siri asosidagi dunyoqarashlarida sezilarli tafovutlar mavjud bo‘ladi.

Til egalarining madaniy-lisoniy kompetensiyasi qanday shakllanadi? Madaniy-lisoniy kompetensiya deganda, til egalari istalgan leksik, frazeologik va paremiologik birliklar, metaforalar, o‘xshatishlar, milliy etalonlar va realiyalarni maxsus tayyorgarliksiz, tabiiy ravishda muomalaga kira olish qobiliyati tushuniladi. Realiya va lakunarlik ham shular jumlasiga kiradi. Buning sababi til egalarida lingvomadaniy kompetensiyaning shakllanganligi bilan belgilanadi; ularning qanday darajada ishlatilishi esa til materiallarini qay darajada o‘zlashtirganliklari va til boyligiga bevosita bog‘liqdir.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Madaniy ta’sir sferasi til egalariga qanday ta’sir qiladi? Lingvokulturologik spetsifikanning yana bir jihati til egalarida madaniy ta’sir sferasini qay darajada qabul qilganliklari bilan belgilanadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: til egalari yashayotgan makon va zamon madaniyatning dastlabki va birlamchi sferasini tashkil etadi, tarixiy davr va har xil madaniyatlarning ta’siri esa sferaning yana boshqa bir tomonidir. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi voqealar turli shaharlar hududida, qishloq hayotidan farq qiluvchi sharoitda kechadi. Obrazlarning kasb-hunari, bajaradigan vazifalari va ular yashayotgan ijtimoiy muhit lingvomadaniy jihatdan til birliklarining ishlatilish

holatida o‘ziga xoslikni ko‘rsatadi. “Mehrobdan chayon” romanidagi zamon va makon tushunchasi, ijtimoiy borliqning holati esa yana o‘zgacha lisoniy birliklarni qo‘llashni taqozo etadi. Kichik prozaik asarlarida ham qorishiq muhit va leksik birliklarning shunga hamohang holatda ishlatilishi kuzatiladi. Bu holat obrazlarning dunyoqarashida aks etadi; muhit sharoitidan kelib chiqib qo‘llaydigan lingvistik birliklari ularning milliy-madaniy qiyofasini gavdalantirib turadi.

Lingvokulturologiyaning aniq yo‘nalishi, obyekti va usullarini belgilab olish uchun ma’lum bir qoida va qarashlarni ishlab chiqish talab etiladi. Bu borada V. Teliyaning olib borgan tadqiqotlari asosidagi ilmiy xulosalar fanning aniq maqsadini belgilab olishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, har bir tilning milliy-madaniy va lingvistik holatlarini, uning asosi va muhim jihatlarini aniqlash uchun “ichki kuzatuvchi” tushunchasi alohida ahamiyatga ega.

“Ichki kuzatuvchi” shu tilning egasi yoki shu til xususiyatlarini atroflicha biladigan shaxs bo‘lishi mumkin. Bunday “ichki” kuzatuv amaliyotining ahamiyatli tomoni shundaki, tilda ajralmas holga kelib qolgan birliklarni faqatgina shu til egalarining o‘zigina to‘liq tushunishi mumkin. Ularning lingvomadaniy jihatlarini aniqlash ham aynan shu til xususiyatlaridan batafsil ma’lumotga ega bo‘lgan, tilning lisoniy-madaniy kompetensiyasidan xabardor shaxslar vositasidagina amalga oshirilishi mumkin. Boshqa metaforik birliklar, o‘xshatishlar va turli xil ramzlarning xususiyatlarini aniqlash ham xuddi shu prinsip asosida olib boriladi.

Ichki va tashqi kuzatuv omillari turli vaziyatlarda, kuzatish parametrlari nuqtayi nazaridan dialektik yondashuvga asoslanishi kerak. Tilning tashqi belgilari va uning dastlabki ifodalaydigan ma’nosidan xabardor bo‘lmay turib, uning nimalarga aloqadorligi va qanday lingvomadaniy ahamiyat kasb etishini bilish mutlaqo imkonsizdir.

Bunga misol sifatida quyidagi iqtibosni keltirish mumkin: “Ulug‘ hayitdagi hayitlikka oldirgan mo‘g‘ul egarcha bilan g‘alaticha qilib toychamni egarladim. Tog‘amga yalinib-yalpog‘lanib oldirgan o‘rus yuganni artib-surtib soldim-da, o‘zim chetroqdan turib kam-ko‘stini kuzatdim: — Quyushqoni ham o‘rnida, egar ham yaxshi qo‘ngan, qorinbog‘i ham jips, yugan ham to‘ralarnikidek!” (“Uloqda” hikoyasi). Mazkur matndagi “ulug‘ hayit”, “hayitlik”, “mo‘g‘ulcha egar”, “o‘rus yugan”, “quyushqon” kabi birliklarni ham ichki, ham tashqi kuzatuv asosida lingvomadaniy tahlil qilish mumkin. Chunonchi, bizning milliy madaniyatimiz bilan aloqador holatda Islom madaniyati bilan omuxtalashish, egar va yugan kabi birliklarning sifatlovchilari bilan atalishi va “quyushqon” birligining xalq maqol hamda iboralari tarkibida qo‘llanilishi ushbu birliklarning yuksak lingvokulturologik ahamiyatini belgilab beradi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “spetsifika” lotincha birlik sifatida “tur, jins va bajarmoq, qilmoq” so‘zlaridan tarkib topganligi, “biror narsa, hodisa uchungina xos , xarakterli xususiyatlar majmui” ekanligi izohlangan(O‘TIL, 566). Lingvokulturologiyaning spetsifikasini shu sohaga taalluqli birliklar, uni tadqiq etish usullari, obyekti va boshqa hodisalar tashkil etadi.

Madaniyatshunoslik kishilik jamiyatiga tegishli bo‘lgan, odam aql-zakovati mahsuli sifatida shakllangan, kashf qilingan narsalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Madaniyatlar ham turlicha ahamiyat kasb etadi, individual, jamoaviy, umuminsoniy kabi madaniyatlar mavjudki, ularning barchasi inson kashfiyotining mahsuli hisoblanadi.

Muhokama. Etnografiyada xalqning turlicha hayotiy chizgilari, ommalashgan udumlar, rasm-rusumlar, odatlar, an’analar o‘rganiladi. Ma’lum bir udumlar turlicha teonimik qarashlar, mif, afsona yoki turlicha hayotiy-maishiy vaziyatlar nuqtayi nazaridan paydo bo‘ladi.

Psixologiya fanida inson ruhiy holati, uning bosqichlari, filogenetik va ontogenetik taraqqiyot yo‘li, unda insonning psixologik holatini kuzatishda o‘z aksini topadi.

Sotsiologiya kishilik jamiyatining turmush tarzi, uning ijtimoiy hayotida sodir bo‘ladigan voqealar, turli ijtimoiy jamiyatlarning shakllanishi, bu bilan insonlarning maishiy, ijtimoiy hayotida sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Yuqorida har bir fanning alohida o‘rganilish sohasi haqidagi umumiy qarashlarni bayon etishdan maqsad lingvokulturologiyaning spetsifikasi nimalardan iboratligi, ularning mazkur fanlar bilan qanday aloqasi borligi, badiiy matn tahlilida bularning tutashgan nuqtalarini bilish qanday samara berishi mumkinligini tahlil qilishdan iborat. Bu vaziyatni Abdulla Qodiriy asaridagi quyidagi misol orqali dalillash mumkin:

“Oyimning bir qiziq odati bor: har qachon yangiroq kiyim kiymoqchi bo’lsam, ko’zini ola-kula qilib: “Qaqshag‘ir, kir qilasan, to‘y-po‘yga borganda kiyarsan!” — deb qarg‘ay boshlaydi. Ozgina “shayton yig’‘isi” qilmaguningcha ish o‘nglanmaydi”(“Uloqda”).

Mazkur gap lingvistik tahlil qilinganda, unli va undosh tovushlar, turli leksik birliklar, so‘z turkumlari, gap bo‘laklari, ularning tartibi, uslubiy jihatdan matnning xususiyatlari tahlil qilinishi mumkin. Leksik birliklarning polisemantik tabiati, gap bo‘laklarining tartibi turkiy tillarga xos lingvistik jihatlar bilan

aloqadordir. Onalarning farzandiga munosabati, ma’lum bir vosita haqida gapirilganda bolaning holati e’tiborsiz qoldirilmay, asosli tarzda tanbeh birish milliy madaniyatimizga xos belgilardir.

Turli madaniyatlarda har xil obrazlar turlicha ramziy ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Qayerdadir fil, yo‘lbars, timsoh, ilon, kenguru, tulki kabi qator obrazlar madaniy nuqtayi nazardan ma’lum bir ma’nolarni ifodalashga xizmat qilsa, bizning madaniyatimiz, qadriyatlarimizda, ot, it, bo‘ri , ilon, hattoki kapalak ham madaniy ahamiyatga ega. Ularga ayricha munosabatda bo‘lishadi. Ular maqol, iboralar, xalq udumlari tarkibiga kirib ketgan. Shaxsga xos xususiyatlarni berishda ham aynan shu birliklardan foydalanishga harakat qilinadi.

“Qirning bir chekkasiga borib otimni to‘xtatdim, talay vaqtdan keyin ular otlarini lo‘killatishib yonimga yetdilar. Mening qashqacham to‘g‘risida, Haydar aytadi: «Sening, — deydi, — otingga hech ot bolasi yetmaydi!» — deydi. Nurxon aytadi: «Otdan sening baxting bor ekan, lekin, — deydi, — yem-hashakni o‘zing ber, xizmatkorga ishonsang otingni buzib qo‘yadi, o‘rtoq, men senga bir aytib qo‘ydim»,— deydi”(“Uloqda”). Xalqimizning otga nisbatan munosabati juda ijobiy, u insoniyatning butun tarixiy-tadrijiy taraqiiyoti davomida unga yo‘ldosh bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida otning turli xususiyat va belgilariga atab bir qancha nomlanishlarga egaligi haqida ma’lumot berilgan. Ot belgilarining alohida keltirilib, “bodirafraf, bodisarsar”ga qiyoslanishi ham xalqimizning milliy tafakkuri mahsulidir.

“Uyda non yopilmag‘anidek bozordan ham sotib olinmas, chunki, panjshanbalik non yetib, ortib yotar, hatto ba’zi vaqtlarda bozorg’a ham chiqar edi”(“Mehrobdan chayon”) Bunday o‘xshatishlar xalqimizning dunyoqarashini, tasavvvurlarini boshqa tushunchalar bilan aloqadorlikda, qiyoslashlarda, psixik, sotsial omillar asosida shakllantirishini kuzatamiz. Tildagi leksemalarning ichki semantik etalonlari aslida mutalaqo yangi tushunchalarni anglatib keladi, degan fikrni yuzaga keltirmaydi. Ular avvaldan mavjud bo‘ladi.Ular faqatgina ma’lum vaziyatlar talabi bilan nutqiy jarayonda reallashadi.

Har qanday madaniy xususiyatlar xalqning tili, uning rasm-rusumlari, vaziyatlarga munosabatida ko‘rinadi. Turli afsonalar, metaforalar, xalq tomonidan ruhiyatida, madaniyatiga singdirilgan prototiplar ularning hayotiy-maishiy holatining ajralmas qismiga aylangan. Madaniyatdagi ramziylik, etalon, metafora va o‘xshatishlar har qanday insonning o‘ziga xos tafakkuri va tasavvuri mevasi o‘laroq paydo bo‘ladi, davr o‘tishi bilan ta’sirlar natijasida umumlashadi, ko‘nikma holiga keladi. Xalq o‘zi uchun ideal darajaga olib chiqqan obrazlar(ular inson ham boshqa tushunchalar, masalan, hayvon, o‘simlik, tabiat hodisalari va boshqalar), rasm-rusumlar, urf-odatlar, simvollar, frazeologik hamda paremiologik birliklar, turli lingvistik hodisalarda lingvomadaniy xossalar jamlangan bo‘ladi.

Xulosa. Umuman olganda, lingvokulturologik tahlilni amalga oshirish jarayonida mazkur birlikni ochib berishga ahamiyatli bo‘lgan, til madaniyatini to‘liq aks ettirishga xizmat qila oladigan individual birliklarni aniqlash zarur, undan keyin esa ularni yagona konsept doirasiga birlashtirish tadqiqotni amalga oshirilishining samaradorligini belgilovchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2018, 336 bet.

2. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Yangi nashr, 209, 285 bet.

3. Abdulla Qodiriy. “She’rlar, hikoyalar, ocherklar, drama, hajviya va kichik asarlar”. T.: Zabarjad Media, 2022.

4. Аскольдов С. А. Концепт и слово [Текст] / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267–280.

5. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка.-М.: Наука, 2010. -288 с.

6. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию) - М.: Наследие,1992.

7. Маслова В.А. Лингвокультурология. - М.: Академия, 2000;

8. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М.: Изд. Центр «Академия», 2001. – 208 с.

9. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. 4-е изд.–Москва: Академия, 2010.–208 с.

10. Маслова В.А. Человек в зеркале сравнения // htt: / wwwgumer. Info / biblioter – Burs / Linguist / maslova / 06 / php.

11. Телия Н.В. Типы языковых значений. Связанное значение слова в языке. - М., 1981;

2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz

doi® digital object identifier

Google scholar

ROAD DIRECTORY OF OPEN ACCESS SCHOLARLY RESOURCES

ADVANCED SCIENCES INDEX

"SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY"

The journal was composed in the Editorial and Publishing Department of Bukhara State University.

Editorial address:
Bukhara, 200117
Bukhara State University, main building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing Department.
https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted 29.07.2026 y. Paper format 60x84,1/8. Printed in express printing method. Conditional printing plate – 35,30. Circulation 70. Order № 30. Price is negotiable.

Published in the printing house "BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, Hofiz tanish Bukhari street, 190 B-house